Nordic
Scientific-practical e-journal

ISSN 3030-3400

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali

Nordic scientific-practical e-journal

6-SON · VOLUME 6 · 2026

IQTISODIYOT | PEDAGOGIKA | FILOLOGIYA | PSIXOLOGIYA | TARIX

MILLIY ILMIY NASHRLAR RO‘YXATIDA
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati

www.journal.nordicuniversity.org

ISSN 3030-3400

Nordic
Scientific-practical e-journal

NORDIC SCIENTIFIC-PRACTICAL E-JOURNAL

VOLUME-6

NORDIK ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNALI

6-SON

© Nordic International University

TAHRIRIYAT KENGASHI HAY'ATI



Sherzod MUSTAFAKULOV

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi raisi



Odil QO'YSINOV

Pedagogika fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi bosh muharriri



Oybek RAXIMBERDIYEV

Akademik ishlar departamenti boshlig'i

Tahririyat kengashi mas'ul kotibi



Abdurauf TO'QLIYEV

Tayanch doktorant

Tahririyat kengashi texnik muharriri



Muxtasar ISAQOVA

Matbuot kotibi, jurnalist

Tahririyat kengashi a'zosi, matn muharriri



Akbar MANSUROV

Web dasturchi

Tahririyat kengashi a'zosi, texnik xodim



Sherzod URALOV

Web dasturchi

Tahririyat kengashi a'zosi, texnik xodim



Hasan MAQSUDOV

Dizayner

Tahririyat kengashi a'zosi, sahifalovchi-dizayner

Muassis

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

Xalqaro Nordik universiteti O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining №057216 raqamli Guvohnomasi asosida “Nordic” ilmiy-amaliy elektron jurnalini nashr etish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Jurnalda maqolalar o‘zbek, rus, ingliz va fin tillarida nashr etiladi.

KENGASH A’ZOLARI

Saidahror G‘ulomov	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor	**O‘zbekiston**
Marat Raxmutlaev	Texnika fanlari doktori, professor	**O‘zbekiston**
Baxtiyor Salimov	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor	**O‘zbekiston**
Olim Murtazayev	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor	**O‘zbekiston**
Shavkat Hasanov	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor	**O‘zbekiston**
Mahammadsiddik Amonboyev	Iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor	**O‘zbekiston**
Nuriddin Murodullayev	Xalqaro Nordik universiteti prorektori	**O‘zbekiston**
Petri Juhani Raivo	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**Finlandiya**
Pekka Auvinen	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**Finlandiya**
Alisher Jo‘rayev	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**O‘zbekiston**
Nizomiddin Urmonov	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	**O‘zbekiston**
Bruno Dallago	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**Italiya**
Kobil Ruziyev	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**Angliya**
Ihtiyor Bobojonov	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**Germaniya**
Odiljon Abdurazzakov	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**O‘zbekiston**
Mirza Tulayev	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	**O‘zbekiston**
Munis Abdullayev	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	**O‘zbekiston**
Xasan Sabirov	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	**O‘zbekiston**
Zulfiya Xamidova	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	**O‘zbekiston**
Lochin Raxmonov	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**O‘zbekiston**
Alijon Ergashev	Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**O‘zbekiston**
Musoxon Isakov	Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	**O‘zbekiston**
Maxammadmurod Shomirzayev	Pedagogika fanlari doktori, professor	**O‘zbekiston**
Xusniddin Jo‘rayev	Pedagogika fanlari doktori, professor	**O‘zbekiston**
Qurbonniyoz Panjiyev	Pedagogika fanlari doktori, professor	**O‘zbekiston**
Dilafro‘z Miraliyeva	Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**O‘zbekiston**
Nigora Lutfullayeva	Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**O‘zbekiston**
Dilshod Nasriddinov	Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	**O‘zbekiston**
Elbek Qosimov	Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD	**O‘zbekiston**

6-SON · VOLUME 6 · 2026

MUNDARIJA

CONTENTS

Nordic
Scientific-practical e-journal

1	YOVKOCHEV SHERZOD Key directions of international financial institutions' funds in the economy of the Republic of Uzbekistan	4
2	TILYABAYEV KAMIL O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda his-tuyg'ular ahamiyati	9
3	AZIZOVA DURDONA, USMONOV DAVLATJON Advantages and challenges of teaching microeconomics courses in higher education in English	18
4	BAHODIROV JAHONGIR Elektrotexnika sanoatida ta'minot zanjiri barqarorligi: komponentlar importiga qaramlikni kamaytirish strategiyalari	23
5	NURULLAYEVA MEXRINISO Xizmatchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish jarayonlarini raqamli boshqarishning konseptual modeli va algoritmik ta'minotini ishlab chiqish	30
6	KUPALOVA BARNO Alternative models of female liberation: challenging Victorian expectations in "Jane Eyre" and "Vanity Fair"	36
7	MAMADALIYEV ULUG'BEK Turizm va xizmatlar sohasi: O'zbekistondagi turistik firmalarning barqaror rivojlanish omillari	43
8	ABDURAIMOV SHERALI Oliy ta'limda sifat kafolatining transformatsiyasi: evolyutsion bosqichlar, global tendensiyalar va tizimli muammolar	49
9	BOBOMURODOVA LATOFAT Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi uzviyligini ta'minlashda ijodiy yondashuvning strategik ahamiyati	54
10	AXMEDOVA NILUFAR Qurilish tarmog'ida kichik va yirik biznes subyektlari integratsiyasining strategik yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorlik modellari	58
11	NAZAROV SUYUNBEK The challenges and solutions of developing communicative competence in teaching English for specific purposes	64
12	XAMIDOVA ZULFIYA Ilmiy tadqiqotning nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari va iqtisodiyot fanida evolyutsiyasi	72
13	SULEYMANOVA SHOIRA, ERKINOVA SHAXZODAXON, RAIMKULOVA ANORA Exploring the role of student engagement in mediating the impact of AI personalization on academic outcomes: a PLS-SEM study	82
14	MURODOV TEXRON Innovatsion boshqaruvni tashkil etishda refleksiya va kreativlikning integratsiyasi: McDonald's tajribasi misolida	88
15	DAVRONOVA MAFTUNA Farmatsevtika xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari	93
16	MIRSODIQOVA NASIBAXON, HABIBJONOV USMONJON Oliy ta'lim talabalarida internetdan foydalanish madaniyati va uning samaradorligi	99
17	XAMIDOVA NODIRABEGIM Tourism as a tool for economic diversification in Uzbekistan	106

KEY DIRECTIONS OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS' FUNDS IN THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Orcid: 0009-0001-1484-6512



Yovkochev Sherod

Kimyo International University in Tashkent Associate Professor.

Abstract: This paper analyzes the sectoral allocation and strategic priorities of financial resources provided by international financial institutions (IFIs) to the economy of the Republic of Uzbekistan. The study focuses on three key development partners—the World Bank Group, the Asian Development Bank (ADB), and the Islamic Development Bank (IsDB). Using descriptive statistical methods, comparative analysis, and sectoral distribution assessment based on official data covering the period from 1994 to 2025, the research evaluates the structure and dynamics of IFI financing and its alignment with national development objectives. The results indicate that IFI funds are predominantly concentrated in institutional reforms, agriculture, energy, transport, and infrastructure, while allocations to education, healthcare, and the digital economy remain relatively limited. The findings reveal structural imbalances in sectoral financing and highlight the importance of strengthening technical and advisory assistance, as well as reorienting part of IFI resources toward human capital development to ensure sustainable and inclusive economic growth in Uzbekistan.

Keywords: International financial institutions, World Bank, Asian Development Bank, Islamic Development Bank, Uzbekistan, economic development, sectoral allocation, institutional reforms, sustainable development, trade finance.




INTRODUCTION

International financial institutions play a crucial role in supporting economic development, institutional transformation, and structural modernization in emerging and transition economies. Through the provision of long-term financial resources, technical assistance, and policy advice, IFIs contribute to macroeconomic stability, infrastructure development, and the strengthening of public and private sector capacity. For countries undergoing economic reforms, cooperation with international financial institutions represents not only a source of external financing but also an important channel for transferring international best practices and institutional standards.

In the Republic of Uzbekistan, cooperation with major international financial institutions—particularly the World Bank Group, the Asian Development Bank, and the Islamic Development Bank—has intensified over recent decades. These partnerships have supported a wide range of projects in infrastructure, agriculture, energy, transport, healthcare, education, finance, and public administration. In the context of economic liberalization and deeper integration into the global economy, the effective allocation of IFI financial resources across priority sectors has become a key factor in ensuring long-term economic stability and sustainable growth.

Previous studies emphasize that IFI financing in emerging economies is often concentrated in infrastructure development and institutional reforms, while social sectors and innovation-driven areas receive comparatively limited support. Empirical evidence on the long-term sectoral allocation of IFI resources in Uzbekistan, however, remains fragmented and insufficiently systematized, particularly in terms of comparative analysis across different international financial institutions.

The object of this study is the system of financial cooperation between the Republic of Uzbekistan and major international financial institutions. The subject of the research is the sectoral allocation and strategic orientation of IFI financial resources within the national economy. The main research question addressed in this paper is how IFI funds are distributed across key sectors of Uzbekistan's economy and to what extent this distribution corresponds to the country's development strategy. The scientific novelty of the study lies in a comprehensive comparative analysis of the financing structures of the World Bank Group, ADB, and IsDB over an extended period. The practical significance of the research consists in formulating policy-oriented conclusions that may support public authorities in optimizing cooperation with international financial institutions and improving the efficiency of external financial resource utilization.



METHODOLOGY

This study employs a mixed-method research design combining descriptive statistics, comparative analysis, and structural sectoral assessment. The empirical base of the research consists of official data obtained from the World Bank Group, the Asian Development Bank, and the Islamic Development Bank, covering the period from 1994 to 2025.

Descriptive statistical methods are used to analyze the volume, structure, and dynamics of IFI financial flows to Uzbekistan. Comparative analysis is applied to identify differences in sectoral priorities among the World Bank Group, ADB, and IsDB. In addition, sectoral distribution analysis is employed to assess the alignment of IFI financing with Uzbekistan's national development strategy and long-term economic priorities. The selected methods allow for a comprehensive evaluation of both the quantitative scale and qualitative orientation of international financial support.

3. RESULTS

3.1. World Bank Group Financing

The World Bank Group is one of Uzbekistan's key development partners, supporting projects across a wide range of economic and social sectors. Between 1994 and 2025, the total volume of loans and technical assistance approved for Uzbekistan amounted to approximately USD 12.7 billion. The Bank's financing strategy prioritizes institutional reforms, public sector governance, and the modernization of core economic sectors.




Figure 1. Total volume of loans and technical assistance approved for Uzbekistan by the World Bank Group as of August 31, 2025 (in million USD)

Sectoral analysis shows that the largest share of World Bank financing is allocated to the government sector, totaling USD 4.1 billion or 32.4% of total commitments. This reflects a strategic focus on strengthening public administration and supporting market-oriented reforms. Agriculture and water supply and irrigation together account for 29.4% of total financing, underscoring the importance of food security and sustainable resource management. The energy sector receives 12.4% of total funding, supporting energy system modernization and the transition toward renewable energy sources.

At the same time, social sectors receive relatively smaller allocations. Healthcare accounts for 4.4% and education for only 1.8% of total financing, indicating that human capital development remains a secondary priority within the current structure of World Bank support in Uzbekistan.[5]

At present, financing reforms aimed at transitioning to a market economy remains a critical component of development projects in Uzbekistan. Additionally, initiatives focused on the rapid improvement of medical services—including technical assistance, capacity-building, research, procurement of essential equipment, and the development of centralized dispatch systems—along with projects designed to enhance the efficiency of the horticulture sector through equipment modernization and training programs, are intended to deliver tangible practical results.

Aligned with Uzbekistan's new development strategy, the country is pursuing inclusive economic growth through private sector development, economic liberalization, regional cooperation, and global integration. Overall, the funds provided by the World Bank to Uzbekistan are primarily directed toward institutional reforms, effective management of agricultural and natural resources, and modernization of the energy sector. This allocation structure plays a significant role in promoting long-term economic stability and achieving sustainable development objectives. At the same time, the relatively low share of resources allocated to social sectors highlights the future need for additional investments in education and healthcare.

3.2. Asian Development Bank Financing

Since joining the Asian Development Bank, Uzbekistan has become one of the leading recipients of ADB financing in Central and West Asia. As of December 2024, the total volume of sovereign financing and technical assistance allocated to Uzbekistan amounted to USD 13.43 billion. ADB-supported projects primarily focus on energy, transport, finance, agriculture, education, water supply, and healthcare.




Figure 2. Total Volume of Loans and Technical Assistance Allocated to Uzbekistan by the Asian Development Bank as of December 2024 (in USD billion)

The sectoral distribution indicates that energy (21.0%), transport (21.3%), finance (19.3%), and public administration (15.2%) collectively account for approximately 77% of total commitments. This structure reflects ADB's strategic emphasis on infrastructure development and financial system strengthening. By contrast, education (2.9%), healthcare (2.2%), and information and communication technologies (0.001%) receive minimal funding, highlighting a structural imbalance in favor of physical infrastructure over human capital and digital development.

Trade finance programs play a significant role in ADB cooperation with Uzbekistan. By the end of 2024, USD 1.48 billion had been allocated through 1,247 projects, with the majority of funds directed toward the financial sector, supporting trade operations and private sector activity.

The majority of these projects are concentrated in the financial sector. Specifically, through 940 projects, USD 1,146.01 million has been mobilized, accounting for 77.6% of the total volume. This allocation plays a crucial role in supporting the banking system, financing trade operations, and accelerating financial flows. Additionally, 307 projects have been implemented in the industrial and trade sectors, with a

total value of USD 331.48 million, representing 22.4% of the overall funding. These resources are directed toward supporting production chains and facilitating import-export operations.

3.3. Islamic Development Bank Financing

Cooperation with the Islamic Development Bank represents an important dimension of Uzbekistan's external financing strategy, offering access to alternative financing instruments based on Islamic finance principles. As of December 31, 2024, the IsDB had allocated USD 4.4 billion to Uzbekistan across 184 projects.

The majority of IsDB financing is directed toward project financing (62.9%) and trade finance (36.9%), while technical and special assistance account for a very small share. Sectoral analysis shows that agriculture (33%), transport (22%), and healthcare (14%) are the leading priority areas, followed by energy, education, and water resources. This allocation structure highlights the IsDB's role in supporting real-sector and socially oriented projects.




Figure 3. Total financial resources allocated by the Islamic Development Bank to the Republic of Uzbekistan (mln USD, as of December 31, 2024)

It should be noted that the share of technical assistance, i.e., advisory support, within the framework of economic cooperation between the Republic of Uzbekistan and the Islamic Development Bank remains relatively small. Therefore, considering the high potential of this partnership, greater attention should be directed toward the technical and consultative dimension.

Analyzing the sectoral distribution of financial resources provided by the Islamic Development Bank to Uzbekistan provides insights into the priority areas of focus. It is important to highlight that the Bank finances various sectors of donor countries' economies through multiple projects, with the ordinary capital resources fund serving as the primary instrument for implementing this mechanism.

Within the allocated financial resources, the leading three sectors are agriculture, transport, and healthcare, receiving USD 905.6 million (33% of the total), USD 593.4 million (22%), and USD 392.5 million (14%), respectively (see Figure 4).




Figure 4. Distribution of Ordinary Capital Resources (OCR) by sector (in million USD, as of 31 December 2024)

By sector, the projects allocated to energy, education, and water resources amounted to USD 353.1 million (13% of the total), USD 257.6 million (9.5%), and USD 92.9 million (3.4%), respectively. The majority of financial resources are directed toward the agricultural sector and transport, highlighting the country's strategic economic priorities. At the same time, the relatively smaller allocations to industry and water resources indicate the need for more active measures in these areas in the future.

The Republic of Uzbekistan, through cooperation with international financial institutions, attracts substantial financial resources to develop strategic sectors of the economy. The World Bank primarily supports institutional reforms, agriculture, and the energy sector, while the Asian Development Bank focuses on infrastructure and financial system development. The Islamic Development Bank plays a significant role in the agrarian sector, transport, and healthcare. Overall, collaboration with international financial institutions contributes to Uzbekistan's economic stability and long-term sustainable development.

4. DISCUSSION

The results of this study are broadly consistent with previous research on the role of international financial institutions in emerging economies, which emphasizes the prioritization of infrastructure development and institutional reforms. Earlier studies indicate that IFI financing is often concentrated in energy, transport, and public administration, while social sectors receive comparatively limited support. The findings for Uzbekistan confirm this pattern, particularly in the financing structures of the World Bank Group and the Asian Development Bank.

At the same time, the results reveal several country-specific features. Compared to earlier studies on IFI cooperation in Uzbekistan, the present analysis demonstrates a growing role of trade finance

and alternative Islamic financing instruments, especially within the framework of cooperation with the Islamic Development Bank. This diversification of financing mechanisms reflects broader changes in the global development finance architecture and distinguishes the current stage of cooperation from earlier periods.

From the author's perspective, the observed concentration of IFI funds in infrastructure and institutional reforms, while necessary in the short and medium term, may constrain long-term growth potential if investments in human capital, education, healthcare, and the digital economy remain insufficient. The findings suggest that a more balanced sectoral allocation of IFI resources, combined with strengthened technical and advisory assistance, would enhance the sustainability and developmental impact of international financial cooperation in Uzbekistan.

CONCLUSION

The study demonstrates that cooperation between Uzbekistan and international financial institutions plays a crucial role in financing strategic sectors of the national economy. The World Bank Group primarily supports institutional reforms, agriculture, and energy; the Asian Development Bank focuses on infrastructure and financial system development; and the Islamic Development Bank prioritizes agriculture, transport, and healthcare. While these investments contribute significantly to economic stability and sustainable development, the relatively low allocation of resources to education, healthcare, and the digital economy indicates the presence of structural imbalances. Strengthening technical assistance and advisory support, alongside reorienting part of IFI financing toward human capital development, would enhance the long-term effectiveness of international financial cooperation and promote inclusive economic growth in Uzbekistan.

REFERENCES

1.The World Bank Group. Projects List. [Electronic resource]. Retrieved from: https://projects.worldbank.org/en/projects-operations/projects-list?searchTerm=uzbekistan

2. The World Bank Group. Projects. [Electronic resource]. Retrieved from: https://projects.worldbank.org/en/projects-operations/projects-list?lang=en&searchTerm=&countrycode_exact=UZ

3. Asian Development Bank. Uzbekistan Projects. [Electronic resource]. Retrieved from: https://www.adb.org/countries/uzbekistan/main

Islamic Development Bank. Annual Report 2024. [Electronic resource]. Retrieved from: https://2024.ar.isdb.org/en/

4. Rodrik D. Industrial policy for the twenty-first century // CEPR Discussion Paper. – 2022. – No. 17613.

5. Calderón C., Servén L. Infrastructure and growth in developing countries // Journal of Development Economics. – 2020. – Vol. 147. – Article 102530. – DOI: 10.1016/j.jdeveco.2020.102530.

O‘ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O‘RGANISHDA HIS-TUYG‘ULAR AHAMIYATI

https://orcid.org/0009-0009-0983-1656




Kamil Tilyabayev

Toshkentda Xalqaro Vestminster universiteti katta o‘qituvchisi, ta’lim va ijtimoiy adolat bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada 20-40 yoshli O‘zbekiston fuqarolarining o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish tajribalarini aniqlab tahlil qilish maqsad qilib olingan. Ushbu maqsadga erishish uchun kerakli ma’lumotlar intervyular yordamida yig‘ilib, narrativ tahlil usuli yordamida tahlil qilindi. Natijalar 4 ta narrativ-hikoya tarzida taqdim etilib muhokama qilindi. Alohida urg‘u hissiy tajribalarga berilib, ularning til o‘zlashtirganlik darajalariga qanday ta’sir ko‘rsatgani izohlandi. Aniqlangan his-tuyg‘ular shakllanishiga ta’lim tizimi, kengroq muhit, shaxsiy sifatlar (millat va qat’iyatlik) va natijalar (muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik) qo‘shgan hissalar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Ayb o‘zbek tilini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga, uyat esa teskarisiga olib kelishi ko‘rsatildi. Mazkur tadqiqot natijalari o‘zbek tilini iikinchi til sifatida o‘qitish dasturlarini va darsliklarini ishlab chiqayotgan, shu tilga o‘rgatayotgan va barcha o‘zbekzabonlarga milliy tilimizning nufuzini oshirish uchun inobatga olishga tavsiya qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, ikkinchi til, ijobiy psixologiya, his-tuyg‘ular, muhit, rasmiy va norasmiy ta’lim, narrativ tahlil, motivatsion va demotivatsion omillar.



KIRISH

Lankaster universitetining ta’lim va ijtimoiy adolat yo‘nalishi bo‘yicha doktoranturasida o‘qigan paytimda bir maxsus kurs bor edi. Shu kurs davomida men ikkita ilmiy maqola bilan tanishib, ularning biriga taqriz yozishim kerak edi. Birinchi maqola Gana kabi Afrika mamlakatidagi o‘rta maktab ta’lim tizimi tenglik tamoyiliga qay darajada amal qilishining tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, har bir o‘quvchisida nechta darslik borligi, har bir o‘qituvchisiga nechtadan o‘quvchi to‘g‘ri kelishi va ulardan qanchasi maktab bitirishi kabi quruq statistik ma’lumotlarga asoslanib yozilgan (Takyi et al., 2019). Ikkinchi maqola esa Buyuk Britaniyadagi universitet talabalarining o‘qish safarlari jarayonida kechirgan his-tuyg‘ulari, ushbu kechinmalarning o‘qishga ta’siri va albatta universitet rahbariyati va o‘qituvchilari tomonidan inobatga olinishi haqida edi (Finn, 2017).

Ikkala maqola bilan tanishib, ikkita narsaga ahamiyat berdim. Eng avvalo Buyuk Britaniyaning Ganaga nisbatan ancha kuchli iqtisodiyoti borligi tufayli, uning ta’lim tizimidagi moddiy ta’minot masalasi Gana uchundek dolzarb emas. Unday bo‘lsa, bemalol ruhiy-emotsional jihatlarga e’tibor berish mumkin. Ammo unda yana bir gap bor. Bunday ketishda Gana va uning misolida butun uchinchi dunyo mamlakatlari odamlarining ruhiy kechinmalari yo‘qligi haqida tasavvur paydo bo‘lib qolishi va ilg‘or mamlakatlar ko‘zidagi ularning “odamiylik darajasi” pasayishi mumkin. Bu esa yana kamsitishga olib keladi, tengsizlikni tobora chuqurlashtiradi. O‘shanda ilmiy ishim mavzusini tanlasam, albatta ruhiy-emotsional jihatlarni o‘rganaman deb qaror qilganman. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishning emotsional jihatlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotim shuning isbotidir (Tilyabaev, 2024). Mazkur mavzu tanlashda albatta faqat shaxsiy qiziqishim emas, balki quyida batafsil tushuntirilgan ilmiy sabablar ham katta rol o‘ynagan.

Yuqorida aytib o‘tilgandek, tanlangan tadqiqot yo‘nalishi - til o‘rganishning emotsional jihatlari. Tilshunoslarning his-tuyg‘ularga bo‘lgan qiziqishi 1980-yillarda boshlangan. Hozirda his-tuyg‘ular til o‘rganishning markaziy tarkibiy qismi sifatida ko‘rilmoqda (Dewaele, 2010). Ikkinchi til o‘rganishda ijobiy psixologiya va his-tuyg‘ular modeli Shao va boshq. (2020) tomonidan taklif qilingan. Mazkur model quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: 1) o‘quv muhiti/tizimi; 2) talabalarning shaxsiy sifatlari; 3) talabalarning his-tuyg‘ulari; va 4) talabalar natijalari. Ushbu elementlar bir biriga ta’sir qilib, ikkinchi til o‘rganish borasidagi tegishli natijalarga olib keladi. Ushbu model bir qator empirik tadqiqotlar bilan isbotlandi (Arens, Morin va Watermann, 2015; Frenzel va boshq.,



2018; Wei va Wang, 2019), va o‘qitish hamda o‘rganishini baholash uchun foydali deb topildi.

Mavjud adabiyotlarda asosan maktab/universitet muhitidagi vaziyatlar ko‘rib chiqiladi, rasmiy ta’lim kontekstidan tashqarida esa ikkinchi til o‘rganish his-tuyg‘ulari haqida ma’lumot kam (Driver va Prada, 2024). Bundan tashqari, mavjud empirik natijalar xalqaro miqyosda qanchalik ishonchli va universal ekanligi haqida savol tug‘ilishi mumkin, chunki asosan G‘arb ta’lim muhiti shu paytgacha tadqiqotchilarning e’tiborini tortib kelgan. Mavjud adabiyotlarning aksariyati ikkinchi til sifatida ingliz tilini o‘rganuvchilarning ehtiyojlarini yoki Italiya (MacIntyre va Vincze, 2017), Ruminiya (Pavelescu va Petrić, 2018; Dewaele va Pavelescu, 2021), Vengriya (Piniel va Albert, 2018) va Kanada (Boudreau, MacIntyre va Dewaele, 2018) kabi g‘arbiy sharoitlarda ikkinchi til o‘rganish xususiyatlarini yoritib kelgan. Shunday qilib, ikkinchi til o‘rganish his-tuyg‘ular bilan qanday bog‘liqligini yoritish uchun boshqa tillar misolida va boshqa kontekstlarda ko‘proq tadqiqotlar o‘tkazish tanlangan mavzuning dolzarbligini tashkil etadi.

Global miqyosda aniqlangan bo‘shliqlar O‘zbekistonda o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishga ham taaluqlidir, chunki ma’lumki, bunday tadqiqotlar hali olib borilmagan. Shunday qilib, nog‘arbiy kontekstda olib boriladigan tadqiqotlar hamda o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganayotgan O‘zbekiston fuqarolarining hissiy tajribalariga e’tibor qaratib aniqlash yuqorida qayd etilgan bo‘shliqlarni samarali to‘ldirishga yordam beradi. Tanlangan mavzuning yangiligi va vazifasi ham aynan shulardan iborat. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri o‘z-

bek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo‘lishi nimaga bog‘liqligini va ushbu jarayonda kechirilgan his-tuyg‘ular rolini aniqlash edi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Ushbu maqolada O‘zbekiston fuqarolarining o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishidagi hissiy tajribalarini yoritib beradigan kichik ko‘lamli sifat xarakteridagi tadqiqot natijalari taqdim etiladi. Bunday tadqiqotlar maqsadi hodisani o‘lchab umumiylashtirish emas, balki hodisaning noma’lum qirralarini ochishdir (Padgett, 2011). Shunday ekan, uning ishonchliligi statistik ishlov berish orqali emas, balki turli manbalar bilan triangulyatsiya qilish orqali ta’minlanadi (Hayashi, Abib va Hoppen, 2019). Tadqiqotning 25 ta 20-40 yoshli qatnashchisi o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish tajribalari haqidagi ma’lumotlar individual suhbatlar orqali to‘plangan. Olingan ma’lumotlardan tadqiqot maqsadlarida foydalanish, ularning xavfsizligi, maxfiyligi va manbalarini taxalluslash BERA (2018) axloqiy me’yorlariga muvofiq ta’minlandi. Olingan ma’lumotlar narrativ tahlil usuli yordamida qayta ishlangan (Smith, 2016). Tadqiqot natijalariga asoslanib 4 ta narrativ-hikoya yozildi. Ular quyida taqdim etiladi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

1) Tushkunlikka tushgan, lekin aybdor emas

Bu hikoya o‘zbek millatiga mansub bo‘lmagan Nina, Taisiya, Vladislav va Aynisa tomonidan o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish tajribalarini qamrab oladi. Ular 1980- 1990-yillarda Toshkent shahri va viloyatidagi rus tilli muhitda ulg‘ayib, o‘zbekcha bilmasdan, o‘z yo‘lini topishga muvaffaq bo‘lishgan. Ularning o‘zbek tiliga oid tajribalariga: 1) oila; 2) kengroq muhit; va 3) maktab va universitet kabi omillarning ta’siri yuqorida keltirilgan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Nina va Vladislavlarning ota-onalari o‘zbekcha so‘zlashmaydi, shuning uchun ular bu ko‘nikmani bolalarida rivojlantira olishmagan. Taisiyaning otasi va Aynisaning ota-onasi o‘zbekcha so‘zlashadi, lekin uyda bolalari bilan hech qachon o‘zbekcha gaplashishmagan. Aftidan, oila a’zolari tomonidan tildan foydalanishni talab qiladigan lingvistik ko‘mak va hayotiy vaziyatlarning yo‘qligi bolalarni shu tilda muloqot qilishga undamaydi (MacIntyre, Burns va Jessome, 2011).

To‘rtta qahramonimizning kengroq muhiti ham o‘zbek tilini o‘rganishga yordam bermadi. Ularning aytishicha, kengroq muhit o‘zbek tilini o‘rganayotgan boshqa millat vakillariga o‘zbek tilidan foydalanish kerakmi va kerak bo‘lsa, qanday foydalanish kerak degan savollarga aniq javob bermayapti, va shuning uchun ikkinchi til o‘rganishda o‘zining hal qiluvchi rolini bajarmayapti (Steffensen va Kramsch, 2017). Natijada, ularning tajribalari asosan muvaffaqiyatsiz, yoqimsiz va faqat vaqti-vaqti bilan qo‘llab-quvvatlanadi; bu ham til o‘rganish uchun motivatsiyani pasaytirish manbayi sifatida ko‘rsatilgan (Chulee va boshq., 2023). Ularning o‘zbekcha so‘zlashishga urinishlari ko‘pincha o‘zbekzabon odamlarning tabassumlariga, shubhalariga (Vladislav misolida) yoki qattiq javoblariga (Taisiya misolida) sababdir, va bu motivatsiyani pasaytiruvchi omillar bo‘lib xizmat qiladi. Bunday munosabat hech qanday yordam bermasligidan tashqari, ularning o‘zbekcha gapirishga urinishlarida ijobiy his qilishlariga olib kelmaydi. Bu esa ikkinchi tilni o‘rganishda motivatsiya uchun katta ahamiyatga ega (MacIntyre va Vincze, 2017).

Bu muammo ular o‘rgangan o‘zbek tili maktab va universitetda qanday o‘qitilganligi bilan tobora murakkablashadi. To‘rtalasi ham o‘zbek tilini o‘rganish bo‘yicha ijobiy emas, balki salbiy tajribaga ega ekanliklarini aytishdi. Motivatsiyasiz/motivatsiyasizlantiruvchi o‘qituvchilar, ularning zerikarli darslari, o‘z ishiga mas’uliyatsiz munosabati (darsga kechikishi yoki umuman kelmasligi), bema’ni topshiriqlar/uy vazifalari (masalan, “j harfi bilan boshlanadigan 20 ta so‘z yozish” – Taisiya), nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishdan ko‘ra grammatik mashqlarni bajarishga urg‘u beruvchi amaldagi o‘quv dasturi va baholashda g‘alati yondashuvlar (masalan, “Savolga birinchi bo‘lib javob bergan kishi [javobning sifati qanday bo‘lishidan qat’i nazar] jasorat uchun besh baho oladi” - Taisiya) shular jumlasidandir. Ushbu demotivatsion omillar Ushioda (1994), Dörnyei (2001), Meshkat va Hassani (2012) va Vakilifard va boshq. (2020) tomonidan boshqa tillarni o‘rganish misollarida aniqlangan omillarga juda o‘xshaydi.

Yuqorida sanab o‘tilgan qiyinchiliklarga qaramay, Nina, Vladislav, Taisiya va Aynisalarning o‘zbek tilini o‘rganishlarida yaxshi tomonlar ham bor edi. Aynisa o‘zbek tili fanidan butun maktab kursini bitta o‘qituvchi bilan o‘tganligini, va u odam «qat’iyatli va talabchan» bo‘lganini afzallik deb biladi. Tasiya o‘zbek tili fanidan Sovet davrida nashr eilgan maktab darsliklarini “til o‘rganishda yetarlicha yordam bergan” deb iliq eslaydi. Vladislav o‘zining o‘rta maktabdagi o‘zbek tili o‘qituvchisi haqida “ko‘p yillik azoblardan so‘ng o‘zbek tilini yaxshiroq tushunishimga va o‘zimni muvaffaqiyatli his qilishimga yordam bergan” deb aytdi. Nina esa o‘zbek tiliga qiziqishini uyg‘otgan, o‘zbek madaniyatini sevib, o‘z yutuqlari bilan faxrlanishiga sababchi bo‘lgan birinchi o‘zbek tili ustozi-

ga minnatdorlik bildirgan. Afsuski, bu tajriba ushbu hikoya qahramonlarining o‘zbek tili ko‘nikmalarini to‘liq rivojlantirishi uchun yetarli emas yoki qisqa edi. Boshqacha qilib aytganda, ikkinchi tilni kengroq ishlatish uchun “Rubikon daryosini kesib o‘tish”(MacIntyre, Burns va Jessome, 2011:84), ya’ni orqaga yo‘l yo‘q degan qarorga kelish sodir bo‘lmadi.

Nina, Vladislav, Taisiya va Aynisalarning tajribalarini umumlashtirsak, ulardan hech biri maktabda va universitetda o‘zbek tilini o‘qitishdan foyda ko‘rmadi, ularning o‘zbek tilini o‘rganish tajribalari rag‘batlantiruvchi emas, ko‘proq tushkunlikka soluvchi va ruhsizlantiruvchi edi. Ularning o‘zbek millatiga mansub emasligi, oilasi va kengroq muhiti ham o‘zbek tili ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam bermadi. Afsuski, ularning hech biri o‘zbek tilini mukammal bilmaydi, lekin bu faqat ularning xatosi emas. Ehtimol, qulayroq sharoitlarda ular o‘zlarini aybdor his qilib, Teimouri (2019: iv) ga ko‘ra, “ikkinchi til o‘rganuvchilarining istalmagan xatti-harakatlarini tuzatish uchun rag‘batlantiruvchi choralarini ko‘rgan bo‘lar edi”, ya’ni til o‘rgangan bo‘lar edi.

Ko‘p muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, faqat Vladislav va Taisiya o‘zbek tilini o‘rganishga harakat qilmoqdalar. Bundan farqli o‘laroq, Nina va Aynisa boshqa sabablar tufayli o‘zbek tilini yaxshilash istagini qaytarib bo‘lmaydigan darajada yo‘qotganga o‘xshaydi, shuning uchun ular o‘zbek tilidan ancha uzoqlashishdi. Shunday qilib, o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish jarayonida to‘rtta qahramonimning hissiyoti rasmiy va norasmiy o‘rganish muhitiga, millatga va o‘zbek tilini bilish darajasiga bog‘liqligi ko‘rsatildi. Ushbu his-tuyg‘ular ularning qat’iyatliligiga va motivatsiyasiga ham ta’sir qiladi.

2) G‘ururli, lekin qiyinchiliksiz

Bu hikoyada millati o‘zbek bo‘lgan Setora, Shoira, Hojimat, Dinislom, O‘lmasoy va Bahodirlarning o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish tajribalari bayon qilinadi. Ulardan faqat Bahodir o‘zbek tilini mukammal biladi. Boshqalar esa o‘zbekcha faqat yaxshi gapirishadi. Ularning ba’zilari dastlabki yillarini O‘zbekistonning turli joylarida va undan tashqarida o‘tkazgan bo‘lsa-da, barchasi 1990-2010-yillarda rus tilida ta’lim olishgan va hozirda O‘zbekistonning ruscha eng ko‘p so‘zlashiladigan hududi bo‘lib qolayotgan Toshkentda yashab, ishlamoqda. Ularning eng kuchli tili rus tilidir, va garchi u o‘zbek tilining sofligiga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ular oilaviy davradagi muloqot uchun asosan o‘zbek tilidan foydalanib kelishmoqda. Bundan tashqari, xalqaro kompaniyalarda ishlaydigan Setora va Shoiradan boshqalar uchun o‘zbek tilining kasbiy faoliyatidagi ahamiyati tobora kuchayib bormoqda. Ularning o‘zbek tiliga nisbatan hissiyotlari qanday shakllanganligi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun men ularning: 1) oila davrasidagi va 2) rasmiy ta’limdagi tajribalarini ko‘rib chiqaman.

Shunisi e’tiborga loyiqki, Shoira va Dinislomdan tashqari ularning barchasi “sof” o‘zbeklardir. Ularning ota-onalari har doim uyda o‘zbekcha gaplashishgan va ushbu tanlangan oila tili siyosati (Curdt-Christiansen va Huang, 2020) tufayli ular o‘zbekcha yaxshi tushunishadi va gapirishadi. Bundan tashqari, ajdodlar tiliga bo‘lgan munosabat aynan oila tomonidan shakllantirilayotganligi ma’lum (Schalley va Eisenchlas, 2020).

Shu bilan birga, Setora va Dinislomning o‘zbek tilini bilish darajasi ularga uyda faqat kundalik mavzularda gapirishga imkon berishini ta’kidladilar. Bundan tashqari Dinislom “ota-onalar va bolalar o‘rtasida qarama-qarshi jins bilan munosabatlar (ilgari Alimjanova tomonidan tasdiqlangan, 2001) kabi jiddiyroq so‘z boyligini talab qiladigan juda nozik mavzularda samimiy suhbatlashish o‘zbek an’anasida yo‘qroq”, deb aytdi. Bolalarning o‘z ona tilida bunday so‘z boyligi va bunday hayotiy tajribasi mavjud emas. Bunday vaziyatlarda o‘zbek mentaliteti ularni cheklab qo‘ygandek tuyuladi”, shuning uchun bu masalalar bo‘yicha bilimlar odatda ota-onalardan emas, balki norasmiy kanallardan (Buckley, Barrett va Asminkin, 2004), shu jumladan Internetdan (Gazeta.uz, 2020) olinadi. Biroq, o‘zbek tili kam resurs tili (Kuriyozov va boshq., 2019) ekanligini hisobga olsak, internetda o‘zbekcha ma’lumot unchalik ko‘p emas, shuning uchun ular rus tilidan foydalanishadi.

Qahramonlarimning o‘zbek tilini rasmiy o‘rganishlari haqida gapiradigan bo‘lsam, ularning hech biri maktab va universitetda qiyinchiliklarga duch kelmadi, chunki ular yaxshi bazaviy ko‘nikmalarga ega edilar. Ularning barchasi o‘zbek tili fanidan yaxshi baholar olgan bo‘lsa-da, o‘qitish uslubida bir qancha kamchiliklar borligini qayd etishdi. Masalan, Bahodirning aytishicha, agar u o‘zbek tilini o‘rganishda faqat maktabiga tayanib, o‘zi o‘zbek tilida ko‘p narsa o‘qimaganida hamda ko‘p narsalarni mustaqil ravishda o‘zbek tiliga tarjima qilmaganida, hech qachon o‘zbek tilini o‘rganmagan bo‘lardi. Xuddi Bahodir singari, O‘lmasoy va Dinislom ham o‘qishlari yetarlicha qiyin bo‘lmagan deb hisoblaydi (Falout va Maruyama, 2004), Shoira esa “darslarni faqat o‘zbek tilida olib borish tilni mashq qilish nuqtayi nazaridan juda foydali bo‘lardi” deb tan oldi. Shoira shuningdek, katta guruhlar (ilgari Noom-Ura, 2013 tomonidan tasdiqlangan) va yomon sinf boshqaruvi (ilgari Chang va Cho, 2003 tomonidan tasdiqlangan) kabi demotivatsiyalovchi omillarni eslatib o‘tdi.

Dinislom, shuningdek, “bir xil grammatik material yoki bir xil so‘zlarning imlosi turli o‘qituvchilari tomonidan turlicha o‘rgatilishi o‘zbek tilida aniq qoidalar yo‘q, va hamma narsani taxmin qilish yoki yodlab olish kerak” degan taassurot qoldirganini ta’kidladi.

Bundan tashqari, Hojimat va Setora o‘zbek tilini qiziqtirib o‘qitish kerakligini ta’kidladilar. Til o‘rganish uzluksizligini ta’minlash uchun unga qiziqish uyg‘otish juda muhim deb hisoblanadi (Fryer, 2019). O‘z navbatida Hojimatda shunday taasurot paydo bo‘ldiki, “sinfidagi o‘quvchilarning aksariyati o‘zbekzabon bo‘lganligi sababli, ularga tilni o‘rgatishning hojati yo‘q edi, shuning uchun o‘qituvchilar o‘z asosiy vazifasini bajarilgan deb bilishgan.”

Yuqorida sanab o‘tilgan qiyinchiliklarga qaramay, Shoira, Setora, Hojimat va Dinislomlarning o‘zbek tilini rasmiy o‘rganish tajribalarida ba’zi ijobiy jihatlar mavjud. Bu asosan ularning o‘zbek tili grammatikasini o‘rgana olganligi, o‘qituvchilarining vijdonli ishlaganligi va o‘quvchilarga nisbatan iliq munosabatda bo‘lganligi bilan bog‘liq. Shularning aksi motivatsiyani pasaytirayotganini hisobga olsak (Dörnyei, 2001), mazkur omillar ijobiy ta’sirga ega ekanliklarini payqash qiyin emas.

Setora, Shoira, O‘lmasoy, Hojimat, Dinislom va Bahodirlarning hikoyalariga yakun yasasam, ularning til rivojlanishiga rasmiy ta’lim tizimining hissasini turlicha talqin qilish mumkin. Ehtimol, ularning yaxshi bazaviy ko‘nikmalari, shuningdek, o‘zbek tili o‘qituvchilari bilan iliq munosabatlari, o‘zbek tilini o‘rganishda ko‘p muvaffaqiyatsizliklarni boshdan kechirgan oldingi hikoya qahramonlariga qaraganda o‘zbek tilini rasmiy o‘qitish tizimini kamroq tanqid qilishga imkon berdi. Bundan tashqari, Setora, Shoira, O‘lmasoy, Hojimat, Dinislom va Bahodirlarning oilaviy davralari avvalgi hikoya qahramonlaridan farqli o‘laroq, o‘zbek tilini bilish nuqtayi nazaridan ancha foydali bo‘lgan. Shunday qilib, ushbu hikoyaning barcha oltita qahramoni tomonidan o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishga aloqador hissiyot rasmiy va norasmiy o‘rganish tizimlariga, millatga va o‘zbek tilini umumiy bilish darajasiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Ushbu histuyg‘ular qahramonlarimning til o‘rganishda qat’iyatliligiga va motivatsiyasiga ta’sir qiladi.

3) Uyaltirilganlar

Bu hikoyada o‘zbek millatiga mansub, ammo o‘zbekcha erkin so‘zlashmaydigan Azamat, Bobomurod, Karima, Latofat, Lola, Parvina, Ruxshona, Salima, Sarvar, Sevda, Umayra va Valilarning o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish tajribalari bayon qilinadi. Ularning ba’zilari dastlabki yillarini O‘zbekistonning turli joylarida va undan tashqarida o‘tkazgan bo‘lsada, ularning barchasi 1990-2000-yillarda Toshkentning ruslashgan muhitida o‘sgan va o‘zbek tilini oz darajada o‘rgangan. Ularning rus tilli muhitda tarbiyalanganligi o‘zbek tiliga nisbatan dastlab bepisand munosabatda bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shunga qaramay, hozir ularning ko‘plari ota-bobolarining tili bilan faxrlanishadi. Ularning o‘zbek tilini o‘rganish tajribalari 1) oila; 2) kengroq muhit va 3) maktab va universitet kabi holatlarda xuddi shu tartibda ko‘rib chiqiladi.

Shunisi e’tiborga loyiqki, Bobomuroddan tashqari bu odamlarning barchasi “sof” o‘zbeklar emas. Bundan tashqari, ular o‘z oilalaridagi rus tilida ta’lim olgan ikkinchi va ba’zi hollarda uchinchi avlod vakillaridir. Ularning ota-onalari, ayniqsa, bobo-momolari o‘zbekcha so‘zlashadi, lekin ular farzandlari va nabiralariga o‘zbekcha yaxshi o‘rgatishmagan. Ko‘p hollarda o‘zbek tilini minimal kundalik darajada saqlab qolish yoki hatto Toshkent shevasiga xos ruscha so‘zlarni qo‘shib gapirish bolalarda rag‘batlantirilar edi, chunki faqat ruscha gaplashadigan o‘zbeklar ko‘pincha milliy o‘zligini va ma’qul xatti-harakatlarni shakllantiruvchi an’anaviy qadriyatlarini yo‘qotadilar (Jalilov, 2022). Sevdaning otasi uni rus maktabidan o‘zbek litseyiga o‘tkazmoqchi bo‘lganida, bu uni o‘zbek milliy an’analariga so‘zsiz amal qiladigan “yaxshi qiz”ga aylantiradi, deb o‘ylagan. Biroq rus tilida ta’lim olish istiqbollari (Jehan va Khan, 2022) nafaqat Sevdaning ota-onasi, balki hikoyamizdagi boshqa qahramonlarning ota-onalari uchun ham o‘zbekcha yaxshi bilish istagidan ustun chiqqanga o‘xshaydi. Lola va Ruxshona ham dastlab o‘zbek bog‘chasiga borib, so‘ngra o‘qishni rus tilida davom ettirganlari shundan dalolat beradi.

Shuni ta’kidlash joizki, barcha 12 tasining kengroq muloqot doirasi o‘zbek tili bilimini yaxshilashga katta hissa qo‘shgan. Biroq bu ularning hayotida keyinroq, ya’ni O‘zbekistonda o‘zbek tili kuchayganida (Khairi, 2016) yuz berdi. Azamatning ruscha yaxshi bilmaydigan yigitlar bilan harbiy xizmat o‘tash tajribasi, Valining O‘zbekiston bo‘ylab mehnat safarlarida bo‘lishni o‘z ichiga olgan oldingi ishi yoki Sarvarning litseydagi o‘zbekzabon tengdoshlari bilan, Latofatning universitetdagi kursdoshlari va o‘qituvchilari bilan, Bobomurodning hamkasblari va bemorlari bilan tez-tez muloqot qilishlari bo‘ladimi, barchasi ularni til o‘rganishga undagan, chunki bu real muloqot uchun imkoniyatlar yaratgan (MacIntyre, Burns va Jessome, 2011).

Aksincha, ushbu 12 kishining o‘zbek tili maktabda yoki universitetda o‘qitilishi tilni egallashga eng kam hissa qo‘shgan. Hammasi maktab va universitetda o‘zbek tilini o‘rganishdan ijobiy emas, balki salbiy tajribaga ega ekanliklarini aytishdi. O‘zbek tili o‘qituvchilarining motivatsiyasizligi/motivatsiyasizlantirishi, ularning zerikarli o‘qitish usullari, nojo‘ya xulqi (kechikish, ishga kelmaslik – Ruxshona), bema’ni topshiriqlar/uy vazifalari (masalan, “ ma’nosini tushunmasdan uzun she’rlarni yodlash” – Parvina) va amaldagi o‘quv dasturlarida nutqni rivojlantirishga emas balki grammatik mashqlar bajarilishiga urg‘u berilishi” (Umayra) shular jumlasidandir. Ushbu demotivatsion omillar Ushioda (1994), Dörnyei (2001),

, Meshkat va Hassani (2012) va Vakilifard va boshq. (2020) tomonidan boshqa tillarni o‘rganish misollarida aniqlangan omillarga juda o‘xshaydi.

Rasmiy ta’lim muassasalarida ko‘p hollarda o‘zbek millatiga mansublarni butun sinf oldida o‘zbekcha so‘zlashmaganliklari uchun sharmanda qilishgan, go‘yo bu ularni til o‘rganishga undashi mumkin edi. Odamlar o‘zbek millatiga mansubligi tufayli o‘ziga xos bosim sezgan, shuning uchun ularning o‘zbekcha bilmasligidan uyat hislari boshqa millat vakillari bo‘lgan Nina, Taisiya, Aynisa va Vladimirlarnikidan (1-hikoyaga qarang) farq qiladi. Biroq oqibati bir xil edi: bu o‘zbek tiliga uzoq vaqt e’tiborsiz bo‘lish va/yoki o‘zbek tilini o‘rganish mumkinligiga ishonchni yo‘qotishdir. Faqat Lola va Karima sharmandaliklarini yengib o‘tishdi va endi o‘zlarini aybdor his qilishlarini aytishdi, ammo bu ularning maktabda o‘zbek tilini o‘rganish paytida sodir bo‘lgani yo‘q. Hozir ularning o‘zbek tiliga bo‘lgan munosabati butunlay o‘zgargan. Ushbu natijalar Teimourining (2019:iv) tadqiqoti natijalariga o‘xshash, ya’ni “uyatga moyillik (aybdorlikka moyillik emas) til o‘rganishni sekinlashtiruvchi omil sifatida aniqlandi.”

Yuqorida aytib o‘tilgan qiyinchiliklarga qaramay, o‘n ikkita qahramonimning o‘zbek tilini rasmiy o‘rganish tajribalarida ijobiy tomonlar ham bor edi. Ular ko‘pincha yaxshi o‘qitish bilan bog‘liq bo‘lib, qahramonlarimga asosan o‘qish, yozish, tushunish va grammatika ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon berdi. Afsuski, bu tajribalar o‘zbek tili ko‘nikmalarini barqaror rivojlantirish uchun yetarli emas yoki qisqa edi. Boshqacha qilib aytganda, ikkinchi tilni kengroq ishlatish uchun “Rubikon daryosini kesib o‘tish”, ya’ni orqaga yo‘l yo‘q degan qarorga kelish sodir bo‘lmadi (MacIntyre, Burns va Jessome, 2011:84).

Azamat, Bobomurod, Karima, Latofat, Lola, Parvina, Ruxshona, Salima, Sarvar, Sevda, Umayra va Valilarning hikoyalaridan xulosa chiqarsam, ularning hech biri uzoq muddatda rasmiy o‘qitish tizimida o‘zbek tilini o‘rgana olmadi, uning ta’siri ijobiy emas, ko‘proq motivatsiyasizlantirayotgan edi. Shu jihatdan ularning tajribasi birinchi hikoyamizda tasvirlangan qahramonlarnikiga o‘xshaydi. Ularning oilasi va ayniqsa kengroq muloqot doirasi ko‘p hollarda o‘zbek tili ko‘nikmalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan foydali bo‘ldi, biroq ikkinchi hikoyamdagi qahramonlarnikiday emas. Natijada, ularning barchasi o‘zbekcha gapirishdan ko‘ra yaxshiroq tushunishadi. Lekin o‘zbek tilini bilmasliklari uchun uyaltirish ularning til o‘rganishiga va shu tilga bo‘lgan munosabatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Birinchi hikoyamizdagi odamlar singari, ular ham o‘zlarini aybdor his qilmaydilar, lekin ulardan farqli o‘laroq, bu 12 ta qahramonimizda o‘zlarining o‘zbek millatiga mansubligi tufayli uyat tuyg‘usi ancha kuchliroq bo‘ladi. Teimouri (2019) o‘z tadqiqotida ko‘rsatgani kabi, sharmandalik hissi odamning shaxsiyatiga tahdid qiladi, va uni himoya qilish uchun odam sharmandalikni keltirib chiqaruvchi omildan qochmoqchi bo‘ladi. Shunday qilib, sharmandalikni keltirib chiqaruvchi o‘zbek tilini o‘rganishdan voz kechiladi. Aybdorlik hissi esa teskari ta’sir qilishi ma’lum (Teimouri, 2019), bu Lola va Karima tajribalaridan aniq bo‘ldi. Shunday qilib, o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish natijasida 12 ta odamning kechinmalari rasmiy o‘rganish tizimlariga, millatga va o‘z-o‘zini yaxshi his qilishga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Ushbu kechinmalar ularning qat’iyatliligiga va motivatsiyasiga ham ta’sir qiladi.

4) Minnatdorlar

Bosch (Germaniya) avtomatika va elektr jihozlari bo‘yicha dual sourcing standartini joriy etgandan so‘ng (1998-yil) ishlab chiqarish barqarorligi indeksi 99,4% ga yetdi. Kompaniya hozir har bir kritik komponent uchun kamida ikkita mustaqil yetkazib beruvchini majburiy saqlaydi, ulardan biri doim Yevropa ichida bo‘lishi shart.

Vestel (Turkiya) - rivojlanayotgan mamlakat

elektrotexnika korxonasi sifatida O‘zbekiston uchun eng mos misol. Kompaniya 2010–2020-yillar davomida mahalliy komponentlar ulushini 19% dan 61% gacha oshirdi. Bu jarayonda hukumat qo‘llab-quvvatlashi (soliq imtiyozlari, kafolat fondi) hal qiluvchi rol o‘ynadi.

5-jadval.
Xalqaro Elektrotexnika Keyslarining Taqqoslama Ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Samsung (Koreya)	Bosch (Germaniya)	Vestel (Turkiya)
Mahalliy ulush (boshlang‘ich)	24%	38%	19%
Mahalliy ulush (yakuniy)	58%	67%	61%
Joriy etish davri	14 yil	9 yil	10 yil
Ta’minot uzilishi kamayishi	78%	84%	71%
Logistika xarajati kamayishi	34%	27%	41%
Yangi mahalliy yetkazib beruvchilar	~320 ta	~180 ta	~95 ta
Investitsiya qaytimi (ROI)	450%	395%	320%

IV. MUHOKAMA

4.1. Natijalarni Ilmiy Adabiyot Bilan Taqqoslash

Tadqiqot natijalari bir qancha muhim ilmiy xulosalarni tasdiqlaydi va yangi nuanslarni qo‘shadi. Chopra va Sodhi (2004) tomonidan ta’kidlangan “ta’minot uzilishining asimmetrik xarajat taqsimoti” tamoyili — ya’ni kichik ehtimollik, lekin juda katta moliyaviy oqibat — elektrotexnika sanoatida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Bizning simulatsiya natijalari ham shu xulosani tasdiqlaydi: yillik 21,3% uzilish ehtimoli bilan o‘rtacha 1,64 million dollar yo‘qotish — bu “past ehtimollik, yuqori ta’sir” profiliga mos keladi.

Sheffi (2005) taklif etgan “barqarorlik vs. samaradorlik” muvozanati masalasi elektrotexnika sanoatida yangicha ko‘rinishga ega. Yarim o‘tkazgichlar va maxsus elektron komponentlar bozori juda kontsentrlashgan (TSMC, Samsung, SK Hynix dunyodagi 85% ni ishlab chiqaradi), shu sababli geografik diversifikatsiya qiyin. Bu vaziyatda gibrid model — bir mahalliy, bir xalqaro manba — va mahalliy ta’minotni rivojlantirish eng real va samarali yechim sifatida namoyon bo‘ladi.

Ivanov va Dolgui (2020) ning “ta’minot zanjiri hayotiyligini” (supply chain viability) ta’kidlashi elektrotexnika kontekstida ham muhim. Elektrotexnika sanoatida “hayotiylik” nafaqat joriy uzilishlarga bardosh berishni, balki texnologik o‘zgarishlarga ham moslashishni anglatadi. Mahalliy yetkazib beruvchilar rivojlanishi bu ikki tomonlama talabni birga qondirishi mumkin: ham joriy barqarorlik, ham texnologik adaptatsiya.

4.2. O‘zbekiston Elektrotexnika Sanoatiga Xos Muammolar va Imkoniyatlar

Tadqiqot O‘zbekiston kontekstida elektrotexnika sanoatiga xos bir qancha o‘ziga xos muammolarni aniqladi. Texnologik bo‘shliq - eng jiddiy muammo. Mahalliy bozorda mikrokontrollerlar, quvvat yarimo‘tkazgichlari va sensorlar ishlab chiqarishga qodir korxonalar yo‘q. Bu komponentlar uchun to‘liq lokalizatsiya yaqin muddatda real emas. Biroq bu “yoki hammasi, yoki hech narsa” degan xulosa emas: nisbatan oddiy komponentlar (chulg‘am simlari, transformator korpuslari, plastik qismlar, kabellar, metall konstruktsiyalar) uchun lokalizatsiya allaqachon amalga oshirilmoqda va kengaytirish uchun katta imkoniyat mavjud.

Bozor hajmining cheklanganligi muammosi yirik elektrotexnika bozorlariga nisbatan qimmatroq mahalliy ishlab chiqarishga olib kelishi mumkin. Biroq O‘zbekiston hukumatining elektrotexnika eksportini rag‘batlantirish siyosati mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun bozor kengayishini ta’minlaydi - bu esa ko‘lam iqtisodiyotidan foydalanish imkonini yaratadi.

Ijobiy omillar qatorida quyidagilarni ta’kidlash lozim: erkin iqtisodiy zonalar va texnoparklar (Navoiy FIZ, Toshkent texnoparki) mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun qulay sharoit yaratmoqda; xalqaro investorlarning qiziqishi oshmoqda; O‘zbekistonda mis, alyuminiy va boshqa xom ashyolar zaxiralari mavjud bo‘lib, ular elektrotexnika komponentlari ishlab chiqarish uchun asos bo‘lishi mumkin; hamda davlat sanoat siyosatida elektrotexnika sanoatiga ustuvorlik berilmoqda.

4.3. Gibrid Modelning Elektrotexnika Uchun Optimalligasi

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, elektrotexnika sanoati uchun eng optimal yechim — gibrid dual sourcing modeli: har bir muhim komponent uchun bitta mahalliy va bitta xalqaro manba. Bu model quyidagi sabablar bilan optimal hisoblanadi. Birinchidan, mahalliy manba yetkazib berish muddatini keskin qisqartiradi va valyuta xavfini yo‘qotadi — elektrotexnika uchun bu ayniqsa muhim, chunki komponent narxlari valyuta tebranishiga juda sezgir. Ikkinchidan, xalqaro manba texnologik yangiliklar va global standartlarga muvofiqligi uchun zarur — elektrotexnika sanoatida texnologik eskirish juda tez sodir bo‘ladi. Uchinchidan, ikkala manba o‘rtasidagi raqobat narx va sifat optimallashtiruvchi doimiy rag‘bat bo‘lib xizmat qiladi.

Simulatsiya natijalari gibrid modelning ROI ko‘rsatkichi — 480% — boshqa modellardan yuqori ekanligini tasdiqladi. Bu model ta’minot uzilishi ehtimolini ham 1,9% gacha kamaytirdi, bu esa amaliy

samaradorlik nuqtayi nazaridan ham maqbuldir.

4.4. Amaliy Tavsiyalar: Elektrotexnika Korxonalari Uchun Yo'l Xaritasi

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston elektrotexnika korxonalari uchun to'rt bosqichli yo'l xaritasi taklif etiladi. Birinchi bosqich (0–6 oy) — Xavf auditi va ustuvorlashtirish: barcha komponentlarni xavf matritsasi asosida baholash; eng kritik komponentlarni aniqlash; mahalliy bozorda potensial yetkazib beruvchilarni ro'yxatlash; moliyaviy ta'sir tahlili va investitsiya asoslanmasini tayyorlash. Ikkinchi bosqich (6–18 oy) — Pilot strategiyalar: tanlangan 3–5 komponent bo'yicha mahalliy yetkazib beruvchi bilan pilot shartnoma tuzish; xalqaro kritik komponentlar uchun zahira manba (backup supplier) bilan munosabat o'rnatish; sifat monitoringi va kuzatuv tizimini joriy etish. Uchinchi bosqich (18–36 oy) — Kengaytirish va optimallashtirish: muvaffaqiyatli pilotlarni kengaytirish; gibrid modelni barcha kritik komponentlarga tarqatish; mahalliy yetkazib beruvchilarni sertifikatsiyalash va uzoq muddatli shartnomalar tuzish. To'rtinchi bosqich (36+ oy) — To'liq integratsiya va raqamlashtirish: ERP va SCM tizimlari orqali ta'minot zanjirini real vaqtda monitoring qilish; AI asosidagi talab prognozlash va xavf signallash tizimini joriy etish; yangi komponent kategoriyalari bo'yicha lokalizatsiyani davom ettirish.

6-jadval.
Elektrotexnika Korxonalari Uchun Gibrid Strategiya Yo'l Xaritasi

Bosqich	Muddat	Elektrotexnikaga xos faoliyat	Muvaffaqiyat indikatori
1. Xavf auditi	0–6 oy	Komponentlar xavf matritsasi, kritik MCU/IGBT/ferrit ro'yxati, mahalliy bozor tahlili	80%+ komponentlar baholangan; xavf xaritasi tayyorlangan
2. Pilot	6–18 oy	Mis chulg'am, kabel, korpus bo'yicha mahalliy pilot; xalqaro MCU uchun zahira manba	3+ pilot muvaffaqiyatli; sifat darajasi > 99%
3. Kengaytirish	18–36 oy	Gibrid model barcha kritik komponentlarga; mahalliy ulushni 35–45% gacha oshirish	Import qaramligi < 60%; uzilish hodisasi < 2/yil
4. Raqamlashtirish	36+ oy	SCM platformasi, AI prognozlash, real vaqt monitoring, blockchain shaffoflik	Uzilish ehtimoli < 2%; ROI > 400%

4.5. Davlat Siyosati Tavsiyalari

Elektrotexnika sanoatida lokalizatsiya va dual sourcingni tizimli joriy etish uchun davlat tomonidan quyidagi choralarna ehtiyoj mavjud. Birinchidan, Elektrotexnika Komponetlari Lokalizatsiya Dasturini yaratish zarur — bu dastur mahalliy yetkazib beruvchilarni rivojlantirish uchun maqsadli moliyalashtirish, texnik yordam va bozorga kirish imkoniyatlarini ta'minlashi kerak. Ikkinchidan, elektrotexnika sanoatidagi xalqaro hamkorlar bilan texnologiya uzatish shartnomalari bo'yicha alohida mexanizm kerak. Uchinchidan, elektrotexnika sohasidagi kasb-hunar ta'limini modernizatsiya qilish — mikrokontroller dasturlash, quvvat elektronikasi, sifat nazorati bo'yicha ixtisoslashgan o'quv dasturlari yaratish zarur. To'rtinchidan, elektrotexnika klasterlarini sanoat parklari doirasida shakllantirish ko'lam iqtisodiyotidan foydalanish imkonini beradi.

4.6. Tadqiqot Cheklovlari va Kelajakdagi Yo'nalishlar

Ushbu tadqiqotning asosiy cheklovi — O'zbekistondagi 14 ta korxona namunasining nisbatan kichikligi. Bundan tashqari, Monte Carlo simulatsiyasida ishlatiladigan ehtimollik taqsimotlari tarixiy ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, kelajakdagi yangi texnologiyaviy o'zgarishlarni to'liq aks ettira olmaydi. Uchinchi cheklov — lokalizatsiya dasturlarining uzoq muddatli ta'sirini (10+ yil) baholash uchun longitudinal ma'lumotlar yetarli emas. Kelajakdagi tadqiqotlarda namunani kengaytirish, tarmoqlar kesimidagi taqqoslama tahlil, raqamli texnologiyalar (IoT, blockchain) ta'sirini o'rganish va O'zbekiston elektrotexnika eksport salohiyatini baholash maqsadga muvofiq bo'ladi.

V. XULOSA

Ushbu tadqiqot IMRAD metodologiyasi asosida O'zbekiston elektrotexnika sanoatida lokalizatsiya va dual sourcing strategiyalarining ta'minot zanjiri barqarorligiga ta'sirini ilmiy jihatdan isbotladi. Quyidagi to'rtta asosiy xulosa tadqiqotning asosiy hissasini tashkil etadi.

Birinchi xulosa: Hozirgi kunda O'zbekiston elektrotexnika korxonalarining o'rtacha import qaramligi 67,4% bo'lib, bu kritik darajada yuqori. Korxonalarning 86% i so'nggi 3 yilda jiddiy ta'minot uzilishini boshdan kechirgan; biroq faqat 21% i ikki manbali ta'minot strategiyasiga ega. Bu keng ko'lamli strategik bo'shliqni ko'rsatadi.

Ikkinchi xulosa: Monte Carlo simulatsiyasi (15,000 iteratsiya) gibrid modelning — mahalliy va xalqaro dual sourcing — elektrotexnika korxonalari uchun optimal ekanligini isbotladi. Bu model ta'minot uzilishi ehtimolini 21,3% dan 1,9% gacha kamaytiradi va ROI 480% ni tashkil etadi.

Uchinchi xulosa: Xalqaro keyslar tahlili (Samsung, Bosch, Vestel) shuni ko'rsatdiki, lokalizatsiya ulushini 58–67% gacha yetkazgan elektrotexnika korxonalari ta'minot uzilishini 71–84% ga kamaytirgan. Investitsiya qaytimi 320–450% oralig'ida bo'lgan. Vestel (Turkiya) tajribasi rivojlanayotgan mamlakat elektrotexnika sanoati uchun eng dolzarb misol sifatida belgilandi.

To'rtinchi xulosa: O'zbekiston elektrotexnika sanoatida muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun to'rt bosqichli yo'l xaritasi taklif etiladi. Davlat tomonidan Elektrotexnika Komponentlari Lokalizatsiya Dasturini yaratish, xalqaro texnologiya uzatish mexanizmlarini shakllantirish va kasb-hunar ta'limini modernizatsiya qilish strategiyalarning muvaffaqiyati uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Umuman olganda, lokalizatsiya va dual sourcing strategiyalarini birgalikda qo'llash O'zbekiston elektrotexnika sanoatining import qaramligini sezilarli darajada kamaytirish, barqaror va raqobatbardosh ishlab chiqarishni shakllantirish, hamda milliy texnologik salohiyatni mustahkamlash uchun ilmiy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan yo'l ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Boysen, N., Emde, S., Hoeck, M., & Kauderer, M. (2015). Part logistics in the automotive industry: Decision problems, literature review and research agenda. European Journal of Operational Research, 242(1), 107–120.

2. Chopra, S., & Sodhi, M. S. (2004). Managing risk to avoid supply-chain breakdown. MIT Sloan Management Review, 46(1), 53–61.

3. Christopher, M., & Peck, H. (2004). Building the Resilient Supply Chain. International Journal of Logistics Management, 15(2), 1–13.

4. Craighead, C. W., Blackhurst, J., Rungtusanatham, M. J., & Handfield, R. B. (2007). The Severity of Supply Chain Disruptions: Design Characteristics and Mitigation Capabilities. Decision Sciences, 38(1), 131–156.

5. Deloitte. (2022). Resilience in electronics manufacturing: Strategies for a post-pandemic world. Deloitte Insights.

6. Gartner Research. (2022). Supply Chain Top 25: Electronics Sector Analysis. Stamford: Gartner Inc.

7. IPC — Association Connecting Electronics Industries. (2022). Electronics Manufacturing Supply Chain Report 2022. Bannockburn: IPC.

8. Ivanov, D., & Dolgui, A. (2020). Viability of intertwined supply networks: Extending the supply chain resilience angles towards survivability. International Journal of Production Research, 58(10), 2904–2915.

9. Kleindorfer, P. R., & Saad, G. H. (2005). Managing disruption risks in supply chains. Production and Operations Management, 14(1), 53–68.

10. Lee, H. L. (2004). The triple-A supply chain. Harvard Business Review, 82(10), 102–112.

11. Markowitz, H. (1952). Portfolio Selection. The Journal of Finance, 7(1), 77–91.

12. McKinsey Global Institute. (2021). The semiconductor decade: A trillion-dollar industry. McKinsey & Company.

13. McKinsey Global Institute. (2020). Risk, resilience, and rebalancing in global value chains. McKinsey & Company.

14. Norrman, A., & Jansson, U. (2004). Ericsson's proactive supply chain risk management approach after a serious sub-supplier accident. International Journal of Physical Distribution & Logistics Management, 34(5), 434–456.

15. OECD. (2021). Supply chains in the post-COVID-19 world: Resilience, sustainability and trust. Paris: OECD Publishing.

16. Semiconductor Industry Association (SIA). (2022). Annual State of the U.S. Semiconductor Industry Report. Washington, D.C.: SIA.

17. Sheffi, Y. (2005). The Resilient Enterprise: Overcoming Vulnerability for Competitive Advantage. Cambridge, MA: MIT Press.

18. Sheffi, Y., & Rice, J. B. (2005). A supply chain view of the resilient enterprise. MIT Sloan Management Review, 47(1), 41–48.

19. SMTA — Surface Mount Technology Association. (2022). Global Electronics Supply Chain Survey. Edina: SMTA.

20. Sodhi, M. S., & Tang, C. S. (2012). Managing Supply Chain Risk. New York: Springer.

21. Tang, C. S. (2006). Robust strategies for mitigating supply chain disruptions. International Journal of Logistics Research and Applications, 9(1), 33–45.

22. Wagner, S. M., & Bode, C. (2008). An empirical examination of supply chain performance along several dimensions of risk. Journal of Business Logistics, 29(1), 307–325.

23. World Economic Forum. (2023). Building a More Resilient Global Supply Chain. Geneva: WEF Publications.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasini 2022–2026-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".

25. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy rivojlanish vazirligi. (2023). Elektrotexnika sanoatini rivojlantirish yo'nalishidagi davlat dasturi. Toshkent.

26. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2023). Sanoat statistikasi: Elektrotexnika va elektron sanoat ko'rsatkichlari. Toshkent.

27. UNCTAD. (2021). World Investment Report 2021: Investing in Sustainable Recovery. Geneva: United Nations.

28. World Bank. (2023). Uzbekistan Economic Update: Industrial Policy and Value Chains. Washington, D.C.: World Bank Group.

XIZMATCHILARNI TIBBIY KO‘RIKDAN O‘TKAZISH JARAYONLARINI RAQAMLI BOSHQARISHNING KONSEPTUAL MODELI VA ALGORITMIK TA’MINOTINI ISHLAB CHIQISH




Nurullayeva Mexriniso Ruzimuxamadovna

Buxoro davlat texnika universiteti Axborot kommunikatsiya texnologiyalari kafedrsi 3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada xizmatchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish jarayonlarini raqamli boshqarishning konseptual modeli va algoritmik ta‘minoti ishlab chiqilgan. Tadqiqot doirasida O‘zbekistondagi tibbiy ko‘rik tizimining hozirgi holati tahlil qilinib, jarayondagi asosiy muammolar — axborot uzilishlari, vaqtning nosamarali sarflanishi, ma‘lumotlar integratsiyasining pastligi aniqlangan. Ishlab chiqilgan konseptual model besh funksional blokdan iborat bo‘lib, end-to-end raqamlashtirish tamoyiliga asoslangan. Algoritmik ta‘minot BPMN 2.0 notatsiyasida formallashtirilgan. Iqtisodiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, tizimni joriy etish natijasida operatsion xarajatlar 37,2% ga kamayadi, ROI davri 2,4 yilni tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: raqamli boshqaruv, tibbiy ko‘rik, konseptual model, algoritmik ta‘minot, axborot tizimi, iqtisodiy samaradorlik, BPMN, raqamlashtirish.



KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5992-son «Tibbiyot xodimlarini moddiy rag‘batlantirish va tibbiyot tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni hamda 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish masalalari dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Mamlakatda xizmatchilarning tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi jarayoni bugungi kunda asosan qog‘ozli hujjat aylanishi va qo‘lda kiritilgan ma‘lumotlar asosida amalga oshirilmoqda. Bu esa jarayonni sekinlashtirish, ma‘lumotlarning yo‘qolishi, statistik tahlilning murakkablashishi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining (JSST) 2022-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, sog‘liqni saqlash tizimlarini raqamlashtirgan mamlakatlar operatsion xarajatlarni o‘rtacha 30-45% ga kamaytirgan, tibbiy xatolarni 28% ga qisqartirgan va bemorlarning qoniqish darajasini 35% ga oshirgan. McKinsey & Company (2023) tahlili shuni ko‘rsatadiki, sog‘liqni saqlash sohasidagi raqamli transformatsiya global darajada yiliga $350 mlrd gacha iqtisodiy samara berish salohiyatiga ega.

Tibbiy ko‘rik jarayonlarini raqamlashtirish masalasi xorijiy olimlardan H.Komulainen, P.Virtanen (Finlandiya), A.Georgiou, J.Westbrook (Avstraliya), D.Bates, A.Gawande (AQSH) kabi tadqiqotchilar tomonidan turli jihatlardan o‘rganilgan. Mamlakatimizdagi olimlardan X.Begimqulov, N.Muslimov, Sh.Gulomov, M.Aripov kabi olimlarning ishlari axborot tizimlari va raqamli boshqaruv masalalarini yoritishga bag‘ishlangan. Biroq, O‘zbekiston sharoitida xizmatchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish jarayonlarining raqamli boshqaruv konseptual modeli va uning algoritmik ta‘minoti yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

D.Bates va A.Gawande (2003) tomonidan ishlab chiqilgan Electronic Health Records (EHR) konsepsiyasi tibbiy ma‘lumotlarni raqamlashtirish borasidagi fundamental asos hisoblanadi. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, EHR tizimlarini joriy etish tibbiy xatolarni 55% gacha kamaytirish imkonini beradi [1]. H.Komulainen va P.Virtanen (2018) Finlandiya tibbiy ko‘rik tizimini o‘rganib, occupational health management tizimlarida avtomatlashtirilgan scheduling va notification mexanizmlarining samaradorligini isbotlaganlar — ularning modeli 42% vaqt tejashni ta‘minlagan [2].

A.Georgiou va J.Westbrook (2019) Avstraliyada BPMN (Business Process Model and Notation) metodologiyasining tibbiyotda qo‘llanilishini asoslab berganlar [3]. Rossiya olimlaridan V.Stolyar (2020) MIS arxitekturasida tibbiy ko‘rik modulini alohida komponent sifatida ajratgan [4], A.Lazarev (2021) esa prediktiv analitikani tibbiy ko‘rik jadvalini optimallashtirishga tatbiq etgan [5]. O‘zbekistonlik olimlardan X.Begimqulov (2019) axborot texnologiyalarini sog‘liqni saqlash tizimiga joriy etishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan [6], Sh.Gulomov va M.Aripov (2021) raqamli iqtisodiyotda boshqaruv transformatsiyasini tahlil qilganlar [7]. Biroq, tibbiy ko‘rik jarayonining maxsus raqamli boshqaruv modeli va algoritmik ta‘minoti bugungi kungacha ishlab chiqilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanilgan: (1) tizimli-tuzilmaviy yondashuv — konseptual modelni ishlab chiqishda; (2) BPMN 2.0 notatsiyasi — jarayonlarni modellashtirish va algoritmlarni formallashtirishda; (3) kontent-tahlil — 87 ta ilmiy manba va 12 ta normativ-huquqiy hujjatni o‘rganishda; (4) ekspert baholash metodi — 24 nafar mutaxassis (8 nafar tibbiyot boshqaruvi, 8 nafar IT-mutaxassis, 8 nafar iqtisodchi) ishtirokida; (5) iqtisodiy tahlil usullari — NPV, ROI, TCO hisob-kitoblari; (6) tajriba-sinov — Buxoro viloyati 3 ta tibbiyot muassasasida (2024-2025 yillar).

Tadqiqot ob‘yekti sifatida Buxoro viloyatidagi 3 ta yirik tibbiyot muassasasi tanlangan: Buxoro viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi (BVKTM), Buxoro shahar oilaviy poliklinikasi №1 (BShOP-1) va Buxoro viloyat kasb kasalliklari markazi (BVKKM). Ushbu muassasalarda jami 4 726 nafar xizmatchi yillik tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan (2023-yil ma‘lumotlari).

TIBBIY KO‘RIK JARAYONINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

Buxoro viloyatidagi tibbiy muassasalarda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, xizmatchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish jarayonining hozirgi holati quyidagi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi (1-jadval):

1-jadval.

Tibbiy ko‘rik jarayonining hozirgi holat ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkich	BVKTM	BShOP-1	BVKKM	O‘rtacha
1	Bir xizmatchi uchun sarflangan vaqt (soat)	4,8	5,2	3,9	**4,6**
2	Qog‘ozli hujjatlar soni (dona)	14	16	11	**13,7**
3	Ma‘lumot kiritish xatolari (%)	8,3	9,7	6,1	**8,0**

4	Takroriy tekshiruvlar ulushi (%)	12,4	15,1	9,8	**12,4**
5	Natijalar integratsiyasi darajasi (%)	18	12	22	**17,3**
6	Bir ko‘rik uchun xarajat (ming so‘m)	285	312	248	**281,7**
7	Xizmatchilar qoniqish darajasi (%)	42	38	47	**42,3**

Manba: muallif tomonidan Buxoro viloyati tibbiyot muassasalari ma‘lumotlari asosida tuzilgan

1-jadval ma‘lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi tizimda bir xizmatchi uchun o‘rtacha 4,6 soat vaqt sarflanmoqda, 13,7 dona qog‘ozli hujjat to‘ldirilmoqda, ma‘lumot kiritish xatolari 8% ni tashkil etmoqda. Natijalar integratsiyasi darajasi atigi 17,3% bo‘lib, turli mutaxassislar xulosalari yagona raqamli platformada birlashtirilmaganligini anglatadi. Xizmatchilarning qoniqish darajasi 42,3% bilan past darajada qolmoqda.

Ekspert baholash natijalariga ko‘ra (Kendall konkordatsiya koeffitsienti W=0,78, p<0,01), asosiy muammolar quyidagi tartibda ranglangan: (1) axborot uzilishlari va ma‘lumotlar fragmentatsiyasi — ekspertlarning 91,7% si; (2) vaqtning nosamarali taqsimlanishi — 87,5%; (3) tizimlararo integratsiyaning yo‘qligi — 83,3%; (4) analitik funksiyalarning rivojlanmaganligi — 79,2%; (5) moliyaviy resurslarning nooptimal sarflanishi — 75,0%.

KONSEPTUAL MODELNI ISHLAB CHIQISH

Aniqlangan muammolar va jahon tajribasini hisobga olib, xizmatchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish jarayonlarini raqamli boshqarishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Model beshta funksional blokdan iborat bo‘lib, end-to-end raqamlashtirish tamoyiliga asoslangan (2-jadval):

2-jadval.
Konseptual modelning funksional bloklari tarkibi

№	Funksional blok	Asosiy komponentlar	Kutilayotgan natija
1	Ro‘yxatga olish va identifikatsiya	Yagona raqamli reestr, biometrik identifikatsiya, QR-kod, avtomatik jadval	Rejalashtirishni 85% avtomatlashtirish
2	Tibbiy tekshiruv boshqaruvi	Elektron tibbiy karta (EHR), online navbat, real-time monitoring	Ko‘rik vaqtini 52% qisqartirish
3	Ma‘lumotlar integratsiyasi va tahlil	Lab natijalar integratsiyasi, AI-anomaliya deteksiyasi, dashboardlar	Xatolarni 73% kamaytirish
4	Qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash	DSS, risk-skoring, sog‘liq xaritasi, prediktiv analitika	Samaradorlikni 41% oshirish
5	Monitoring va hisobotlar	Avtomatik hisobotlar, KPI dashboard, SMS/email xabarlar, arxiv	Hisobot vaqtini 89% qisqartirish

Manba: muallif ishlanmasi

Modelning 1-bloki «Ro‘yxatga olish va identifikatsiya» xizmatchilarning yagona raqamli reestri asosida ishlaydi. Har bir xizmatchi JSHSHIR orqali identifikatsiyalanadi va uning tibbiy ko‘rik tarixi markazlashgan ma‘lumotlar bazasida saqlanadi. Tizim avtomatik ravishda ko‘rik jadvalini shakllantiradi, SMS va email orqali eslatma yuboradi, QR-kod asosida tezkor ro‘yxatga olishni amalga oshiradi.

2-blok «Tibbiy tekshiruv boshqaruvi» elektron tibbiy karta (EHR) asosida funksiyalanadi. Online navbat tizimi xizmatchilarning kutish vaqtini minimallashtiadi, mutaxassislar o‘rtasida natijalar real-time rejimida uzatiladi. 3-blok «Ma‘lumotlar integratsiyasi va tahlil» laboratoriya natijalari, funksional diagnostika ma‘lumotlari va mutaxassislar xulosalarini yagona platformada birlashtiradi. AI-asoslangan modul anomaliyalarni avtomatik aniqlaydi va mas‘ul shifokorni xabardor qiladi.

4-blok «Qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash» DSS (Decision Support System) texnologiyasiga asoslangan. Risk-scoring algoritmi har bir xizmatchi uchun sog‘liq risk balini hisoblaydi va prediktiv analitika yordamida kasallanish ehtimolini prognozlaydi. 5-blok «Monitoring va hisobotlar» tizimning barcha jarayonlarini KPI dashboard orqali vizuallashtiradi va avtomatik hisobotlar generatsiya qiladi.

ALGORITMIK TA’MINOT


1-bosqich. Ro‘yxatga olish algoritmi. Xizmatchi ma‘lumotlari JSHSHIR orqali tekshiriladi → mavjud bo‘lsa, tibbiy tarix yuklanadi → yangi bo‘lsa, profil yaratiladi → tibbiy ko‘rik turi aniqlanadi (dastlabki, davriy, navbatdan tashqari) → avtomatik jadval shakllantiriladi → bildirishnoma yuboriladi. Algoritmning murakkabligi O(n log n).

2-bosqich. Tibbiy tekshiruv marshrutlash algoritmi. Xizmatchi kasb turi va risk guruhi asosida tekshiruv marshruti aniqlanadi → zarur mutaxassislar ro‘yxati shakllantiriladi → online navbat optimallashtiriladi (greedy algorithm asosida) → har bir bosqichda natijalar EHR ga kiritiladi → keyingi mutaxassisga avtomatik yo‘naltirma beriladi. Vaqt murakkabligi O(m×k).

3-bosqich. Risk-scoring algoritmi. Har bir xizmatchi uchun risk bali quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$RS = \Sigma(wi \times Pi) + \alpha \times Age_factor + \beta \times Occ_factor + \gamma \times History_factor$$

Bu yerda: RS — risk score (0-100); wi — i-chi parametrning vazn koeffitsienti; Pi — i-chi parametrning qiymati; Age_factor — yosh omili; Occ_factor — kasb xavflilik darajasi; History_factor — tibbiy tarix omili; α, β, γ — regressiya koeffitsientlari. Ekspert guruhi tomonidan aniqlangan vazn koeffitsientlari: arterial bosim — 0,18; qon tarkibi — 0,16; yurak-qon tomir ti-



zimi — 0,15; nafas olish — 0,12; asab tizimi — 0,10; ko‘rish — 0,08; eshitish — 0,08; oshqozon-ichak — 0,08; muskuloskeletar tizim — 0,05.

4-bosqich. Anomaliya deteksiya algoritmi. Laboratoriya natijalarining norma diapazonidan chetlanishi statistik usulda aniqlanadi: z-score = (x − μ) / σ, bu yerda |z| > 2,5 bo‘lsa, anomaliya signali generatsiya qilinadi. Machine learning moduli (Random Forest, F1-score = 0,87) yashirin korrelyatsiyalarni aniqlash uchun qo‘llaniladi.

5-bosqich. Hisobot generatsiya algoritmi. Barcha ma‘lumotlar asosida individual sog‘liq pasporti, guruhli statistik hisobotlar va boshqaruv KPI dashboardlari avtomatik shakllantiriladi. Template-based report generation usuli qo‘llaniladi. Hisobot formatlari: PDF, Excel, API orqali tashqi tizimlarga uzatish.

IQTISODIY SAMARADORLIK TAHLILI

Raqamli boshqaruv tizimining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun Total Cost of Ownership (TCO) va Return on Investment (ROI) usullari qo‘llanildi (3-jadval):

3-jadval.

Raqamli tizimni joriy etishning moliyaviy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Qiymat (ming so‘m)	Ulush (%)
Boshlang‘ich investitsiya (TCO)		
Dasturiy ta‘minot ishlab chiqish	185 000	47,4
Server va infratuzilma	78 000	20,0
Xodimlarni o‘qitish	42 000	10,8
Integratsiya va sozlash	56 000	14,4
Litsenziyalar va texnik qo‘llab-quvvatlash	29 000	7,4
Jami TCO (1-yil)	**390 000**	100,0
Yillik tejamkorlik		
Operatsion xarajatlar kamayishi	148 500	37,2
Xodimlar vaqtini tejash	67 200	—
Qog‘oz va bosma xarajatlari kamayishi	18 400	—
Takroriy tekshiruvlar kamayishi	34 800	—
Jami yillik tejamkorlik	**268 900**	—
ROI davri	**2,4 yil**	—
NPV (5 yil, r=15%)	**412 600**	—
IRR	**38,7%**	—

Manba: muallif hisob-kitoblari

3-jadval ma‘lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli tizimga boshlang‘ich investitsiya 390 mln

so‘mni tashkil etadi. Dasturiy ta‘minot ishlab chiqish (47,4%) va server infratuzilmasi (20,0%) asosiy xarajat moddalarini tashkil etadi. Yillik tejamkorlik 268,9 mln so‘m bo‘lib, asosan operatsion xarajatlarning 37,2% ga kamayishi hisobiga erishiladi. ROI davri 2,4 yil, NPV (5 yillik, diskont stavkasi 15%) 412,6 mln so‘m, IRR 38,7% — bu investitsiya samaradorligining yuqori darajasini ko‘rsatadi.

4-jadval.
An’anaviy va raqamli tizimlarning qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich	An’anaviy tizim	Raqamli tizim	O‘zgarish (%)
Bir ko‘rik uchun vaqt (soat)	4,6	1,8	**−60,9**
Qog‘ozli hujjatlar soni	13,7	0	**−100,0**
Ma‘lumot xatolari (%)	8,0	2,1	**−73,8**
Takroriy tekshiruvlar (%)	12,4	3,2	**−74,2**
Natijalar integratsiyasi (%)	17,3	94,6	**+447,0**
Bir ko‘rik xarajati (ming so‘m)	281,7	176,8	**−37,2**
Xizmatchilar qoniqishi (%)	42,3	81,7	**+93,1**
Hisobot tayyorlash vaqti (soat)	8,5	0,5	**−94,1**

Manba: muallif tomonidan tajriba-sinov natijalari asosida tuzilgan

4-jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli tizim natijasida bir ko‘rik vaqti 4,6 soatdan 1,8 soatga kamaygan (−60,9%), qog‘ozli hujjat aylanishi to‘liq bartaraf etilgan, ma‘lumot xatolari 73,8% ga qisqargan. Natijalar integratsiyasi 17,3% dan 94,6% ga oshgan, xizmatchilarning qoniqish darajasi 42,3% dan 81,7% ga ko‘tarilgan. Hisobot tayyorlash vaqti 94,1% ga kamaygan.

TAJRIBA-SINOV NATIJALARI

Tajriba-sinov 2024-yil oktyabr — 2025-yil mart oylarida Buxoro viloyatining 3 ta tibbiyot muassasasida olib borildi. Tajriba-sinov davomida 1 248 nafar xizmatchi raqamli tizim orqali tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. Nazorat guruhi sifatida an‘anaviy tizimda ko‘rikdan o‘tgan 1 156 nafar xizmatchi ma‘lumotlari olindi.

Natijalar Student t-testi va Pearson χ^2 mezoni yordamida statistik tekshirildi: ko‘rik vaqtining qisqarishi bo‘yicha $t=14,73$, $p<0,001$; xatolar kamayishi bo‘yicha $\chi^2=28,41$, $p<0,01$; qoniqish oshishi bo‘yicha $t=11,28$, $p<0,001$. Barcha farqlar statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli ($\alpha=0,01$). Cohen d effekt hajmi 0,82 ni tashkil etdi — bu katta effekt hajmiga mos keladi.

Risk-scoring algoritmining samaradorligi retrospektiv tahlil orqali tekshirildi: sezgirligi (sensitivity) 84,3%, spetsifikligi (specificity) 91,7%, AUC-ROC ko‘rsatkichi 0,89. Bu natijalar tibbiy DSS tizimlar uchun qoniqarli darajadagi aniqlik hisoblanadi.

MUHOKAMA

Olingan natijalarni jahon tajribasi bilan solishtirish quyidagi xulosalarga olib keladi. H.Komulainen va P.Virtanen (2018) Finlandiyada erishgan 42% vaqt tejashdan farqli o‘laroq, bizning modelimiz 60,9% vaqt tejashni ko‘rsatdi. Bu farq O‘zbekistondagi boshlang‘ich raqamlashtirish darajasining pastligi bilan izohlanadi — an‘anaviy tizimning samarasizligi qancha yuqori bo‘lsa, raqamlashtirishdan olinadigan samara shuncha katta bo‘ladi.

D.Bates va A.Gawande (2003) tomonidan aniqlangan 55% tibbiy xatolar kamayishi bizning 73,8% natijamizga yaqin. Biz maxsus tibbiy ko‘rik moduliga ixtisoslashganmiz, bu natijaning aniqroq bo‘lishiga olib kelgan. McKinsey & Company (2023) sog‘liqni saqlashda raqamlashtirish ROI sini 2-4 yil deb prognozlagan — bizning 2,4 yil natijamiz ushbu prognoz oralig‘ida joylashgan.

Tajriba-sinov natijalarining cheklanishlari ham mavjud: tadqiqot faqat Buxoro viloyatida olib borilgan, shuning uchun natijalarni barcha hududlarga ekstrapolyatsiya qilishda ehtiyotkorlik zarur. Bundan tashqari, tizimning uzoq muddatli samaradorligi (5+ yil) hali baholanmagan. Kelgusidagi tadqiqotlarda respublika miqyosida pilot loyiha olib borish va longitudinal tahlil amalga oshirish rejalashtirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchidan, O‘zbekistonda xizmatchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish jarayoni hozirgi kunda asosan an‘anaviy usulda amalga oshirilmoqda, bu vaqt isrofi (o‘rtacha 4,6 soat), ma‘lumot xatolari (8,0%), past integratsiya (17,3%) va xizmatchilarning qoniqmasligi (42,3%) kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Ikkinchidan, ishlab chiqilgan besh blokli konseptual model end-to-end raqamlashtirish tamoyiliga asoslangan bo‘lib, ro‘yxatga olishdan monitoring va hisobot generatsiyasigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi. Modelning algoritmik ta‘minoti BPMN 2.0 notatsiyasida formallashtirilgan va risk-scoring, anomaliya deteksiyasi, prediktiv analitika kabi zamonaviy texnologiyalarni o‘z ichiga oladi.

Uchinchidan, iqtisodiy tahlil natijalari tizimning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi: operatsion xarajatlar 37,2% ga kamayadi, ROI 2,4 yil, NPV (5 yil) 412,6 mln so‘m, IRR 38,7%. Tajriba-sinov natijalari barcha

koʻrsatkichlar boʻyicha statistik jihatdan ahamiyatli yaxshilanishni koʻrsatdi (p<0,001).

Toʻrtinchidan, tizimni respublika miqyosida joriy etish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqilgan: (a) «Raqamli tibbiy koʻrik» yagona platformasini yaratish va E-GOV tizimiga integratsiyalash; (b) tibbiy muassasalar xodimlarini raqamli savodxonlik boʻyicha oʻqitish; (c) normativ-huquqiy bazani yangilash — elektron tibbiy karta va raqamli imzoning huquqiy kuchini mustahkamlash; (d) bosqichma-bosqich joriy etish — dastlab viloyat markazlari, soʻng tuman darajasidagi muassasalar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bates D.W., Gawande A.A. Improving safety with information technology // New England Journal of Medicine, 2003, Vol. 348, No. 25, pp. 2526-2534.

2. Komulainen H., Virtanen P. Digital transformation of occupational health management in Finland // Journal of Occupational Health, 2018, Vol. 60, No. 4, pp. 312-325.

3. Georgiou A., Westbrook J. BPMN-based workflow optimization in healthcare // International Journal of Medical Informatics, 2019, Vol. 128, pp. 45-58.

4. Stolyar V.L. Arxitektura meditsinskix informatsionnyx sistem: sovremennye podxody // Vrach i informatsionnye texnologii, 2020, №3, S.42-55.

5. Lazarev A.N. Prediktivnaya analitika v upravlenii profilakticheskimi meditsinskimi osmotrami // Informatsionnye texnologii v zdravooxranenii, 2021, №2, S.18-29.

6. Begimqulov X.Sh. Axborot texnologiyalarini taʻlim va sogʻliqni saqlash tizimiga joriy etishning nazariy asoslari. — Toshkent: Fan, 2019. — 248 b.

7. Gulomov Sh.S., Aripov M.M. Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv tizimlarining transformatsiyasi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021, №4, 15-28 b.

8. World Health Organization. Digital health implementation monitoring: Global survey results, 2022. — Geneva: WHO Press.

9. McKinsey & Company. The era of exponential improvement in healthcare, 2023. — McKinsey Global Institute Report.

10. OʻzR Prezidentining PF-5992-son Farmoni «Tibbiyot tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari toʻgʻrisida», 2020-yil 29-aprel.

11. OʻzR Prezidentining PF-158-son «Oʻzbekiston — 2030» strategiyasi Farmoni, 2023-yil 11-sentabr.

12. OʻzR Vazirlar Mahkamasi 824-son Qarori «Sogʻliqni saqlash tizimini raqamlashtirish toʻgʻrisida», 2022-yil.

13. Van der Aalst W.M.P. Process mining: Data science in action. — Springer, 2016. — 467 p.

14. Topol E. Deep Medicine: How AI Can Make Healthcare Human Again. — Basic Books, 2019. — 378 p.

15. Davenport T.H., Kalakota R. The potential for AI in healthcare // Future Healthcare Journal, 2019, Vol. 6, No. 2, pp. 94-98.

16. OMG. Business Process Model and Notation (BPMN), Version 2.0.2. — Object Management Group, 2013.

17. ISO/IEC 27001:2022. Information security management systems — Requirements.

18. Muslimov N.A. Pedagogik texnologiyalar va axborot tizimlari integratsiyasi. — Toshkent: Ilm ziyo, 2020. — 312 b.

19. Abdullayev Sh.N. Oʻzbekistonda sogʻliqni saqlash tizimini isloh qilish // Tibbiyot jurnali, 2022, №3, 8-17 b.

20. Rajabov I.T., Karimova D.M. E-health tizimlarining iqtisodiy samaradorligini baholash // Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 2023, №1, 45-58 b.

ALTERNATIVE MODELS OF FEMALE LIBERATION: CHALLENGING VICTORIAN EXPECTATIONS IN "JANE EYRE" AND "VANITY FAIR"


https://orcid.org/0009-0000-5905-5872



Kupalova Barno Kamilovna

Nordic International University Masters Degree student
Tashkent, Uzbekistan

ABSTRACT: During the 1840s in Victorian England, a new style of realistic writing started showing how women fought against male-dominated society. This study looks at two famous books from that time: Charlotte Brontë's Jane Eyre (1847) and William Makepeace Thackeray's Vanity Fair (1847-1848). Both stories have main characters who work as governesses and have no parents, but they deal with their difficult situations in completely different ways. The results of studying characters by looking at their backgrounds, education, friendships, and love relationships show two opposite ways of thinking: Jane Eyre follows her moral beliefs and stays true to herself, while Becky Sharp uses clever tricks and her attractiveness to climb up the social ladder. Jane refuses to let men control her and wants a marriage based on equal respect. Becky, however, uses people to get into higher social classes, but never becomes truly happy or authentic. These different paths show us the problems in Victorian society: Brontë's character represents independent thinking and early feminist ideas, while Thackeray's character reveals how corrupt and empty upper-class society really was. This research helps us understand how stories can show different ideas about women's power and choices, and how Victorian culture couldn't solve the problem of women wanting freedom while society kept them down.



INTRODUCTION

The Victorian period witnessed profound changes in literary representations of women's agency, particularly during the 1840s when realist fiction emerged to examine social contradictions and gender inequalities. Two seminal novels appeared almost simultaneously: Charlotte Brontë's *Jane Eyre* (1847) and William Makepeace Thackeray's *Vanity Fair* (1847-1848). Both works achieved immediate critical and popular success in London's literary marketplace, and both featured female protagonists whose behaviors transgressed normative expectations for women's conduct and ambition.

Victorian gender ideology prescribed rigid limitations on women's roles through the doctrine of "separate spheres" and the cult of "the Angel in the House" which idealized feminine self-sacrifice, moral purity, and domestic devotion[1]. Legal structures reinforced women's subordination: married women possessed no independent property rights, higher education remained largely inaccessible, and professional opportunities were severely restricted, with governess work representing one of few "respectable" options for educated women[2].

Against this backdrop of systematic gender oppression, "Jane Eyre" and "Vanity Fair" present female protagonists - Jane Eyre and Becky Sharp - who share remarkably similar structural positions yet pursue radically divergent strategies for navigating patriarchal constraints. Both characters are orphans of ambiguous class status, both work as governesses in upper-class households, and both lack the economic resources, family connections, and social capital that typically facilitated Victorian women's social mobility through advantageous marriages. Yet despite these parallel circumstances, Jane and Becky embody fundamentally opposed approaches to female agency and self-actualization.

Literature Review and Research Gap

Feminist critics have extensively analyzed *Jane Eyre* through frameworks emphasizing female subjectivity. Gilbert and Gubar[3] interpret Jane as exemplifying female Romantic individualism who achieves authentic selfhood by resisting male tyranny and maintaining moral autonomy. Rich[4] reads Jane's trajectory as a quest for maternal authority that counters patriarchal erasure. These interpretations celebrate Jane as a proto-feminist figure whose insistence on spiritual equality represents early articulation of women's self-determination.

Scholarship on *Vanity Fair* presents conflicting assessments. Langland[5] interprets Becky as critiquing class rigidity by exposing how social position depends on performance rather than inherent qualities. Conversely, Marxist critics view Becky as embodying moral corruption endemic to capitalist social relations, where individuals instrumentalize others for material gain[6].

Despite substantial scholarship on each novel individually, comparative analysis examining how these contemporaneous texts construct opposing models of female agency remains limited. Meyer[7] briefly contrasts Jane and Becky but does not develop sustained theoretical analysis. Most significantly, existing scholarship has not systematically examined how these characterizations reveal contradictions within Victorian gender ideology—specifically, the tension between moral imperatives requiring women's virtue and structural conditions making virtue economically disadvantageous.

Research Questions and Hypothesis

This study addresses three questions:

1. How do Jane Eyre and Becky Sharp's formative experiences shape their strategies for negotiating male dominance and class restrictions?

2. How do their educational experiences produce different ethical frameworks and conceptions of female selfhood?

3. How do their romantic relationships embody contrasting paradigms of female agency, and what do these reveal about Victorian culture's contradictory demands on women?

Central Hypothesis: Jane Eyre and Becky Sharp represent two opposite models of women breaking the rules. Even though both characters came from similar poor backgrounds and did the same job, they represent completely different ways of dealing with

[1] E. Langland, *Nobody's Angels: Middle-Class Women and Domestic Ideology in Victorian Culture*. Ithaca, NY: Cornell University Press, 1992, p. 18.

[2] M. Poovey, *Uneven Developments: The Ideological Work of Gender in Mid-Victorian England*. Chicago, IL: University of Chicago Press, 1988.

[3] S. M. Gilbert and S. Gubar, *The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination*, 2nd ed. New Haven, CT: Yale University Press, 2000, pp. 336-371.

[4] A. Rich, "Jane Eyre: The temptations of a motherless woman," in *Critical Essays on Charlotte Brontë*, B. Timm Gates, Ed. Boston, MA: G. K. Hall & Co., 1979, pp. 142-155.

[5] E. Langland, *Society in the Novel*. Chapel Hill, NC: University of North Carolina Press, 1984, pp. 72-89.

[6] B. S. Liu, Ed., *A Short History of English Literature*. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 1993, p. 306.

[7] S. Meyer, *Imperialism at Home: Race and Victorian Women's Fiction*. Ithaca, NY: Cornell University Press, 1996.

society's restrictions. Jane's strategy emphasizes ethical principle and psychological authenticity, achieving genuine self-actualization through principled resistance. Becky's approach prioritizes strategic calculation and social performance, achieving social mobility without authentic selfhood. These opposing characterizations reveal Victorian gender ideology's internal contradictions between requiring women's moral superiority and structural realities making moral principles strategically disadvantageous.

This comparative analysis illuminates enduring tensions within feminist theory between liberal emphasis on individual agency and structural feminism's focus on systemic transformation. By historicizing these competing paradigms, this study contributes to understanding how literary representations both reflect and shape cultural understandings of gender, power, and possibility.

METHODS

This study employs qualitative comparative character analysis as its primary methodological approach, systematically examining textual evidence from Charlotte Brontë's *Jane Eyre*[8] and William Makepeace Thackeray's *Vanity Fair*[9]. The analytical framework integrates three complementary theoretical perspectives: feminist narratology, sociological theories of agency, and bildungsroman literary criticism.

Feminist Narratology: Following Lanser's methodology[10], this study examines how novels construct female subjectivity through narrative voice, focalization, and characterization. This approach analyzes not merely what protagonists do but how their actions are narratively framed and what ideological work this accomplishes.

Sociological Theory of Agency: The study operationalizes "female agency" through Weber's distinction[11] between value-rational action (pursuing objectives based on ethical principles regardless of consequences) and instrumentally-rational action (calculating efficient means to achieve material outcomes). Applied to gender analysis, this illuminates different strategies: moral autonomy (maintaining principles despite social pressures) versus instrumental rationality (manipulating gender norms for material advantage).

Bildungsroman Framework: Drawing on Berg's analysis[12], the study examines how protagonists develop through formative experiences that shape their identities and worldviews, providing analytical categories for parallel developmental stages with divergent outcomes.

Data Collection and Analytical Categories

The analysis draws on primary textual evidence including direct dialogue, narrative description of thoughts and emotions, character actions, others' perceptions, and narrative commentary. Four developmental domains were identified for systematic comparison:

1. Family Background and Early Socialization: Formative experiences including parental loss, class positioning, treatment by guardians, and initial responses to injustice.

2. Educational Experiences and Institutional Formation: Formal and informal education, relationships with mentors, and how educational experiences influence understanding of knowledge, virtue, and social mobility.

3. Social Relationships and Class Positioning: Friendships, positioning as governesses, strategies for managing social marginality, and use of social capital.

4. Romantic Relationships and Marriage: Courtship experiences, attitudes toward love and marriage, power negotiations, and relationship between romantic choices and broader life strategies.

Analytical Procedure

Stage 1: Evidence Collection. Both novels were systematically reviewed to identify passages relevant to the four categories. Passages were coded with attention to moral dilemmas, norm violations, and exercises of agency revealing relationships to gender expectations and class structures.

Stage 2: Within-Category Comparison. For each category, point-by-point comparison identified patterns revealing each protagonist's characteristic approach. For example, both experience romantic attraction to socially superior men, but Jane's insistence on spiritual equality versus Becky's strategic exploitation illuminates fundamentally different conceptions of agency.

Stage 3: Cross-Category Synthesis. Analysis examined patterns across categories to identify overarching themes distinguishing Jane's value-rational approach from Becky's instrumentally-rational approach, producing the conceptual framework contrasting moral autonomy with strategic calculation.

To understand how Jane and Becky deal with their difficulties in different ways, we looked for spe-

[8] C. Brontë, *Jane Eyre*. Ware, UK: Wordsworth Editions Ltd., 2019. (Original work published 1847)
[9] W. M. Thackeray, *Vanity Fair: A Novel Without a Hero*. London: Penguin Classics, 2012. (Original work published 1847-1848)
[10] S. S. Lanser, *Fictions of Authority: Women Writers and Narrative Voice*. Ithaca, NY: Cornell University Press, 1992, pp. 6-18
[11] M. Weber, *Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology*. Berkeley, CA: University of California Press, 1978, pp. 24-26.
[12] M. Berg, *Jane Eyre: Portrait of a Life*. Boston, MA: Twayne Publishers, 1987, pp. 113-128.

cific behaviors and attitudes in the novels. We identified two main patterns:

Jane's Approach: Moral Autonomy

We recognized Jane's approach when she showed these characteristics: She refuses to give up her moral beliefs even when it would make her life easier or richer. She believes she has value and dignity as a person, regardless of whether she is rich or poor. She acts according to her true feelings and beliefs rather than pretending to be someone she's not. She rejects jobs or roles that treat her as less than human, even though she needs money and of course, she looks for relationships where both people respect each other as equals

Becky's Approach: Instrumental Rationality

We recognized Becky's approach when she showed these characteristics: She carefully plans her actions based on what results she wants to achieve. She uses society's rules about women to her advantage, even if it means being dishonest. She acts feminine and charming in ways designed to get specific reactions from people. She cares more about climbing the social ladder than being emotionally honest. She takes advantage of other people's feelings and weaknesses to get what she wants.

By tracking these different behaviors throughout both novels, we could clearly see how the two characters represent opposite strategies for surviving in Victorian society.

Contextual Interpretation

Following Langland's method[13], all character actions were interpreted within historical and social context, examining how Victorian legal structures, class hierarchies, marriage markets, and gendered labor divisions constrained options. This historical contextualization prevents anachronistic interpretation while illuminating how these literary works both reflected and critiqued their contemporary conditions.

Limitations

This study acknowledges several methodological limitations inherent in comparative literary analysis. One of them is authorial difference. Comparing works by different authors with distinct narrative styles and ideological orientations introduces complexity. Brontë's first-person narration creates different possibilities for character development than Thackeray's omniscient third-person satire. However, these stylistic differences themselves constitute meaningful data, revealing how different narrative strategies construct female subjectivity.

The other is sample limitations. Restricting analysis to two novels from a single decade limits generalizability. Both protagonists are white, educated, and of ambiguous middle-class status, excluding analysis of working-class or colonial female characters whose experiences would differ substantially.

Finally, interpretive positioning. Literary analysis involves interpretive judgment shaped by the analyst's theoretical commitments and social location. This study's feminist theoretical framework privileges certain textual elements and interpretations while potentially marginalizing others.

Despite these limitations, the study's focused comparative approach enables deep analysis of how two contemporaneous texts engaged with similar social contradictions through radically different characterizations, illuminating the range of possibilities for representing female agency within Victorian literary culture.

RESULTS

Comparing the four developmental areas revealed consistent patterns showing the difference between Jane Eyre's moral independence and Becky Sharp's strategic calculation. Results are organized by analytical area with supporting evidence from the texts.

Family Background and Poverty

Both main characters lost their parents, experienced poverty, and faced social rejection during childhood. Jane Eyre's parents died shortly after she was born, and she was sent to Lowood charity school. Her cruel aunt, Mrs. Reed, treated her badly and told everyone Jane was a liar, which hurt her reputation[14]. This emotional abuse and social isolation taught Jane early on that society can be unjust. However, instead of becoming bitter, Jane developed strong moral principles and a sense of her own worth despite having no social status.

Becky Sharp also grew up as an orphan, but in different circumstances. Her mother was a French opera dancer, and her father was an artist who drank too much and died broke[15]. Unlike Jane, who suffered in a wealthy but cold household, Becky experienced bohemian poverty and saw first-hand how important money is. These early experiences taught Becky that social position depends entirely on wealth and that moral principles won't help you survive.

The difference in their childhoods created opposite worldviews. Jane learned that keeping her moral

[13] E. Langland, *Society in the Novel*. Chapel Hill, NC: University of North Carolina Press, 1984, pp. 72-89.
[14] C. Brontë, *Jane Eyre* (1847). Ware, UK: Wordsworth Editions Ltd., 2019, p. 45.
[15] W. M. Thackeray, *Vanity Fair: A Novel Without a Hero* (1847-1848). London: Penguin Classics, 2012, p. 18.

integrity matters even when facing injustice. Becky learned that society's moral rules are fake and that the only way to succeed is through clever planning. These basic attitudes shaped everything they did later in life.

Education and How Institutions Shaped Them

Both characters' school experiences reinforced these different viewpoints. Jane spent eight years at Lowood Institution-six as a student and two as a teacher. The school was harsh and underfunded, with terrible food and freezing buildings that caused disease[16]. However, Jane found mentors there, especially Miss Temple and Helen Burns, who taught her intellectual discipline and spiritual strength. The education Jane received emphasized moral development along with academic learning, teaching her that self-respect comes from within, not from social status.

Becky Sharp attended Miss Pinkerton's Academy, which was very different from Lowood. This fashionable school served wealthy families and focused on superficial accomplishments - French, music, and drawing—rather than deep learning[17]. Becky viewed education instrumentally, as a set of skills to use for social climbing rather than for personal growth. She learned to perform respectability and charm without internalizing moral principles. Where Jane learned ethical integrity, Becky learned social performance.

The contrast shows how institutions reproduce social ideology. Lowood, despite its poverty, transmitted moral and intellectual values that empowered Jane psychologically even without giving her material resources. Miss Pinkerton's Academy, despite its elegance. taught surface accomplishments that prepared students only for marriage market competition without developing authentic selfhood.

Social Relationships and Positioning

How Jane and Becky navigated social relationships revealed their fundamentally different approaches to power. Jane consistently prioritized moral authenticity over social advantage. When working as a governess at Thornfield Hall, she maintained her dignity despite her low position, asserting equality with Mr. Rochester based on spiritual rather than social grounds: "Do you think, because I am poor, obscure, plain, and little, I am soulless and heartless?"[18]. This famous declaration shows Jane's belief in human equality regardless of social hierarchy.

Becky Sharp approached relationships as strategic opportunities. She cultivated friendships with wealthy people who could help her advance socially while manipulating those she considered beneath her. Her treatment of Amelia Sedley demonstrates this pattern—Becky maintained their friendship only when Amelia had social connections, abandoning her when she became poor[19]. Becky recognized that Victorian society operated through networks of patronage and influence, and she worked those networks without emotional attachment or moral constraint.

These contrasting relationship patterns reveal different theories of social power. Jane believed that asserting one's inherent human dignity could gradually transform oppressive relationships, representing a liberal humanist faith in moral persuasion. Becky recognized that power relationships depend on material resources and strategic positioning, adopting a more cynically realistic understanding of how society actually functions.

Romantic Relationships and Agency

The characters' romantic relationships most clearly demonstrated their opposing approaches to female agency. Jane's relationship with Mr. Rochester developed through intellectual companionship and mutual respect. When she discovered Rochester had a living wife, Jane refused to become his mistress despite her love, declaring she must "keep the law given by God"[20]. This moral absolutism led her to leave Thornfield, sacrificing romantic fulfilment to maintain her ethical integrity.

Jane only returned to Rochester after becoming financially independent through an inheritance and after Rochester's wife died, freeing him to marry legally. Their final union represented companionate marriage based on equality-Rochester had been humbled by losing his sight and his property, while Jane gained economic independence. Brontë constructs this as authentic love between equals, with Jane explicitly rejecting the master-servant dynamic: "I am independent, sir, as well as rich: I am my own mistress"[21].

Becky Sharp's romantic and sexual relationships served entirely different purposes. She married Rawdon Crawley not for love but for social position, believing he would inherit his aunt's fortune[22]. When that plan failed, she systematically cultivated relationships with wealthy men, using flirtation and sexuality as social capital. Her affair with Lord Steyne represented the logical endpoint of this strategy-trading sexual favours for money and social access without emotional involvement.

Unlike Jane, who insisted on legal marriage and

[16] C. Brontë, *Jane Eyre* (1847). Ware, UK: Wordsworth Editions Ltd., 2019, p. 78.
[17] W. M. Thackeray, *Vanity Fair: A Novel Without a Hero* (1847-1848). London: Penguin Classics, 2012, p. 12.
[18] C. Brontë, *Jane Eyre* (1847). Ware, UK: Wordsworth Editions Ltd., 2019, p. 45p. 284.
[19] W. M. Thackeray, *Vanity Fair: A Novel Without a Hero* (1847-1848). London: Penguin Classics, 2012, p. 246.
[20] C. Brontë, *Jane Eyre* (1847). Ware, UK: Wordsworth Editions Ltd., 2019, p. 344.
[21] C. Brontë, *Jane Eyre* (1847). Ware, UK: Wordsworth Editions Ltd., 2019, p. 498.
[22] W. M. Thackeray, *Vanity Fair: A Novel Without a Hero* (1847-1848). London: Penguin Classics, 2012, p. 178.

moral legitimacy, Becky operated outside conventional morality, recognizing that Victorian society's official values bore little relationship to actual behavior among the upper classes. Her sexual agency was fundamentally instrumental-using her body and attractiveness as resources in a competitive social marketplace.

DISCUSSION

Moral Autonomy Versus Strategic Rationality

The fundamental difference between these characters lies in their relationship to moral principles. Jane Eyre developed what we might call deontological ethics - belief that certain actions are inherently right or wrong regardless of consequences. This moral absolutism gave Jane psychological autonomy but also limited her strategic options. She could not compromise her principles even when doing so might advance her interests, as shown by her refusal to become Rochester's mistress.

Becky Sharp embodied consequentialist ethics - evaluating actions solely by their outcomes rather than their inherent morality. This instrumental rationality maximized her strategic flexibility but prevented authentic selfhood. Becky constantly performed different identities depending on her audience, never revealing a stable core identity. Where Jane's moral consistency created psychological integrity, Becky's strategic flexibility created existential emptiness.

This distinction reveals a fundamental tension in Victorian gender ideology. The dominant culture prescribed moral purity as women's essential virtue while simultaneously creating material conditions that made moral behavior economically irrational. Jane's trajectory suggests that women can achieve fulfilment through moral integrity despite structural inequality - an optimistic but perhaps unrealistic proposition. Becky's trajectory suggests that structural inequality inevitably corrupts individual morality, making opportunism the only rational response - a pessimistic but perhaps more realistic assessment.

Class Position and Narrative Perspective

The contrasting characterizations also reflect their authors' different class positions and ideological commitments. Charlotte Brontë came from a middle-class family and experienced poverty through her father's modest clerical income and her own work as a governess[23]. Her personal experiences with class injustice shaped *Jane Eyre*'s critique of aristocratic privilege and its validation of middle-class moral values. Jane's ultimate reward - inheriting money that enables her to marry as an equal - suggests that virtue and independence can overcome social inequality.

Thackeray's upper-middle-class background and satirical approach produced opposite ideological effects. *Vanity Fair*'s subtitle – "A Novel Without a Hero" - signals rejection of individual moral agency as a social solution[24]. Becky's ultimate "success" through calculated manipulation shows that Victorian society rewarded vice rather than virtue, exposing the hypocrisy beneath middle-class moral pretensions. As Charlotte Brontë herself recognized in dedicating *Jane Eyre*'s second edition to Thackeray, both authors sought to expose social injustice, but used completely incompatible strategies - hopeful moral idealism versus pessimistic satirical determinism.

Historical Context: The "Woman Question" in 1840s England

These contrasting representations appeared during intensifying debate about women's social roles - the "Woman Question" that dominated Victorian public discussion[25]. The 1840s saw growing middle-class concern about "redundant women"- unmarried women without economic support - and early feminist organizing around property rights and education access. Both novels entered these debates but offered incompatible diagnoses and solutions.

Jane Eyre implicitly argued that expanding women's education and career opportunities while maintaining moral standards would enable female self-actualization within reformed social structures. Becky Sharp's story suggested opposite conclusions: that structural inequality inevitably corrupts individual morality, making virtue impossible under existing social arrangements. This fundamental disagreement about whether moral reform or structural transformation offers the path to gender equality continues in contemporary feminist theory[26].

Limitations and Future Directions

Limiting this study to two novels from a single historical period prevents generalization about Victorian literature's full range of female representations. Future research should expand the comparison to include works by other women authors beyond Brontë - such as Elizabeth Gaskell and George Eliot - whose class backgrounds and ideological positions differ significantly. Additionally, intersectional analysis examining how race, religion, and nationality intersect with gender and class would reveal additional dimensions of Victorian female agency. Finally, reception studies investigating how contemporary readers interpreted

[23] S. M. Gilbert and S. Gubar, *The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination*, 2nd ed. New Haven, CT: Yale University Press, 2000, p. 338.

[24] E. Langland, *Nobody's Angels: Middle-Class Women and Domestic Ideology in Victorian Culture*. Ithaca, NY: Cornell University Press, 1992, p. 73.

[25] E. Langland, *Nobody's Angels: Middle-Class Women and Domestic Ideology in Victorian Culture*. Ithaca, NY: Cornell University Press, 1992, p. 23.

[26] N. Armstrong, *How Novels Think: The Limits of Individualism from 1719-1900*. New York: Columbia University Press, 2005, p.156.

these contrasting representations would clarify these novels' actual historical impact on Victorian gender ideology.

CONCLUSION

This comparative study has shown that Charlotte Brontë's *Jane Eyre* and William Makepeace Thackeray's *Vanity Fair* construct fundamentally opposed models of female agency despite featuring main characters with similar socioeconomic origins and jobs. Jane Eyre represents moral independence and principled resistance to male authority, achieving authentic selfhood through adherence to ethical principles and assertion of spiritual equality. Becky Sharp represents strategic calculation and tactical adaptation to structural inequality, using manipulation and sexual capital to penetrate class barriers while achieving only hollow social integration without genuine self-actualization.

These contrasting characterizations reveal Victorian culture's inability to reconcile competing demands within gender ideology: the requirement for female moral virtue versus the reality of structural inequality that makes virtue strategically disadvantageous. Brontë's optimistic individualism suggests that personal courage and moral conviction can overcome social injustice, while Thackeray's satirical determinism exposes how capitalist social relations corrupt individual morality, making opportunism rational rather than exceptional.

The theoretical significance of these findings extends beyond Victorian literary studies to contemporary feminist theory. The divide between moral autonomy and instrumental rationality represents an enduring tension within feminist thought between liberal feminism's emphasis on individual agency and structural feminism's focus on systemic transformation. Victorian literature's encoding of this tension demonstrates that debates about female empowerment strategies - whether through cultivating moral character or dismantling oppressive structures - have deep historical roots predating modern feminist movements.

Practically, this research contributes to feminist literary criticism by demonstrating how comparative character analysis can reveal ideological contradictions embedded within narrative structures. The methodology used here—systematic examination across biographical, educational, social, and romantic dimensions—offers a repeatable framework for analysing gender representations across literary texts, enabling scholars to trace historical changes in conceptions of female agency.

The study's limitations—restricting it to two novels from a single decade and focusing on white, middle-class main characters - suggest productive directions for future research. Expanding the comparison to include works by additional Victorian women authors, examining working-class and colonial female characters, and investigating reader reception would provide more comprehensive understanding of Victorian gender discourse's full complexity and contradictions.

Ultimately, this research confirms that Victorian literature's representations of female agency remain relevant to contemporary gender debates. The tension between Jane Eyre's moral individualism and Becky Sharp's strategic opportunism continues in current discussions about empowerment, choice feminism, and structural inequality. By historicising these competing paradigms, this study contributes to ongoing scholarly efforts to understand how literary texts both reflect and shape cultural understandings of gender, power, and possibility.

REFERENCES:

1. Armstrong, N. (2005). "How novels think: The limits of individualism from 1719-1900". Columbia University Press.

2. Berg, M. (1987). "Jane Eyre: Portrait of a life". Twayne Publishers.

3. Brontë, C. (2019). "Jane Eyre". Wordsworth Editions Ltd. (Original work published 1847)

4. Gilbert, S. M., & Gubar, S. (2000). "The madwoman in the attic: The woman writer and the nineteenth-century literary imagination" (2nd ed.). Yale University Press.

5. Langland, E. (1984). "Society in the novel". University of North Carolina Press.

6. Langland, E. (1992). "Nobody's angels: Middle-class women and domestic ideology in Victorian culture". Cornell University Press.

7. Lanser, S. S. (1992). "Fictions of authority: Women writers and narrative voice". Cornell University Press.

8. Liu, B. S. (Ed.). (1993). "A short history of English literature". Shanghai Foreign Language Education Press.

9. Patmore, C. (1998). "The angel in the house". Woodstock Books. (Original work published 1854)

10. Rich, A. (1979). "Jane Eyre: The temptations of a motherless woman". In B. Timm Gates (Ed.), Critical essays on Charlotte Brontë (pp. 142-155). G. K. Hall & Co.

11. Thackeray, W. M. (2012). "Vanity Fair: A novel without a hero". Penguin Classics. (Original work published 1847-1848)

12. Weber, M. (1978). "Economy and society: An outline of interpretive sociology". University of California Press.

13. S. Meyer, (1996). "Imperialism at Home: Race and Victorian Women's Fiction". Ithaca, NY: Cornell University Press.

TURIZM VA XIZMATLAR SOHASI: O‘ZBEKISTONDAGI TURISTIK FIRMALARNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI

ORCID ID 0009-0000-9957-2874



Mamadaliyev Ulug‘bek Toxirjon o‘gli

Xalqaro Nordik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekiston turizm va xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi turistik firmalarning barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar tadqiq qilinadi. Tadqiqot doirasida turistik firmalarga so‘rovnoma o‘tkazilib, ularning moliyaviy barqarorligi, xizmat sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, marketing strategiyalari va xodimlar malakasini oshirish kabi asosiy omillar aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, barqaror rivojlanish firmalarning iqtisodiy samaradorligi, mijozlar ishonchi va raqobatbardoshligini mustahkamlash bilan bog‘liq. Tadqiqot O‘zbekistonda turizm sohasidagi firmalar uchun strategik rejalashtirish va innovatsion yechimlarni qo‘llashda muhim tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: turizm va xizmatlar sohasi, turistik firmalar, barqaror rivojlanish, moliyaviy barqarorlik, raqamli texnologiyalar, marketing strategiyalari



Kirish

O‘zbekiston turizm sohasi so‘nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Turizm nafaqat xorijiy valyuta tushumlarini oshirish, balki mintaqaviy rivojlanish, ish o‘rinlari yaratish va xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini beradi. Ayniqsa, turistik firmalarning barqaror rivojlanishi mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasiga, jumladan “O‘zbekiston-2030” milliy rivojlanish dasturiga mos keladi. Ushbu dastur doirasida turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va raqobatbardosh turistik mahsulotlarni rivojlantirish kabi maqsadlar belgilangan bo‘lib, ular turistik firmalar faoliyatida barqarorlikni ta’minlashni muhim vazifa sifatida belgilaydi.

Barqaror rivojlanishni ta’minlash omillarini aniqlash maqsadida, tadqiqot doirasida O‘zbekistonning turizm sohasidagi yetakchi turistik firma rahbarlari va soha ekspertlaridan so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma orqali firmalarning moliyaviy barqarorligi, marketing strategiyalari, xizmat sifati, xodimlar malakasi va raqamli texnologiyalarni joriy etish kabi jihatlari o‘rganildi. Shu bilan birga, turistik firmalarning ichki va tashqi muhitdagi muammolarini aniqlash va ularni hal etish yo‘llari ham tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar barqaror rivojlanishga ta’sir etuvchi asosiy omillarni tizimli tarzda aniqlashga imkon berdi, bu esa amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston turizm sohasida strategik rejalashtirish va innovatsion yechimlarni tatbiq etishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Barqaror rivojlanish nafaqat turistik firmalarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi, balki mijozlar ishonchini mustahkamlash, sifatli xizmatlarni taklif qilish va raqobatbardosh turistik mahsulotlarni yaratish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot turistik firmalar faoliyatini yanada samarali tashkil etish, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishish va mamlakat turizm salohiyatini to‘liqroq ro‘yobga chiqarishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu mavzuning maqsadi O‘zbekistonda turizm va xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan turistik firmalarning barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash hamda ularning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish yo‘llarini ilmiy asosda o‘rganishdan iborat bo‘lib, vazifalari sifatida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga tayangan holda turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimidagi asosiy muammolarni o‘rganish, O‘zbekistondagi turistik firmalarning hozirgi faoliyatini har tomonlama tahlil qilish, sayohatlar uchun xizmat ko‘rsatishda eng samarali va ishonchli hamkorlarni aniqlash hamda O‘zbekistonda turistik firmalarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan zamonaviy strategiyalarni belgilash nazarda tutiladi.

Adabiyotlar tahlili

1.How the formation of clusters can enhance tourism development in Uzbekistan.[1]

Ushbu maqolada Shakhnoza Karimova O‘zbekistonda turizm klasterlari orqali barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish modeli taklif qiladi. Muallifa Samarqand, Buxoro va boshqa merosli shaharlar misolida jamoat-xususiy sheriklik va klaster yondoshuvi orqali infratuzilma va mahalliy ish o‘rinlarini kengaytirish, shuningdek, madaniy merosni saqlash va iqtisodiy o‘sishni uyg‘unlashtirish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu tadqiqot, turistik firmalar uchun strategik rejalashtirishda klasterlar asosida ishlash samaradorligi conceptini ilmiy jihatdan asoslaydi.

2.O‘zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirish istiqbollari.[2]

U.Omonov o‘z maqolasida O‘zbekiston turizm sanoatida ekologik ong, smart turizm va ichki siyosiy sharoitlar kabi barqarorlik omillarini chuqur tahlil qiladi. U mamlakatdagi ekoturizm, raqamli turistik xaritalar va barqaror sayohat paketlari bilan bog‘liq muammolar va imkoniyatlarni ko‘rib chiqadi. Maqola turistik firmalarning o‘z faoliyatida barqaror strategiyalarni joriy etish zaruratini ta’kidlaydi va davlat siyosatiga ilmiy tavsiyalar beradi.

3. O‘zbekistonda madaniy turizm istiqbollari.[3]

Umarov o‘z maqolasida tarixiy merosga boy O‘zbekiston shaharlarida (masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva) madaniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qiladi. U infratuzilmani yaxshilash, elektron viza tizimini joriy etish va xizmat sifatini oshirish orqali madaniy turizmni barqaror yo‘nalishda kengaytirish yo‘llarini ko‘rib chiqadi. Maqola, shuningdek, turistik firmalar va xizmat ko‘rsatuvchilarning barqarorlik strategiyasini shakllantirishda madaniy omillarning rolini ochib beradi.

4.The impact of tourism on employment and economic growth in Uzbekistan.[4]

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda turizmning iqtisodiy ta’sirini o‘rganadi: YAIM (yalpi ichki mahsulot), bandlik va infratuzilma rivojiga qo‘shgan hissasi tah-

[1] Karimova S. A. How the formation of clusters can enhance tourism development in Uzbekistan //International scientific journal Management, Marketing and Finance. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 90-94.

[2] Omonjon U. O‘zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirish istiqbollari //University Research Base. – 2024. – C. 544-548.

[3] Umarov O. O‘zbekistonda madaniy turizm istiqbollari //Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2024. – T. 13. – C. 123-125.

[4] Qalandarovna Abdurakhmanova G. et al. The impact of tourism on employment and economic growth in Uzbekistan: An ARDL bounds testing approach //Proceedings of the 5th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. – 2021. – C. 431-439.

lil qilinadi. Muallif statistik ma’lumotlar va hukumat hisobotlarini tahlil qilgan holda, turistik firmalarning faoliyati va barqaror o‘sishining milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini ko‘rsatadilar. Shuningdek, ular turizm siyosati va xizmatlar sifatini yaxshilash orqali firmalarning barqaror rivojlanishini rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar beradi.


Metodologiya

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistondagi turistik firmalarning barqaror rivojlanish omillarini aniqlash va baholash maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik bazasini nazariy tahlil va empirik tadqiqot usullari tashkil etadi. Xususan, sohada mavjud ilmiy adabiyotlar, milliy va xorijiy tadqiqotlar, rasmiy statistik ma’lumotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar chuqur o‘rganildi. Nazariy tahlil orqali turizm va xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy tendensiyalari, barqarorlikka ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar, shuningdek, zamonaviy boshqaruv va marketing yondashuvlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Ushbu usul turistik firmalar faoliyatining konseptual asoslarini shakllantirish, muammolarni ilmiy asosda baholash va tadqiqotning metodik yo‘nalishini belgilash imkonini berdi.

Tadqiqotning empirik qismi ekspertlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga asoslandi. So‘rovnomada turizm sohasi mutaxassislari, turistik firmalar rahbarlari, marketing menejerlari hamda xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ekspertlar ishtirok etdi va unda jami 285 nafar respondent qatnashdi. So‘rovnoma savollari turistik firmalarning barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar, xizmatlar sifati, raqamlashtirish darajasi, kadrlar salohiyati, mijozlar bilan ishlash tizimi hamda davlat tomonidan yaratilayotgan sharoitlar kabi muhim jihatlarni qamrab oldi. Olingan ma’lumotlar statistik va mantiqiy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, asosiy tendensiyalar va muammolar aniqlab olindi. Natijalar nazariy tahlil bilan uyg‘unlashtirilib, ilmiy xulosalar chiqarish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda asos sifatida foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Ushbu bo‘limda so‘rovnoma natijalari asosida O‘zbekiston turizm sohasidagi turistik firmalarning barqaror rivojlanish omillari tahlil qilindi. So‘rovnomada firma rahbarlari va soha ekspertlarining fikrlari yig‘ilib, moliyaviy barqarorlik, xizmat sifati, marketing strategiyalari, xodimlar malakasi va raqamli texnologiyalarni joriy etish kabi asosiy jihatlar baholandi.



1-rasm. Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimida asosiy muommolar.[5]

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimida asosiy muammolar quyidagilardan iborat: amaliy ko‘nikmalarning yetishmasligi (32.6%), o‘quv dasturlarining zamonaviy talablarga mos kelmasligi (20.4%), chet tillarini bilish darajasining pastligi (16.5%), kollej, institut va universitetlarda talab ta’minoti pastligi (18.6%) hamda texnologik infratuzilmaning yetishmasligi (10.5%). Ushbu statistik ko‘rsatkichlar tizimning samaradorligini pasaytirayotgan asosiy to‘siqlarni ko‘rsatib, ta‘lim jarayonini amaliyotga yo‘naltirish, xorijiy tillar va texnologiyalarni integratsiyalash orqali muammolarni bartaraf etish zarurligini ta’kidlaydi, bu esa umumiy rivojlanishni tezlashtirishi mumkin.

O‘zbekiston turizm sohasida kadrlar tayyorlash va turistik firmalarning faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari sektorning hozirgi holati, muammolari va imkoniyatlarini aniq aks ettiradi. Respondentlar orasida turizm firmalari rahbarlari, xodimlari va mutaxassislarning fikrlari jamlangan ushbu jadval sohada eng dolzarb masalalarni ochib beradi: kadrlar sifati, texnologik jihozlanish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va davlat-xususiy hamkorlik darajasi.




[5] O’tkazilgan so’rovnoma natijalariga ko’ra muallif tomonida shakllantirildi.

1-jadval
O‘zbekistondagi turistik firmalarning faoliyati tahlili (so’rovnoma natijalari)[6]

Firmangizda xizmat sifatini oshirish bo‘yicha qanday ishlar olib borilmoqda?	**Xodimlarni o‘qitish**	**Yangi xizmatlar joriy etish**	**Mijozlar fikrini tahlil qilish**	**An’anaviy usullarga tayanish**
	21,80%	31,90%	34,70%	10,50%
Firmangiz qanday tezlikda texnologik yangiliklarni joriy etmoqda?	**Juda tez**	**O‘rtacha**	**Past darajada**	**Umuman joriy etilmayabdi**
	16,80%	56,10%	18,20%	8,10%
Siz turistik xizmatlarni olib borishda qanday texnologiyalardan foydalanasiz?	**Onlayn bron qilish tizimlari (booking)**	**Virtual turlar (VR)**	**CRM va mijozlar bilan ishlash dasturlari**	**Mobil ilovalar**
	48,80%	11,20%	25,30%	12,60%
Sizningcha, O‘zbekistondagi turistik firmalarda texnologiyalarni joriy etishda qanday muammolar mavjud?	**Moliyaviy mablag‘ yetishmasligi**	**Mutaxassislarning yetishmasligi**	**Texnologik infratuzilmaning sustligi**	**Yangi texnologiyalarga qiziqish yo‘qligi**
	44,60%	22,10%	18,90%	11,60%

O‘zbekistondagi turistik firmalarning faoliyati bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari mamlakat turizm sohasida modernizatsiya jarayonlarining qaysi yo‘nalishlarda faol, qaysilarida sust kechayotganini yaqqol ko‘rsatadi. Respondentlarning 31,9 foizi kompaniyalarda xizmat sifatini oshirish bo‘yicha yangi xizmatlar joriy etilayotganini qayd etgan bo‘lsa, 34,7 foizi mijozlar fikrini tahlil qilishga e’tibor qaratilishini ta’kidlagan; bu esa bozor ehtiyojlariga moslashuvchanlikning muhimligini anglatadi. Shunga qaramay, 10,5 foiz korxonalar hali ham an’anaviy usullarga tayanmoqda, bu raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda zamonaviy boshqaruv va marketing mexanizmlarining yetarli darajada qo‘llanilmayotganidan dalolat beradi. Texnologik yangiliklarni joriy etish tezligi borasida firmalarning 56,1 foizi jarayon o‘rtacha darajada ketayotganini bildirgan, bu esa sohada innovatsion transformatsiya borayotgan bo‘lsa-da, uning sur’ati yetarlicha yuqori emasligini anglatadi; 16,8 foiz firmalar texnologik yangiliklarni juda tez joriy etayotganini, 18,2 foiz esa past darajada ekanini bildirgan. Turistik xizmatlarni ko‘rsatishda texnologiyalardan foydalanish borasida firmalarning deyarli yarmi — 48,8 foizi online bron tizimlaridan faol foydalanishi, 25,3 foizi CRM dasturlarini qo‘llashi raqamlashtirish bo‘yicha muhim yutuqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq virtual turlar (11,2%) va mobil ilovalardan foydalanish (12,6%) yetarlicha keng emas, bu esa xalqaro bozordagi ilg‘or tendensiyalardan ortda qolish holatini yuzaga keltiradi. Eng muhim to‘siq sifatida firmalar moliyaviy mablag‘ yetishmasligini (44,6%) ta’kidlaydi; bu texnologik modernizatsiya jarayonining asosiy cheklovlaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Mutaxassislar yetishmasligi (22,1%) esa kadrlar salohiyati, malaka oshirish tizimlari va turizmda IT savodxonlik darajasining to‘liq shakllanmaganini bildiradi. Texnologik infratuzilmaning sustligi (18,9%) esa raqamli platformalar, tezkor internet, axborot tizimlari integratsiyasi kabi elementlarning hali ham izchil rivojlanmaganini tasdiqlaydi. Yangi texnologiyalarga qiziqishning pastligi (11,6%) esa bir qator firmalarda innovatsion madaniyat zaifligini anglatadi. Umuman, so‘rovnoma natijalari O‘zbekistonda turistik firmalar faoliyati bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinayotganini, lekin jarayonni tizimli qo‘llab-quvvatlash — moliyalashtirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va innovatsion yondashuvni kuchaytirish kabi omillarga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi; mavjud natijalar esa soha raqobatbardoshligini oshirish uchun izchil islohotlar zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.




2-rasm. Sayohatlar uchun xizmat ko‘rsatishda eng samarali hamkorlar.[7]

2-rasmda keltirilgan so‘rovnoma natijalari sayohatlar uchun xizmat ko‘rsatishda eng samarali hamkorlik yo‘nalishlarini aniqlashga yordam beradi va bu borada turistik xizmatlar zanjirida qaysi subyektlar yetakchi o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Natijalarga ko‘ra, eng samarali hamkor sifatida sayyohlik agentliklari 41,8% bilan birinchi o‘rinda turadi; bu esa turpaketlar shakllantirish, mijozlar bilan ishlash, marketing faoliyatini olib borish va ko‘p tarmoqli xizmatlarni birlashtirishda agentliklarning markaziy o‘ringa egaligidan dalolat beradi. Ikkinchi o‘rinda 31,6% bilan mehmonxonalar qayd etilgan bo‘lib, bu ularning sayohat jarayonidagi asosiy infratuzilma bo‘g‘ini ekanini va xizmat sifati, qulaylik darajasi, bron qilish tizimlari orqali umumiy sayohat tajribasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Transport kompaniyalari 18,9% bilan uchinchi o‘rinda turib, ularning samarali hamkorlikdagi roli transport logistikasi, yo‘lovchi tashish qulay-


[6] O’tkazilgan so’rovnoma natijalariga ko’ra muallif tomonida shakllantirildi.
[7] O’tkazilgan so’rovnoma natijalariga ko’ra muallif tomonida shakllantirildi.

ligi va sayohat davomiyligining xavfsiz ta’minlanishida muhimligini ko‘rsatadi. Davlat organlari esa 4,9% bilan eng past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, bu ular kam ahamiyatga ega degani emas; aksincha, ularning roli to‘g‘ridan-to‘g‘ri xizmat ko‘rsatishdan ko‘ra tartibga solish, ruxsatnomalar berish, xavfsizlikni ta’minlash, turizmni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish kabi tizimli funksiyalar bilan bog‘liq. Umuman, natijalar samarali hamkorlikning asosan xususiy sektor subyektlari — sayyohlik agentliklari, mehmonxonalar va transport xizmatlari o‘rtasida shakllanishini ko‘rsatadi. Bu esa bozor mexanizmlarining faol ishlashini, turistik xizmatlar sifatini oshirishda o‘zaro kelishuvlar va integratsiyaning muhimligini va turizm infratuzilmasining ko‘p tarmoqli hamkorlikka asoslangan holda rivojlanishini tasdiqlaydi.



3-rasm. O‘zbekistonda turistik firmalarning raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.[8]

3-rasmda keltirilgan grafik ma’lumotlar O‘zbekistonda turistik firmalarning raqobatbardoshligini oshirish uchun qaysi chora-tadbirlar eng muhim hisoblanishini aniq ko‘rsatib beradi. Respondentlarning 35,1 foizi xalqaro hamkorlikni kengaytirishni asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan bo‘lib, bu turizm industriyasida global tarmoq, xorijiy bozorlarga chiqish, qo‘shma loyihalar yaratish va tajriba almashuvning raqobat ustunligini shakllantirishdagi hal qiluvchi o‘rnini tasdiqlaydi. Soliq imtiyozlarining 26,7 foiz ulushga ega bo‘lishi esa turistik firmalar uchun iqtisodiy rag‘batlantirish, investitsiyalar oqimini ko‘paytirish va xizmatlar narxini maqbullashtirish orqali bozordagi pozitsiyani mustahkamlashga xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Soha innovatsiyalarini qo‘llab-quvvatlashga doir grantlar ajratish 22,5 foiz bilan uchinchi o‘rinda qayd etilgan bo‘lib, bu turizmda raqamli texnologiyalar, VR-turlar, smart-xizmatlar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari kabi innovatsion yechimlarni joriy etish zarurligidan dalolat beradi. Eng past ko‘rsatkich — 13,7 foiz — kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishning ahamiyati past emas; balki respondentlar qisqa muddatda ko‘proq iqtisodiy va tashqi hamkorlik choralari ustuvorligini bildirgan bo‘lishi mumkin. Aslida esa malakali gidlar, menejerlar, marketing mutaxassislari, IT va xizmat ko‘rsatish xodimlarining professional darajasi raqobatbardoshlikning asosiy poydevoridir. Umuman, ushbu tahlil turizm sohasida kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi: xalqaro integratsiya, iqtisodiy rag‘bat, innovatsion qo‘llab-quvvatlash va sifatli kadrlar tayyorlash jarayonlari uyg‘un holda olib borilgandagina O‘zbekiston turizm bozori jadal rivojlanishi mumkin.



4-rasm. Respondentlarning yaqin 5 yil ichida O‘zbekistonda turizm sohasidagi fikrlari.[9]

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, qatnashchilarning aksariyati, ya’ni 51 foizi, yaqin besh yil ichida O‘zbekistonda turizm sohasida jadal o‘sish kuzatilishini prognoz qilmoqda. Shuningdek, 30,5 foiz respondentlar sohada o‘rtacha o‘sish bo‘lishini, 10,9 foizi esa barqarorlik saqlanib qolishini taxmin qilmoqda. Faqatgina 7 foiz ishtirokchilar sezilarli o‘zgarishlar bo‘lmasligini ta’kidlashgan. Bu ma’lumotlar O‘zbekiston turizm sektori istiqboliga bo‘lgan ishonchning yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar

O‘zbekistondagi turistik firmalar faoliyatiga oid so‘rovnomalar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, soha barqaror rivojlanishi ko‘p omillar yig‘indisiga tayanadi: xizmat sifati, texnologiyalardan foydalanish, malakali kadrlar, xalqaro hamkorlik va innovatsion yondashuv. Firmalarning aksariyati raqamli platformalar, CRM tizimlari va onlayn xizmatlardan foydalanishni kengaytirayotgan bo‘lsa-da, kadrlar salohiyati, o‘quv dasturlarining zamonaviy talablarga mosligi va ama-

[8] O’tkazilgan so’rovnoma natijalariga ko’ra muallif tomonida shakllantirildi.
[9] O’tkazilgan so’rovnoma natijalariga ko’ra muallif tomonida shakllantirildi.

liy ko‘nikmalarning yetishmasligi sohaga sezilarli to‘sqinlik qilmoqda. Xalqaro hamkorlikning kengayishi, soliq imtiyozlari, innovatsion grantlar va zamonaviy infratuzilmaning shakllanishi esa raqobatbardoshlikni oshirishda hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda. Umuman, turizm sektorida kompleks modernizatsiya, amaliyotga yo‘naltirilgan kadrlar tayyorlash va texnologik transformatsiya O‘zbekistonning global turizm bozoridagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Takliflar:

- Turistik firmalar uchun amaliy ko‘nikmalarni shakllantiruvchi dual ta’lim tizimini (firma–o‘quv muassasasi hamkorligi) keng joriy etish.
- Zamonaviy talablar asosida o‘quv dasturlarini yangilash va xalqaro standartlarga mos qo‘llanmalarni yaratish.
- Turizmda raqamlashtirishni tezlashtirish maqsadida onlayn bron tizimlari, CRM dasturlari, VR-turlar kabi raqamli texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi grant va subsidiyalar ajratish.
- Xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali marketing kampaniyalari, qo‘shma loyihalar va xorijiy mutaxassislar jalbini kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Karimova S. A. How the formation of clusters can enhance tourism development in Uzbekistan //International scientific journal Management, Marketing and Finance. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 90-94.

2.Sh, Habibjonov U. “Analysis of factors influencing the volume of foreign direct investments in the republic of Uzbekistan: correlation analysis.” Экономика и социум 4-1 (131) (2025): 200-207.

3.Omonjon U. O‘zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirish istiqbollari //University Research Base. – 2024. – C. 544-548.

4.Umarov O. O‘zbekistonda madaniy turizm istiqbollari //Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2024. – T. 13. – C. 123-125.

5.Khabibjonov, U., & Sakibayeva, T. (2024). The structure of PIRLS international assessment system. the role in the country’s economy and education system. Science and innovation, 3(B7), 55-59.

6.Очилова, Х. Ф., Амонбоев, М., & Дехконов, Б. Р. (2020). Развитие внутреннего туризма для восстановления отрасли после пандемии. Заметки ученого, (12), 242-247. Sherzodjonovich, H. U. (2024). Analysis of free economic zones in Uzbekistan. Economics and Innovative Technologies, 12(5), 88-95.

7.Qalandarovna Abdurakhmanova G. et al. The impact of tourism on employment and economic growth in Uzbekistan: An ARDL bounds testing approach //Proceedings of the 5th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. – 2021. – C. 431-439.

8.Амонбоев, М. (2018). Образовательная модель подготовки будущего специалиста индустрии туризма. Наука–сервису, 7.

OLIY TA’LIMDA SIFAT KAFOLATINING TRANSFORMATSIYASI: EVOLYUTSION BOSQICHLAR, GLOBAL TENDENSIYALAR VA TIZIMLI MUAMMOLAR



Sherali Abduraimov
– p.f.f.d (PhD), professor, Renessans ta’lim universiteti



Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’limda sifat kafolati tizimlarining tarixiy rivojlanishi, zamonaviy tendensiyalari va asosiy muammolari kompleks o‘rganilgan. Zamonaviy tendensiyalar sifatida raqamli transformatsiya, ta’lim oluvchilarga markazlashgan yondashuv, natijalarga yo‘naltirilgan ta’lim, shaffoflik va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlari tahlil qilingan hamda har bir muammo uchun moslashtirilgan yechimlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, sifat kafolati, Bolonya jarayoni, ESG (Evropa standartlari va yo‘riqnomalari) standartlari, akkreditatsiya, sifat menejmenti, ta’lim islohotlari.



KIRISH

XXI asrda oliy ta’lim tizimlari globallashuv, texnologik rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar ta’sirida tubdan o‘zgardi. Bu jarayonlarda sifat kafolati tizimlari muhim rol o‘ynab, ta’lim xizmatlarining standartlari, shaffofligi va samaradorligini ta’minlashga qaratildi.

Sifat kafolati (Quality Assurance, QA)-bu oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarining belgilangan standartlarga muvofiqligini ta’minlash, baholash va doimiy takomillashtirish uchun amalga oshiriladigan tizimli chora-tadbirlar majmuidir. Bu tizimlar ichki va tashqi (milliy va xalqaro) mexanizmlarni o‘z ichiga oladi [3].

XIX asrning oxirgi yillariga kelib, sifat kafolati mexanizmlari sezilarli evolyusiyani boshidan kechirdi. 1980-yillarda sifat masalasi faqat akademik muhokamalar doirasida bo‘lsa, hozirgi kunda u milliy va xalqaro ta’lim siyosatining markaziy elementiga aylandi. Bu o‘zgarishlar Bolonya jarayoni (1999), Yevropa standartlari va yo‘riqnomalari (ESG 2005, 2015), xalqaro akkreditatsiya tizimlari va milliy sifat agentliklarining tashkil etilishi bilan bog‘liq holda takomillashib bordi [4].

Biroq, sifat kafolati tizimlarining joriy etilishi va amaliyotga tatbiq etilishi jarayonida ko‘plab muammolar yuzaga keldi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy resurslar yetishmasligi, ichki imkoniyatning pastligi, o‘quv materialini hayotiy vaziyatlar, kasbiy faoliyat, amaliyot bilan bog‘lab o‘qitish borasida muammolar sifat kafolati mexanizmlarining samaradorligini cheklab qo‘ydi.

Oliy ta’limda sifat kafolati evolyusiyasining asosiy bosqichlarini, zamonaviy tendensiyalarini va mavjud muammolarini kompleks tahlil qilish orqali sifat kafolatining tarixiy rivojlanish bosqichlari va asosiy tendensiyalarini tavsiflash, sifat kafolati amaliyotidagi muammolarni tizimlashtirish hamda ularni bartaraf etish uchun vaziyatga moslashtirilgan ilmiy-amaliy yechimlarni taklif etish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot davomida xorijiy mamlakatlarning Philip B. Crosby, Michael Fullan, John Hattie, Donald Schön, Linda Darling-Hammond, Charlotte Danielson kabi olimlari tadqiqotlarida sifat menejmenti, sifat kafolati, ta’limda o‘zgarishlarni boshqarish, ta’lim sifatini baholash va o‘qitish samaradorligini oshirish, ta’lim sifatini yaxshilash uchun statistik tahlil va uzluksiz takomillashtirish, pedagoglarning refleksiv amaliyoti va kasbiy rivojlanishi, pedagoglarning kasbiy kompetentligini baholash va rivojlantirish nazariyasi va amaliy yo‘nalishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Bundan tashqari shu yo‘nalishdagi ilmiy manbalar hamda SciSpace, Google Scholar, ArXiv kabi ilmiy ma’lumotlar bazalaridagi maqolalar o‘rganildi. O‘rganish jarayonida Yevropa, Osiyo, Afrika, MDH mamlakatlarining sifat kafolati tizimlarini qiyoslash natijasida sifat kafolatining vaqt bo‘yicha rivojlanishi va transformatsiyasi kuzatildi [1].

METODOLOGIYA

Birinchi bosqich: Dastlabki shakllanish (1980-1990 yillar).

1980-yillarda oliy ta’limda sifat masalasi birinchi marta siyosiy va jamoatchilik muhokamalariga kirdi. Bu davrda Yevropa mamlakatlarida oliy ta’limning ommaviylashuvi, davlat moliyalashtirishining cheklanishi va ta’lim xizmatlari sifatiga nisbatan jamoatchilik talablarining oshishi kuzatildi [7]. Natijada sifat konsepsiyasining akademik muhokamalarga kirishi, milliy darajada tizimli mexanizmlarning yo‘qligi, sifatni baholashning birlashtirilgan mezonlarining mavjud emasligi, ichki boshqaruv va akademik erkinlik ustuvorligi kabi asosiy xususiyatlar namoyon bo‘ldi.

Ikkinchi bosqich: Barqarorlik va Bolonya jarayoni (1990-2000 yillar).

1990-yillar sifat kafolatining barqarorlashuv davri bo‘ldi. 1999 yilda 29 ta Yevropa mamlakati tomonidan imzolangan Bolonya deklaratsiyasi oliy ta’limda sifat kafolatini markazlashtirdi va butun qit’ada birlashtirilgan yondashuvlarni shakllantirish jarayonini boshladi [8].

Bolonya jarayonining boshlanishi, Yevropa universitetlar Assotsiatsiyasi va boshqa xalqaro tashkilotlar faoliyatining kuchayishi, ichki va tashqi sifat kafolati mexanizmlarining shakllanishi hamda sifat madaniyati konsepsiyasining rivojlanishi Yevropa oliy ta’limi makonida sifat kafolatining milliy asoslarini mustahkamladi. Shu bilan birga umumevropa standartlarining yaratilishi, milliy sifat agentliklarining tashkil etilishi, mas’uliyat va talabalar ishtirokining kengayishi kabi muhim yutuqlarga erishildi. Ijobiy natijalarga erishishda monitoring va hisobotga ortiqcha e’tibor qaratilishi, rivojlanish va nazorat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash murakkabligi hamda sharoitning xilma-xilligi sifat kafolatini ta’minlashda yagona yondashuv joriy etishni taqozo etdi.

Uchinchi bosqich: Global standartlar va ESG qabul qilinishi (2000-2010 yillar).

2000-yillarda sifat kafolatining globallashuvi ESG-2005 ning qabul qilinishi orqali oliy ta’limda xalqaro miqyosda yagona yondashuvlarni shakllantirib, milliy akkreditatsiya ramkalarini qayta ko‘rib chiqish, ta’lim dasturlari sifatiga qo‘yiladigan talablarni kuchaytirish hamda xalqaro mobillik va diplomlarni tan olish mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qildi. Yevro-

pa davlatlari tajribasi misolida ko‘ringanidek, sifat talablarining qat’iylashuvi dasturlar sonining sezilarli qisqarishiga va ichki sifat tizimlarining ortiqcha rasmiyatchilikka hamda ma’muriy yuklama sifatida baholanishi sababli ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sirning cheklanganligi kabi muammolarni ham yuzaga chiqardi [9].

To‘rtinchi bosqich: Tartibga solish va raqamlashuv (2010-2020).

2010-2020 yillarda ESG-2015 ning qabul qilinishi sifat kafolati tizimlarining raqamlashuvi va ichki imkoniyatlarni mustahkamlanishiga olib keldi. Shu orqali sifat nazoratini amalga oshirishda talabalar ishtiroki va ichki boshqaruvni kuchaytirib, malaka ramkalari hamda ECTS tizimining integratsiyasi, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv (Data-Driven Governance) prinsiplarining joriy etilishi kabi muhim yutuqlarga erishildi.

Shu bilan birga xorijiy davlatlarda milliy qonunchiliklarni xalqaro standartlarga moslashtirishdagi qiyinchiliklar, chet el sifat agentliklari natijalarini tan olishdagi beqarorlik hamda ichki sifat tizimlarida samarasiz amaliyotlarning davom etishi yechimini kutayotgan muammolar sifatida namoyon bo‘lishni boshladi [9].

Beshinchi bosqich: Pandemiyadan keyingi transformatsiya (2020-2025).

COVID-19 pandemiyasi sharoitida oliy ta’lim tizimlarining raqamli transformatsiyasi sifat kafolati mexanizmlarini qayta asoslashni talab qildi. Natijada, onlayn va gibrid ta’lim shakllari uchun masofaviy baholash hamda raqamli kompetensiyalarni aniqlash mezonlari, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etish kabi yangi imkoniyatlar yaratildi. Yaratilgan imkoniyatlar bilan birga raqamli tengsizlik (digital divide), texnologik infratuzilma cheklanganligi, onlayn ta’lim natijalarini ob’ektiv baholash murakkabligi va akademik halollikni ta’minlash bilan bog‘liq muammolar sifat kafolatining barqaror va adolatli amalga oshirilishiga to‘sqinlik qildi [10].

Zamonaviy tendensiyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Bologna Process va European Higher Education Area doirasida qabul qilingan ESG standartlari asosida sifat kafolati tizimlari ichki mas’uliyat, markazlashgan yondashuv, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv va natijalarga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari bilan boyitildi. Bu esa xalqaro akkreditatsiya, reytinglar hamda davlat-xususiy sektor hamkorligi orqali global moslashuv va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda, biroq ularni amalga oshirish jarayonida milliy uyg‘unlikdagi farqlar, resurslar cheklanganligi, rasmiyatchilik xavfi va sifatni real takomillashtirish bilan hisobot ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi nomutanosiblik kabi tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

NATIJALAR

Oliy ta’lim tizimida birlamchi muammo sifatida moliyaviy cheklovlar va resurslarning yetishmasligi akademik sifat va boshqaruv samaradorligiga tizimli ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Buni yechimi sifatida moliyaviy manbalarni to‘g‘ri taqsimlash, sifat kafolati faoliyatini ustuvor yo‘nalishi sifatida moliyalashtirish hamda moliyaviy shaffoflik va tezkor akkreditatsiya-audit mexanizmlarini joriy etish ta’lim sifati barqarorligini ta’minlashning strategik sharti sifatida qaralishi lozim.

Sifatni baholash mexanizmlariga ortiqcha rasmiy tus berilishi va hujjatbozlikka asoslangan yondashuvi oliy ta’lim muassasalarida akademik nazoratning ustuvor bo‘lishiga olib kelmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ichki sifat kafolati jarayonlariga me’yordan ortiq rasmiy mezon sifatida qaralishi, pedagog xodimlarda ortiqcha yuklama paydo bo‘lishiga olib keladi. Shu bois baholash standartlarini natijaga yo‘naltirilgan va soddalashtirilgan tarzda qayta ko‘rib chiqish, ichki sifat madaniyatini rivojlantirish hamda milliy ta’lim sifati kafolati mexanizmlari bilan tashqi baholash mexanizmlari o‘rtasida tizimli muvofiqlashtirishni ta’minlash sifat kafolatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagog xodimlarning ichki sifat kafolati mexanizmlariga nisbatan xayrixox emasligi, uning samarali joriy etilishida asosiy to‘siq sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagoglar tarkibi bu jarayonni hisobotga asoslangan va manfaatsiz deb qabul qilishlari sifatni takomillashtirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy-amaliy jihatdan muhim yondashuv sifatida sifat kafolati jarayonlariga pedagoglar tarkibini jalb qilish, ularning ijobiy fikrlarini integratsiya qilish, pedagogik



qo‘llab-quvvatlash va kasbiy rivojlanish dasturlarini joriy etish hamda xalqaro standartlarni milliy ta’lim tizimimizga bosqichma-bosqich moslashtirish zarur hisoblanadi.

Sifat kafolati tizimlarining ko‘pchiligi Yevropa ta’lim tizimida, xususan European Higher Education Area doirasida shakllangan me’yoriy tamoyillarga asoslangani bois, ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish samaradorlikni ta’minlamaydi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro standartlarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish, mamlakatlar o‘rtasida hududiy hamkorlikni kuchaytirish hamda global talablar va milliy xususiyatlarni uyg‘unlashtiruvchi gibrid modellarni ishlab chiqish sifat kafolati komponentlarini barqaror va natijador rivojlanishini ta’minlaydi [10].

Sifat kafolatini raqamlashtirishni samarali joriy etish uchun zarur bo‘lgan texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida sifat monitoringi va ma’lumotlar shaffofligini ta’minlashda nomutanosiblikni keltirib chiqarmoqda. Muammoni yechimi sifatida raqamlashtirish strategiyasini bosqichma-bosqich ishlab chiqish, ochiq manba dasturiy ta’minotlardan foydalanish hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish sifat kafolatini raqamlashtirishni tizimli rivojlanishiga xizmat qiladi [7].

MUHOKAMALAR

Hozirda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasida ta’lim sifati raqamli resurslardan foydalangan holda talabaning kasbiy rivojlanishini baholash va monitoring qilishga asoslanadi. Bu esa ta’lim sifatini boshqarish sharoitida kasbiy kompetentli pedagog kadrlarni tayyorlashni nazarda tutadi. Shu asosda ta’lim sifatini boshqarish orqali pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini metodologik va ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, National Center for Education Statistics (AQSh), Office for Standards in Education, Children’s Services and Skills (Angliya), Institut für Qualitätssicherung im Bildungswesen (Germaniya), Mintaqaviy ta’limni rivojlantirish instituti (Rossiya), Direction de l’Évaluation, de la Prospective et de la Performance (Fransiya), Council of Ministers of Education, Canada (Kanada), National Institute for Education Sciences (Xitoy), Finnish Education Evaluation Centre (Finlyandiya), Skolverket, Universitetskanslersämbetet (Shvesiya) da olib borilmoqda [6].

Jahonda ta’lim sifatini boshqarish orqali pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qator ilmiy-amaliy natijalar olingan, jumladan, pedagog kadrlar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning maxsus tayyorgarlik metodikalari orqali bilim, intelektual salohiyat va umumiy kompetensiyalar tizimi takomillashtirilgan (National Center for Education Statistics), ta’lim sifati nazorati, innovasion texnologiyalar va ilmiy-tadqiqotlarga asoslangan pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari takomillashtirilgan (Office for Standards in Education, Children’s Services and Skills), pedagog kadrlarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan sun’iy intellekt va simulyatsiya dasturlari asosida ta’lim sifatini boshqarishning konseptual asoslari mazmunan takomillashtirilgan (Institut für Qualitätssicherung im Bildungswesen), kasbiy kompetentlik darajasini baholashga oid pedagoglar attestasiya tizimi, malaka oshirish dasturlari, kasbiy rivojlanish onlayn platformalar orqali raqamli texnologiyalarni joriy etish rivojlantirilgan (Mintaqaviy ta’limni rivojlantirish instituti), ta’lim sifatini ta’minlash asosida elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, dasturlash va grafik dizayn elementlarini joriy etish orqali bo‘lajak pedagog kadrlarning ijodiy-tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmi takomillashtirilgan (Direction de l’Évaluation, de la Prospective et de la Performance), pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini faoliyat samaradorligi asosida baholashning aniq strategiya va mexanizmlari takomillashtirilgan (Council of Ministers of Education, Canada), ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovasiyaga yo‘naltirilgan VR (virtual reallik), onlayn ta’lim platformalari asosida ta’lim standartlari takomillashtirilgan (National Institute for Education Sciences), pedagoglarning kasbiy malaka darajalarini baholash tizimiga asoslangan milliy o‘quv rejasi umumiy konsepsiyasi takomillashtirilgan (Finnish Education Evaluation Centre), pedagoglarning kasbiy kompetentligini muttasil kasbiy rivojlanish (Continuous Professional Development), ish joyida tajriba almashish (mentoring & coaching) tizimlari takomillashtirilgan (Skolverket, Universitetskanslersämbetet) [5].

Jahonda ta’lim sifatini boshqarish orqali pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta’lim sifatini milliy standartlar va monitoring qilish asosida boshqarish, sun’iy intellekt, simulyatsion dasturlar, masofaviy va onlayn platformalar orqali teng ta’lim olish imkoniyatlarini takomillashtirish, bo‘lajak pedagog kadrlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish, ta’lim sifati va pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlarini tizimli yondashuv asosida loyihalash, pedagoglarni tayyorlash va faoliyat yuritish uchun litsenziyalash talablarini takomillashtirish, pedagog kadrlar faoliyat samaradorligini baholash (KPI) mezonlarini takomillashtirish kabi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda [2].

XULOSA

Olib borilgan kompleks tahlil shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’limda sifat kafolati tizimi izchil evolyutsion rivojlanishni bosib o‘tgan bo‘lib, u nazoratga asoslangan mahalliy amaliyotdan xalqaro amaliyotga muvofiqlashtirilgan, natijaga yo‘naltirilgan va raqamlashgan boshqaruv mexanizmigacha transformatsiyalangan. Xususan, Bologna Process va ESG standartlari sifat kafolatini ichki va uning xalqaro muvofiqligini ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘lgani aniqlandi. Biroq mazkur standartlarni turli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlarda tatbiq etish jarayoni bir xil natija bermasligi, uning samaradorligi ichki imkoniyatlar va milliy ta’lim tizimi bilan bevosita bog‘liq ekani isbotlandi.

Tadqiqot natijalari zamonaviy bosqichda sifat kafolati tizimlari talabaga yo‘naltirilganlik, ta’lim natijalariga asoslangan boshqaruv, shaffoflik va uzluksiz takomillashtirish bilan xarakterlanishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy cheklovlar, ma’muriy yuklama, akademik qarshilik va texnologik infratuzilma yetishmasligi kabi omillar sifat kafolatining ichki samaradorligini cheklamoqda.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sifat kafolati tizimlarini samarali joriy etish ichki imkoniyatlar, resurslar va boshqaruv tizimi bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, sifat kafolatini tatbiq etishda bosqichma-bosqich yondashuvni qo‘llash, ya’ni ichki imkoniyat va resurslar darajasini hisobga olgan holda islohotlarni joriy etish barqaror natijalarga erishish imkonini beradi.

Nazorat va rivojlanish o‘rtasida muvozanatni ta’minlash, ya’ni sifat kafolatini faqat raqamlardan iborat natijalar sifatida emas, balki ichki takomillashtirish vositasi sifatida qo‘llash uning strategik ahamiyatini oshiradi. Raqamli vositalarni joriy etishda texnologik infratuzilma imkoniyatlari va raqamli savodxonlik darajasini inobatga olish, bosqichma-bosqich raqamlashtirish strategiyasini ishlab chiqish va ochiq manba texnologiyalaridan foydalanish resurs tejamkorligi va shaffoflikni ta’minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, sifat kafolatini bir martalik tekshiruv emas, balki uzluksiz takomillashtirish jarayoni sifatida qarash, PDCA (Plan-Do-Check-Act:Rejalash-bajarish-tekshirish-harakat qilish) ketma-ketligiga asoslangan ichki monitoring tizimlarini rivojlantirish va ichki sifat indikatorlarini takomillashtirish oliy ta’lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraimov Sh.S. Ta’lim sifatini tizimli boshqarish asoslari // Tafakkur ziyosi. Ilmiy-uslubiy jurnal. Jizzax, 2024. №4. – B. 14-17.
2. Abduraimov, Sh.S., Ta’lim sifatini boshqarishning xalqaro tajribasi // Tafakkur ziyosi. Ilmiy-uslubiy jurnal. 2025.№4. -B. 17-20.
3. Bischof, L. (2018). Effects of the Bologna Process on Quality Assurance Regimes in the Post-Soviet Space: Isomorphism and Path Dependencies in Moldova, Russia, and Kazakhstan. In European Higher Education Area: The Impact of Past and Future Policies. Springer.
4. Ngenge, R. T. (2024). Lessons from the United States: Improving Accreditation and Quality Assurance in CEMAC Higher Education. APSA Preprints.
5. Sherali Abduraimov. Foundations of Systematic Management of Education Quality // American Journal of Alternative Education, Vol. 1, No. 10, Dec 2024. pp. 105-108.
6. Sherali Abduraimov. Main stages, trends and problems of the evolution of quality assurance in higher education // Science and Innovation international scientific journal, Vol. 5, No. 2, Feb 2026. pp. 69-73. https://doi.org/10.5281/zenodo.18738424.
7. Sin, C., Tavares, O., & Amaral, A. (2017). Taking stock of changes in quality assurance in Portuguese higher education between 2007 and 2015. Debats: Revista de cultura, poder i societat, 2, 65-79. https://doi.org/10.28939/IAM.DEBATS-EN.2017-12.
8. Sokolova, I. (2017). Educational Policy of the European University Association: Quality Assurance Strategies. Educational Discourse, 6, 143-149.
9. Starostina, S. E., & Kazachek, N. A. (2015). Regulatory and Methodological Changes in the System of Higher Education Quality Assurance. Mediterranean Journal of Social Sciences, 6(4 S4), 140-146.
10. Toots, A., & Kalev, L. (2016). Governing in the Shadow of Bologna: Return of the State in Higher Education Quality Assurance Policy. International Journal of Public Policy, 12(1/2), 41-58.

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI TIZIMI UZVIYLIGINI TA'MINLASHDA IJODIY YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI



Bobomurodova Latofat Elmurodovna
UNIVERSITY OF INNOVATION TECHNOLOGIES
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
v.b.b. professor

Annotatsiya: mazkur maqolada maktabgacha va maktab ta'limi tizimi o'rtasidagi didaktik izchillikni ta'minlashda ijodiy yondashuvning strategik konseptual modellari tahlil qilinadi. Ta'lim uzviyligi nafaqat me'yoriy-huquqiy mutanosiblik, balki shaxsga nisbatan yo'naltirilgan ijodiy paradigma sifatida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, ta'lim uzviyligini ta'minlashda xalqaro tajriba va zamonaviy ta'lim metodlari (STEAM) asosida fanlararo integratsiyaning mazmuni va tuzilmaviy komponentlari asoslanadi.

Kalit so'zlar: uzviylik, konseptual, integratsiya, maktabgacha ta'lim, ijodiy yondashuv, pedagogik innovatsiya, STEAM, kompetensiya.



KIRISH

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimining uzviyligi – bu shaxsning aqliy va ruhiy rivojlanishida davomiylikni ta’minlovchi konseptual asosdir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 867-son [2] Qaroriga asosan pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun yetarli sharoitlar yaratish va ta’lim tizimining o‘zaro bog‘liqligi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ammo, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktab o‘rtasida metodik tafovutlar bor. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat turi asosan o‘yin bo‘lsa, maktabda bu jarayon o‘qishga almashadi.

Bu o‘tish davridagi “didaktik uzilish” muammosi nafaqat metodik, balki pedagogik-psixologiik ziddiyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu ziddiyatlar bolalarda “psixologik shok”ni keltirib chiqarmasligi uchun barcha mahoratli pedagoglardan yuksak darajadagi ijodiy yondashuv talab etiladi. Bolalarning aqliy salohiyatini yuksaltirishda hamda bu ziddiyatlarni bartaraf etishda STEAM ta’lim texnologiyasi muhim drayver hisoblanadi. Ijodiy yondashuv bu jarayonda ta’lim mazmunini shunchaki ma’lumotlar to‘plami emas, balki ijodiy kompetensiyalar majmuasi sifatida birlashtiruvchi asosiy vositadir.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’limning asosiy maqsadlaridan biri, bolalarni maktab dasturlariga mexanik holatda tayyorlash emas, balki ularda fundamental ijodiy qobiliyatlarini va o’quv jarayoniga nisbatan ijobiy motivasiyani shakllantirishdir. Ijodiy yondashuv bu o’rinda ta’lim mazmuni va sifatining dastlabki bosqichi sifatida birlashtiruvchi asosiy vosita bo’lib xizmat qiladi. Ushbu maqola yangi ta’lim paradigmalarida bolaning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi qismi

Zamonaviy ta’lim paradigmasida uzviylik printsipi shaxs kamolotining fundamental asosi hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi shuni ko’rsatadiki, maktabgacha va maktab ta’lim tizimlari o‘rasidagi uzviylikni ta’minlashda STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san’at, matematika) ta’lim texnologiyasi hamda ijodiy yondashuv kompetensiyalarini integratsiyalashtirishga asoslangan.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi ilmiy yondashuvlar belgilab olindi:

1. Sinergetik va Tizimli-strukturaviy yondashuv

Ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylik chiziqli jarayon emas, balki murakkab sinergetik tizim sifatida qaraldi. Bunda STEAM ta’limining integrativ tabiati maktabgacha ta’limdagi “borliqni anglash” jarayonini maktabdagi “ilmiy tadqiqot” faoliyati bilan bog‘lovchi kognitiv zanjir sifatida tahlil qilindi. Metodologik jihatdan ta’lim mazmunining taksonomik izchilligi (Bloom taksonomiyasi asosida) o‘rganildi.

2. Kognitiv-psixologik modellashtirish

Ijodiy yondashuvning strategik ahamiyati J.Gilfordning divergent tafakkur nazariyasi va E.P.Torrensning kreativlik o‘lchovlari asosida modellashtirildi. Tadqiqotda bolaning maktabgacha yoshdagi sintezlash qobiliyatidan maktab davridagi analitik tahlilga o‘tishi davrida STEAM loyihalarining “yumshoq ko‘prik” funksiyasi ilmiy asoslandi.

3. Empirotik va Praksiologik metodlar

STEAM texnologiyasini amaliyotga joriy etishning strategik mexanizmlarini baholashda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

Kontent – tahlil: Maktabgacha ta’limning “Ilm yo‘li” nomli variativ dasturi hamda maktab ta’limning Milliy o‘quv dasturi o‘rasidagi fanlararo integrasiyasi tahlil qilindi.

Evristik modellashtirish: Maktabgacha yoshdagi bolalarda konstruktiv tafakkur, muhandislik mushohadasi, ijodiy fikrlash qobiliyati, rivojlantirish orqali maktabdagi o’quv fanlarni o’zlashtirishdagi moslashuv jarayoni ko’rib chiqildi

Sotsiometrik kuzatuv: Pedagoglarning ijodiy kompetentligi va STEAM texnologiyalarini qo‘llashga bo‘lgan innovatsion tayyorgarligi diagnostika qilindi.

4. Strategik mexanizmlarni asoslash metodikasi

Tadqiqot doirasida ijodiy yondashuvning uch darajali strategik mexanizmi ishlab chiqildi:

1. Konseptual daraja: Uzviylikni “shaxsning kognitiv va kreativ yaxlitligi” deb e’tirof etuvchi yangi pedagogik paradigma.

2. Texnologik daraja: STEAM yo‘nalishidagi fanlararo modullarni (masalan, “Lego-matematika”, “Tabiat va san’at” kabi) o‘quv rejasiga integratsiya qilish usullari.

3. Metodik daraja: Loyihaga asoslangan ta’lim (Project-based learning - PBL) va muammoli vaziyatlarni hal qilish (Problem solving) uslublarini ta’lim bosqichlari kesimida unifikatsiya qilish.

4. Eksperimental-pedagogik tahlil

Tadqiqotning metodologik xulosalari shuni tasdiqladiki, ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish ko’rsatkichlari nafaqat akademik bilimlar doirasi bilan, balki ularning kreativ salohiyati, analitik mushohada (Kritik fikrlash), interaktiv muloqot (Kommunikatsiya) hamda kooperativ faoliyat (Kollaboratsiya) mutanosibligi asosida verifikasiyalandi. Bu esa uzviylikni ta’minlashda shunchaki ma’lumotlar almashinuvi emas, balki “kompetensiyalar almashinuvi” mexanizmini birinchi o‘ringa olib chiqdi.



Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Ta'lim tizimidagi uzviylik masalasi uzoq yillar davomida pedagogic tadqiqotlar markazida bo'lib kelmoqda. Xususan, xalqaro miqyosda M.U. Bers va M.S. Horn kabi olimlar erta yoshdagi STEAM ta'limining ahamiyatini ta'kidlab, uni "21-asr savodxonligi" sifatida baholaydilar [5]. Shuningdek, xorijiy tadqiqotlarda ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikning muvaffaqiyati nafaqat dasturiy muvofiqlikka, balki bolaning psixologik tayyorgarligiga ham bog'liqligi isbotlangan [3].

Mahalliy olimlardan O.A.Qo'ysinov kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning kognetiv, affektiv va psixomotorik asoslarini takomillashtirgan (National Institute Of Technical Teachers Training And Research) [6]

M.A.Ganiyeva maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalarini qo'llashning metodik asoslarini ishlab chiqqan bo'lsa, M.E. Jumayev boshlang'ich ta'limda uzviylikni matematik aspektda tahlil qilgan [7, 10]. Biroq, ushbu tadqiqotlarda bevosita ijodiy yondashuv (creative approach) va STEAMning sintezi orqali ta'lim uzviyligini ta'minlashning kognitiv mexanizmlari kompleks tarzda yoritilmagan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda Ta'lim jarayonining transformasiyalashuvi sharoitida pedagogning "professional-ijodiy kompetentligi" uzviylikni ta'minlovchi integrativ muhitni yaratuvchi asosiy fundamental subyektiv determinant sifatida qayta ko'rib chiqilishi lozim.

O.S.Qodirov inson o'z harakatlarining natijasini (muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz) intilishlar darajasi bilan taqqoslab baholashini ta'kidlaydi. Natija o'z-o'zini hurmat qilishiga salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tegishli atribut (natija sabablarini tushuntirish) salbiyni zaiflashtirish yoki o'z-o'zini hurmat ilishning ijobiy ta'sirini kuchaytirishga imkon byeradigan kompyensatsiya myexanizmidir. Agar yerishilgan vaziyatni darhol amalga oshirish mumkin bo'lmasa, lekin uzoq vaqt davomida katta kuch talab qilsa (masalan, kasbiy yutuqlarning o'sishi), har bir individual natija yakuniy maqsadga yaqinlashish nuqtai nazaridan shaxs tomonidan baholanadi [8].

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, STEAM texnologiyasini uzviylikning asosi sifatida qo‘llashda uchta muhim komponent muhim ahamiyat kasb etadi:

Fanlararo integratsiya: Matematika va muhandislik elementlarini san’at orqali o‘rgatish bolada dunyoning yaxlit manzarasini shakllantiradi.

Pedagogik kreativlik: O‘qituvchi tayyor dars ssenariysidan voz kechib, bolaning qiziqishidan kelib chiqib STEAM loyihasini moslashtirishi (improvizatsiya) kognitiv faollikni oshiradi.

Loyiha asosida o‘qitish: MTTda boshlangan kichik loyihalar maktabda murakkabroq bosqichda davom etishi uzviylikni ta’minlovchi asosiy vositadir.

Tahlillar shuni tasdiqladiki, ijodiy yondashuv qo‘llanilgan guruhlarda bolalarning divergent fikrlash (nostandart yechim topish) qobiliyati an’anaviy guruhlarga nisbatan yuqori darajada namoyon bo‘ladi. Bu esa maktab muhitiga moslashish davridagi stress darajasini pasaytirib, o‘quv motivatsiyasini barqarorlashtiradi.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tadqiqot va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha va maktab ta’limi tizimlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlashda ijodiy yondashuv va STEAM texnologiyasi shunchaki pedagogik vosita emas, balki ta’lim sifatini kafolatlovchi strategik mexanizmdir.

1. Uzviylik faqat normativ hujjatlar muvofiqligi bilan emas, balki bolaning kognitiv va kreativ trayektoriyasining uzluksizligi bilan belgilanishi isbotlandi.

2. STEAM-konsepsiyasi yondashuvi asosida integrativ ta’lim muhiti bolalarning maktabga tayyorgarlik bosqichida intellektual kompetensiyalari bilan birga ularning adaptiv-psixologik rezorbsiyasini (o’zlashtirish qobiliyatini) yangi bosqichga olib chiqadi.

3. Taklif etilgan ijodiy model pedagoglarning innovatsion faolligini oshirish va ta’lim muhitini “ijodiy laboratoriya”ga aylantirish imkonini beradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 20.12.2024 yildagi 867-sonli Qarori.

3. Reshetnikova O.A. Continuity of Preschool and Primary Education: Problems and Prospects. Journal of Modern Education, 15(2), 2022.

4. Yakoleva E.L. Psychology of Creative Development of the Personality. – Moscow: Educational Psychology Press, 2021.

5. Bers M.U., & Horn M.S. STEAM in Early Childhood Education: Coding as a Literacy of the 21st Century. In “Early Childhood Education in the 21st Century”. Routledge, 2018.

6. Qo’ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogika fanlari bo’yicha doktorlik (DCs) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya.– T.: 2019.

7. Ganiyeva M.A. STEAM texnologiyalari asosida maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.

8. Qodirov O.S. O‘smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va psixoprofilaktik mexanizmlari. bo’yicha doktorlik (DCs) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya.– T.: 2024

9. Torrance E.P. The Torrance Tests of Creative Thinking. Personnel Press, 1974.

10. Jumayev M.E. Boshlang‘ich ta’limda uzviylik va uzluksizlikmetodikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2022.

QURILISH TARMOG‘IDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASINING STRATEGIK YO‘NALISHLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIK MODELLARI



Axmedova Nilufar Shuxratovna
TAQU, “Iqtisodiyot va ko’chmas mulk” kafedrasi professori, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada qurilish tarmog‘ida kichik va yirik biznes subyektlari o‘rtasidagi tarkibiy mutanosiblik va integratsiya samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda hududiy qurilish ishlarining dinamikasi tahlil qilinib, subyektlar o‘rtasidagi maqbul nisbatni aniqlash bo‘yicha mualliflik modeli taklif etilgan. Olingan natijalar qurilish klasterlari va raqamli integratsiyani rivojlantirish orqali tarmoq rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: qurilish iqtisodiyoti, biznes integratsiyasi, maqbul nisbat, subpudrat, iqtisodiy model, sinergiya effekti, BIM-texnologiyalar.



KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda qurilish tarmog‘i milliy iqtisodiyotning strategik drayveri va ijtimoiy barqarorlikning asosiy omili bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur tarmoq ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish, aholining turar-joyga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalari faoliyati uchun moddiy asos shakllantirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda qurilish sohasini tubdan isloh qilish borasida muhim me’yoriy-huquqiy asoslar yaratildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-sonli «Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»-gi Farmoni hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida sohani raqamlashtirish, shaffoflikni ta’minlash va tadbirkorlik subyektlari uchun teng raqobat muhitini yaratish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Biroq, qurilish ishlari ko‘lamining kengayishi (2025-yilga kelib 170 trln so‘mdan ortiq hajm prognoz qilinmoqda) tarmoq subyektlari — yirik xoldinglar va kichik biznes korxonalari o‘rtasidagi funksional muvozanatni ilmiy asoslashni taqozo etadi. Bugungi kunda kichik biznesning tarmoqdagi ulushi 73,6 foizga yetgan bo‘lsa-da, ularning yirik subyektlar bilan integratsiyalashuv darajasi hamda bu nisbatning iqtisodiy jihatdan “maqbulligi” masalasi yetarlicha o‘rganilmagan.

Mavjud ziddiyat shundaki, yirik qurilish kompaniyalari yuqori kapital va texnik salohiyatga ega bo‘lsa, kichik biznes subyektlari operatsion moslashuvchanlikka ega. Ularni o‘zaro raqobatlashuvchi emas, balki integratsiyalashgan yaxlit tizim sifatida shakllantirish, subpudrat munosabatlarini “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi asosida tartibga solish bugungi kunning dolzarb muammosidir.

Shuningdek, kichik va yirik biznes o‘rtasidagi tuzilmaviy mutanosiblikni aniqlash va buning integratsiya samaradorligiga ta’sirini baholash masalasi hali yetarlicha nazariy va amaliy yechimini topgan emas. Qurilish tarmog‘ida bu ikki guruhni bir-biriga raqobatchi emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi iqtisodiy agentlar sifatida ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Qurilish iqtisodiyotida kichik va yirik biznes subyektlarining o‘zaro nisbati va integratsiyasi masalasi bir necha fundamental nazariyalar doirasida o‘rganib kelingan.

Institutsonal iqtisodiyot nazariyasining yirik vakili, Nobel mukofoti laureati **Oliver Uilyamson (Oliver Williamson)** o‘zining “Tranzaksion xarajatlar iqtisodiyoti” nazariyasida yirik kompaniyalar (iyerarxiya) va kichik subyektlar (bozor) o‘rtasidagi tanlovni tranzaksion xarajatlar darajasi belgilashini isbotlagan. Qurilishda bu nazariya subpudrat munosabatlarining samaradorligini baholashda qo‘llaniladi.

Maykl Porter (Michael Porter) “Raqobatbardoshlik strategiyasi” asarida yirik korxonalar miqyos iqtisodi (economy of scale) hisobiga ustunlikka ega bo‘lishini, biroq kichik korxonalar tor ixtisoslashuv (differentiation) orqali yirik zanjirlarning ajralmas qismiga aylanishini ta’kidlaydi.

Rossiyalik iqtisodchi **A.N. Asaul** qurilish majmuasi tadbirkorlik subyektlarining integratsiyalashgan tuzilmalarini o‘rganar ekan, yirik qurilish xoldinglari va kichik innovatsion firmalar hamkorligini “tashkiliy-iqtisodiy barqarorlik” omili sifatida baholaydi. Biroq, taqdim etilgan ushbu tadqiqotning farqli jihati shundaki, unda aynan kichik va yirik biznesning **«maqbul nisbati»** matematik ko‘rsatkichlar va hududiy tipologiya asosida yangi metodologik yondashuvda tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, iqtisodiy-matematik modellash, hududiy tipologiya va qiyosiy tahlil usullari tanlab olindi. Metodologiya quyidagi bosqichma-bosqich jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

- Maqbul nisbatni aniqlashning indikativ ko‘rsatkichlari. Tadqiqotda kichik va yirik biznesning maqbul nisbatini baholash uchun muallif tomonidan to‘rtta asosiy mezonlar guruhi shakllantirildi:

1. Strukturaviy mezon: Tarmoqdagi korxonalar soni va ular tomonidan bajarilgan ishlar hajmining foizdagi ulushi.

2. Funksional mezon: Subyektlarning texnologik murakkablik darajasiga ko‘ra ixtisoslashuvi (masalan, yirik korxonalar - karkas va muhandislik, kichik biznes - pardozlash va servis ishlari).

3. Investitsion mezon: Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning subyektlar kesimidagi taqsimoti.

4. Samaradorlik mezoni: Har bir ishchi kuchi birligiga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat miqdori.

- Hududiy integratsiya indeksini hisoblash metodikasi. O‘zbekistonning 14 ta hududi bo‘yicha integratsiya muhitini baholash uchun integral indekslash usuli qo‘llanildi. Bunda korxonalar soni, ishchilar soni, investitsiya hajmi va innovatsion faollik ko‘rsatkichlari normallashtirilib, ekspert baholash asosida vazn koeffitsiyentlari biriktirildi. Ushbu metodika hududlarni **A (Yuqori), B (O‘rta) va C (Past)** tiplarga ajratish imkonini berdi.

- Ma’lumotlar bazasi va tahlil davri. Tadqiqotning empirik bazasini O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2015-2025 yillardagi rasmiy ma’lumotlari tashkil etadi. Tahlillar MS Excel va iqtisodiy-statistik paketlar yordamida amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘tkazilgan retrospektiv tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston qurilish bozorida so‘nggi o‘n yillikda tarkibiy transformatsiya jarayonlari kechmoqda. Tad-

qiqot doirasida olingan statistik ma'lumotlar (2015-2025 yillar) kichik tadbirkorlik subyektlarining tarmoqdagi roli keskin ortganini tasdiqlaydi. 2015-yilda kichik biznesning jami qurilish ishlaridagi ulushi 52,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 73,6 foizga yetgan. Bu dinamika shuni anglatadiki, yirik qurilish kompaniyalari bevosita ijrochi funksiyasidan ko'ra, ko'proq loyihalarni boshqarish va resurslarni muvofiqlashtirish (General Contractor) funksiyasiga o'tmoqda. Kichik korxonalar esa tor ixtisoslashuv asosida subpudrat bozorining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan.

1-jadval

O'zbekiston hududlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd so'mda), 2015-2025 yillar[1]

Hududlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
O'zbekiston Respublikasi	16954	19671	22469,4	37451,7	53960,9	63866,6	77907,1	93554,5	159285,9	198789,8	230926,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	920,5	933,4	1083,1	1903	2943,5	3597,3	3843,6	4649	6681,3	7416	8191,4
Andijon viloyati	1259,8	1471,5	1672	2731,2	3360,1	4361,9	5385,3	6441,4	9514,6	12025,2	13977,6
Buxoro viloyati	1255,4	1449,1	1684,4	2989,4	3774,9	4486,2	5503,5	6781,4	11959	14167,2	16101,8
Jizzax viloyati	697,6	838,4	889,8	1520,1	2460,7	2616,9	2891,9	3234	5113	5878,7	6741,7
Qashqadaryo viloyati	1322,3	1863,7	2081,1	3075,6	3627,3	4274,3	4826,1	5664,9	10406,2	11368,7	12464,2
Navoiy viloyati	772,9	862,9	990,1	1657,5	2492,2	2921,8	3899,5	4706,8	8202,6	8963,3	9883,7
Namangan viloyati	956,1	1226,4	1363,6	2072,6	3310,1	4260,7	5229,7	6069,8	10083,6	12298,2	14237,3
Samarqand viloyati	1874,7	2073,8	2137,8	3250	4371,9	4687,4	6136	6922,3	10230,6	13468,6	16277,3
Surxondaryo viloyati	1052,8	1303,7	1407,4	2336,3	3205,1	4020,9	5086,2	6015,4	9993,2	11927,5	13074,5
Sirdaryo viloyati	429,3	487,8	480,4	952,8	1792	2327,5	2146,9	2563,9	3631,4	4117,2	5773,9
Toshkent viloyati	1104	1214,9	1409,2	2257,9	4451,6	5500,2	7179,3	9096,9	16825,3	24248,2	28537,1
Farg'ona viloyati	1462,4	1642,8	1707,4	2707,4	3759,8	5010,9	6099,1	6951,3	11399	13336,1	15926,9
Xorazm viloyati	964,2	1081,7	1170,9	1687,9	2298,5	2534,6	3725,4	4375,6	7974,3	10465,2	12692,4
Toshkent shahri	2882	3220,9	4392,3	8310	12113,2	13266	15954,6	20081,8	37271,8	49109,7	57047,1

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2015–2025 yillarda O'zbekiston hududlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi barcha hududlarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq ushbu o'sishning iqtisodiy mazmuni bir xil emas. Ayrim hududlarda bu holat kichik biznesning qurilish bozorida mustaqil ijrochi sifatida kengayganini ko'rsatsa, boshqa hududlarda esa u yirik investitsion loyihalar bilan bog'langan kooperatsiya zanjirlarining chuqurlashganini anglatadi.

Xususan, Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Samarqand viloyatida kichik biznes tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi ushbu hududlarda qurilish bozorining kengligi, investitsion faollikning yuqoriligi va subpudrat munosabatlarining rivojlanganligi bilan izohlanadi. Bu hududlarda kichik biznesning o'sishi yirik biznes bilan qarama-qarshi holatda emas, balki ko'proq integratsiyalashgan iqtisodiy tuzilma sifatida namoyon bo'ladi.

Farg'ona, Namangan, Andijon va Qashqadaryo viloyatlarida kuzatilayotgan barqaror o'sish esa hududiy tadbirkorlik muhitining faol ekanini, kichik va o'rta hajmli qurilish buyurtmalarining ustunligini hamda mehnat resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengligini ko'rsatadi. Mazkur hududlarda kichik biznesning nisbatan yuqori roli qurilish bozorining moslashuvchan segmentlari ustun ekanini bildiradi.

Jizzax, Sirdaryo, Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikasida hajm nisbatan past bo'lsa-da, izchil o'sish tendensiyasining mavjudligi ushbu hududlarda ham kichik biznesning qurilish tarmog'idagi roli ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq mazkur hududlarda integratsiya samaradorligini oshirish uchun yirik biznes bilan barqaror kooperatsiya mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Respublika hududlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi va subyektlar integratsiyasi darajasi o'rtasida korrelyatsion bog'liqlik aniqlandi. Yuqoridagi 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlari asosida hududlar quyidagi iqtisodiy tiplarga ajratildi:

- A-tip (Yuqori integratsiyalashgan hududlar): Toshkent shahri (57 047,1 mlrd so'm) va Toshkent viloyati (28 537,1 mlrd so'm). Bu yerda integratsiya indeksi

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

0,904 ga teng bo‘lib, yirik investitsion loyihalar atrofida barqaror subpudrat zanjirlari shakllangan.


· B-tip (O‘rta integratsiyalashgan hududlar): Samarqand, Farg‘ona va Andijon viloyatlari. Ushbu hududlarda kichik biznes soni yuqori bo‘lsa-da, ularning yirik kompaniyalar bilan kooperatsiya aloqalari asosan an’anaviy usullarda (raqamli platformalarsiz) amalga oshirilmoqda. Indeks ko‘rsatkichi – 0,726.

· C-tip (Past integratsiyalashgan/shakllanayotgan hududlar): Sirdaryo (5 773,9 mlrd so‘m) va Jizzax (6 741,7 mlrd so‘m) viloyatlari. Bu yerda integratsiya indeksi 0,524 ni tashkil etib, asosiy qurilish hajmi hali ham markazlashgan yirik subyektlar qo‘lida qolmoqda.

2-jadval

O‘zbekiston hududlari bo‘yicha qurilish sohasida kichik va yirik biznes subyektlari integratsiyasining hududiy tipologiyasi

Hududlar tipi	Hududlar	Asosiy belgilar	Kichik va yirik biznes nisbatiga xos holat	Integratsiyani kuchaytirishning ustuvor yo‘nalishi
A-tip: yuqori hajmli va integratsion salohiyati kuchli hududlar	Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand viloyati	Qurilish ishlari hajmi yuqori, investitsion faollik kuchli, yirik loyihalar konsentratsiyasi katta, subpudrat munosabatlari rivojlangan	Yirik biznes yetakchi, kichik biznes esa ixtisoslashgan subpudratchi va servis segmentida faol	Subpudrat zanjirlarini institutsionallashtirish, BIM va ERP integratsiyasini chuqurlashtirish, klaster kooperatsiyasini rivojlantirish
B-tip: barqaror o‘suvchi va hududiy kooperatsiya salohiyati yuqori hududlar	Farg‘ona, Namangan, Andijon, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo	Barqaror o‘sish, mahalliy tadbirkorlik faolligi yuqori, o‘rta va kichik hajmli buyurtmalar ustun	Kichik biznesning ishtiroki yuqori, yirik biznes bilan kooperatsiya imkoniyati kengayib bormoqda	Kooperatsion platformalar yaratish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, standartlashtirilgan subpudrat shartnomalarini joriy etish
C-tip: nisbatan past hajmli, ammo izchil o‘suvchi hududlar	Jizzax, Sirdaryo, Xorazm, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy viloyati	Qurilish ishlari hajmi nisbatan pastroq, o‘sish mavjud, integratsion muhit to‘liq shakllanmagan	Kichik biznes ulushi bor, ammo yirik biznes bilan barqaror funksional bog‘lanish yetarli emas	Yirik loyihalar atrofida kooperatsiya zanjirlarini shakllantirish, hududiy infratuzilmani mustahkamlash, raqamli aloqa mexanizmlarini joriy etish



2-jadval ma'lumotlari qurilish sohasida kichik va yirik biznes sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni respublika bo'yicha bir xil modelda baholash metodologik jihatdan to'g'ri emasligini ko'rsatadi. Chunki hududlar investitsion faollik, qurilish ishlari hajmi, shaharsozlik sur'ati va infratuzilmaviy yuklamaga ko'ra keskin farqlanadi. Shu bois maqbul nisbatni aniqlashda hududiy tipologiyadan foydalanish iqtisodiy jihatdan asosli hisoblanadi. A-tip hududlarda yirik biznesning muvofiqlashtiruvchi roli ustun bo'lsa, B-tip hududlarda kichik biznesning moslashuvchanligi va kooperatsion salohiyati yuqori ahamiyat kasb etadi. C-tip hududlarda esa integratsiya samaradorligini oshirishning asosiy sharti barqaror kooperatsiya muhitini shakllantirishdan iborat.

Mazkur tipologiya muhim ilmiy xulosaga olib keladi: qurilish tarmog'ida kichik va yirik biznes subyektlari o'rtasidagi maqbul nisbatni respublika bo'yicha yagona foizda belgilash metodologik jihatdan to'g'ri emas. Aksincha, bu nisbat hududiy-iqtisodiy muhitga mos ravishda differensial tarzda aniqlanishi lozim.

Hududiy tahlil muhim nazariy xulosaga olib keladi: qurilish tarmog'ida kichik va yirik biznes sub'ektlari o'rtasida yagona universal nisbat mavjud emas; aksincha, hududiy iqtisodiy muhit, investitsion faollik, loyihalar tuzilmasi va infratuzilmaviy yuklamaga mos **maqbul diapazon** shakllanadi. Mazkur yondashuv muammoni oddiy statistik tavsiflashdan analitik modellashtirish bosqichiga olib chiqadi.

Qurilish tarmog'ida kichik va yirik biznes sub'ektlari o'rtasidagi maqbul nisbatni aniqlash maqsadida muallif tomonidan quyidagi iqtisodiy samaradorlik modeli taklif etiladi:

$$E_{opt} = \frac{(K_s \cdot w_1) + (Y_b \cdot w_2) + (Q_d \cdot w_3) + (R_t \cdot w_4)}{T_x \cdot w_5} \rightarrow max$$

Bu yerda:

K_s- kichik biznesning funksional ixtisoslashuv darajasi;

Y_b- yirik biznesning investitsion-boshqaruv salohiyati;

Q_d - kooperatsiya chuqurligi darajasi;

R_t - raqamli va texnologik uyg'unlik darajasi;

T_x- tranzaksion va muvofiqlashtirish xarajatlari;

w_1, w_2...w_5 - ekspert baholash yoki ekonometrik usul bilan aniqlanadigan vazn koeffitsiyentlari.

Iqtisodiy samaradorlik modelining aprobatsiyasi. Taklif etilgan modeli yordamida o'tkazilgan hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, qurilishda integratsiya samaradorligi tranzaksion xarajatlar va kooperatsiya chuqurligi o'rtasidagi muvozanatga bog'liq. Ekspert baholash natijalariga ko'ra, integratsiyalashgan tizimda xarajatlar tarqoq tizimga nisbatan 12-18% ga kamroq bo'lishi ilmiy jihatdan isbotlandi.

Tadqiqot natijalari qurilishda "maqbul nisbat" tushunchasini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. An'anaviy yondashuvda kichik biznes ulushining ortishi ijobiy holat sifatida baholansada, bizning tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, kichik biznes ulushining haddan tashqari yuqori bo'lishi (masalan, 80% dan yuqori) tarmoqda texnologik tarqoqlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Yirik kompaniyalar "strategik integrator" sifatida murakkab texnika, innovatsion litsenziyalar va yirik kapitalga egalik qilishi shart. Kichik biznes esa ushbu zanjirda operatsion moslashuvchanlikni ta'minlashi lozim. Biz taklif etayotgan modelda maqbul nisbat nafaqat son ko'rsatkichi (korxonalar soni), balki bajarilgan ish hajmi va funksional ixtisoslashuvning o'zaro uyg'unligidir.

Tadqiqot davomida integratsiyani cheklovchi uchta asosiy to'siq guruhlari aniqlandi:

1. Axborot assimetriyasi: Kichik biznes subyektlarining yirik loyihalar haqidagi ma'lumotlarga kirish imkoniyati cheklanganligi.

2. Moliyaviy risklar: Subpudrat munosabatlarida to'lovlarning kechikishi va "zanjirli qarzdorlik" muammosi.

3. Texnologik uzilish: Yirik korxonalarda BIM-texnologiyalaridan foydalanilgani holda, kichik subpudratchilarning an'anaviy chizmalar bilan ishlashi.

Maqolada ilgari surilgan "**Resurslar → Integratsiya → Sinergiya → Iqtisodiy samara**" zanjiri qurilish klasterlari orqali amalga oshirilishi lozim. Klaster yondashuvi yirik korxonalar atrofida "yo'ldosh" kichik korxonalar poydevorini yaratadi, bu esa logistika xarajatlarini kamaytirish va kadrlar almashinuvini ta'minlash orqali umumiy samaradorlikni oshiradi.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, qurilish tarmog'ida kichik va yirik biznes o'rtasidagi maqbul nisbat universal proporsiya emas, balki dinamik iqtisodiy holatdir. Tarmoq samaradorligi subyektlarning qarama-qarshiligi emas, balki ularning funksional to'ldiruvchanligi orqali ta'minlanadi. Tadqiqot yakunida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalar shakllantirildi:

1. Qurilish tarmog'ida kichik va yirik biznesning maqbul nisbati hududiy iqtisodiy salohiyat va investitsion muhitga qarab dinamik ravishda o'zgarib turadi. Respublika bo'yicha kichik biznesning 70-75% oralig'idagi ulushi subpudrat bozorining barqaror rivojlanishi uchun iqtisodiy jihatdan maqbul deb baholanadi.

2. A-tipdagi hududlarda (Toshkent sh., Toshkent v.) integratsiya samaradorligini oshirish uchun raqamli transformatsiyaga, C-tipdagi hududlarda esa bazaviy kooperatsiya va klasterlarni shakllantirishga ustuvorlik berilishi lozim.

3. Subpudrat munosabatlarini tartibga soluvchi namunaviy shartnomalarni joriy etish va kichik biznes subyektlarining yirik davlat loyihalarida ishtirok etishini ta'minlovchi kvotalash tizimini takomillashtirish zarur.

4. Integratsiya samaradorligini oshirishning eng istiqbolli yo'li — barcha subyektlarni yagona BIM-platformasiga birlashtirishdir. Bu tranzaksion xarajatlarni o'rtacha 15-20% ga qisqartirish imkonini beradi.

5. Taklif etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi qurilish tarmog'ini alohida subyektlar yig'indisi emas, balki yaxlit integratsiyalashgan, raqobatbardosh iqtisodiy tizim sifatida rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi 841-sonli "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori// Manba: www.lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

3. Coase R. H. The Nature of the Firm // Economica. – 1937. – Vol. 4(16). – pp. 386–405.

4. Williamson O. E. The Economic Institutions of Capitalism: Firms, Markets, Relational Contracting. – New York: Free Press, 1985.

5. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. – 1998.

6. North D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.

7. Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934.

8. World Bank. Small and Medium Enterprises (SME) Finance.

9. OECD. Small and Medium-sized Enterprises (SMEs): An Overview.

10. European Commission. SME Definition and Policy Framework.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlikni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.

12. Akhmedova N.Sh. "Ways to optimize small business and private entrepreneurship"., ACADEMICIA An International Multidisciplinary Reseach Journal ISSN:2249-7137 Vol. 11, Issue 1, January 2021 Impact Factor: SJIF 2021=7,492 India

13. Akhmedova N.Sh. "Improving organizational structure for small and medium contracting firms"., International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, (online) Year: 2019 Issue: 09 Volume: 77 Published: 11.09.2019 http://T-Science.org Impact Factor. 45-50 pages.

14. Akhmedova N.Sh. "Integration of business forms in the construction sector in the digital economy"

THE CHALLENGES AND SOLUTIONS OF DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES

Orcid-ID: 0009-0001-3992-8039



Suyunbek Nazarov

The independent researcher of UzSWLU

Annotation. Effective pedagogical interventions integrate communicative-activity approaches, differentiated instruction, technology-enhanced learning, and professional-oriented content to address the unique challenges faced by non-philological students. The findings underscore the necessity of psycho-linguistically informed teaching methodologies that account for diverse proficiency levels, limited instructional time, and the need to balance linguistic development with professional competence. This article contributes to the theoretical understanding of foreign language acquisition in specialized educational contexts and provides evidence-based recommendations for enhancing speech competence development in non-philological university programs.

Key-words: Speech activity, Fluency, English for specific purposes, Professional development, Teaching methods.



1. Introduction

The development of foreign language communicative competence in university students from non-philological departments represents a critical challenge in contemporary higher education. As globalization intensifies and international professional collaboration becomes increasingly essential, the ability to communicate effectively in a foreign language—particularly English—has evolved from a desirable skill to a fundamental professional requirement (Khrin, 2020). Non-philological students, including those pursuing degrees in engineering, technology, natural sciences, and other specialized fields, must develop robust speech competence to participate effectively in the global knowledge economy while simultaneously mastering complex disciplinary content.

Contemporary research in foreign language acquisition emphasizes the role of cognitive mechanisms in mediating language learning outcomes. Studies have demonstrated that psychological processes such as the coordination of visual-auditory imagery, activation of working memory, perceptual processing of phonological input, and strategic deployment of attention significantly influence the development of communicative competence (Кирякова, 2024). Moreover, the structure and dynamics of speech actions, the role of speech mechanisms in foreign language mastery, and the conditions necessary for successful activation of these mechanisms constitute central concerns in psycholinguistic approaches to language pedagogy (Khrin, 2020).

Zawacki-Richter, O., Marin, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16(1), 39. https://doi.org/10.1186/s41239-019-0171-0

INNOVATSION BOSHQARUVNI TASHKIL ETISHDA REFLEKSIYA VA KREATIVLIKNING INTEGRATSIYASI: MCDONALD ‘S TAJRIBASI MISOLIDA



Murodov Texron Furkat o‘g‘li
Samarqand shahar 3-son bolalar musiqa va san ‘at maktabi o ‘quv-ma ‘rifiy ishlar bo ‘yicha direktor o‘rinbosari
tehron.murodov1994@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion boshqaruv tizimlarida refleksiya va kreativlikning o‘zaro dialektik bog ‘liqligi hamda ularning integratsiyalashgan holda qo ‘llanishining nazariy-amaliy ahamiyati yoritilgan. McDonald‘s korporatsiyasining global miqyosdagi boshqaruv tajribasi misolida refleksiv tahlil asosida qabul qilingan kreativ qarorlarning strategik samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalariga ko ‘ra, zamonaviy raqobat muhitida tashkilotlarning barqaror rivojlanishi reflektiv tafakkur va kreativ yondashuvning uzviy birligi bilan belgilanadi.

Abstract: This article examines the dialectical interrelation between reflection and creativity in innovative management systems and highlights the theoretical and practical significance of their integrated application. Based on the management experience of McDonald ‘s Corporation, the strategic effectiveness of creative decisions formed through reflective analysis is scientifically substantiated. The findings indicate that sustainable organizational development in a contemporary competitive environment is determined by the organic unity of reflective thinking and a creative approach.

Аннотация: В данной статье рассматривается диалектическая взаимосвязь рефлексии и креативности в системах инновационного управления, а также раскрывается их теоретико-практическое значение при интегрированном применении. На примере управленческого опыта корпорации McDonald ‘s научно обосновывается стратегическая эффективность креативных решений, принятых на основе рефлексивного анализа. По результатам исследования сделан вывод о том, что устойчивое развитие организаций в условиях современной конкурентной среды определяется органическим единством рефлексивного мышления и креативного подхода.



Kirish

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda innovatsion boshqaruv nafaqat biznes subyektlari, balki ta’lim tashkilotlari faoliyatida ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim muassasalari bugungi kunda raqobatbardoshlik, ta’lim sifati, manfaatdor tomonlar (o‘quvchi, ota-ona, jamiyat) ehtiyojlariga moslashuv hamda barqaror rivojlanish kabi omillar bosimi ostida faoliyat yuritmoqda. P.Drucker ta’kidlaganidek, innovatsiyalar va tadbirkorlik nafaqat biznes tuzilmalari, balki barcha zamonaviy tashkilotlar faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda [1:145]. Shu bois innovatsion boshqaruv refleksiya va kreativlikka asoslangan yangi boshqaruv mentalitetini talab etadi.

J.Tidd va J.Bessant tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli tashkilotlar o‘z faoliyatini doimiy reflektiv tahlil qilish va ushbu tahlil asosida kreativ boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo‘lgan tuzilmalardir [2:89]. Ushbu jarayonning samarali amalga oshirilishini McDonald’s korporatsiyasining global boshqaruv tajribasi yaqqol namoyon etadi. J.F.Lav o‘zining “McDonald’s: Behind the Arches” kitobida kompaniyaning dastlabki yillardan boshlab doimiy refleksiya va innovatsiyalarga asoslangan boshqaruv modelini shakllantirganini batafsil yoritadi [3:234].

Mazkur maqolaning maqsadi – McDonald’s korporatsiyasi misolida refleksiya va kreativlikning integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmini tahlil qilish, uning ta’lim tashkilotlarini innovatsion boshqarishga transfer qilish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Nazariy-metodologik asoslar

Refleksiya boshqaruv faoliyatida tashkilot yoki rahbarning o‘z qarorlari, jarayonlari va natijalarini tanqidiy tahlil qilish, ularning oqibatlarini baholash hamda kelgusidagi strategiyalarni qayta ko‘rib chiqish jarayoni sifatida talqin etiladi [3:156]. C.Argyris va D.Schön tomonidan ishlab chiqilgan tashkiliy o‘rganish nazariyasida refleksiya tashkilotlarning rivojlanish mexanizmi sifatida qaraladi. Mualliflar “bir halqali o‘rganish” (single-loop learning) va “kki halqali o‘rganish” (double-loop learning) tushunchalarini kiritib, ikkinchisi tashkilotning asosiy me’yor va strategiyalarini qayta ko‘rib chiqish imkonini berishini ta’kidlaydilar [4:78].

Donald Schön refleksiyani professional faoliyatning asosiy mexanizmi sifatida baholab, uni “harakat davomida o‘ylash” (reflection-in-action) va “harakatdan keyin o‘ylash” (reflection-on-action) shakllarida izohlaydi. Uning fikricha, haqiqiy professional mahorat aynan ushbu refleksiv jarayonlar orqali shakllanadi va takomillashadi [5:102].

Kreativlik esa reflektiv tahlil natijasida yuzaga keladigan yangi, noodatiy va samarali yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatidir. T.Amabilening kreativlik komponentlari modeli kreativlikning soha bilimlari, kreativ ko‘nikmalar va ichki motivatsiya o‘zaro ta’sirida shakllanishini asoslaydi [8:87]. Ushbu modelga ko‘ra, kreativ mahsulot yaratish uchun ushbu uch komponentning uyg‘unligi zarur.

Muhim jihat shundaki, kreativlik refleksiyasiz tasodifiy va xavfli bo‘lishi mumkin, refleksiya esa kreativliksiz faqat tahlil darajasida qolib ketadi. Shu sababli zamonaviy boshqaruv nazariyasida refleksiya va kreativlik o‘zaro dialektik bog‘liqlikda talqin etiladi (1-jadval).

1-jadval
Refleksiya va kreativlikning qiyosiy tahlili

Mezon	Refleksiya	Kreativlik
Asosiy vazifasi	Tahlil qilish, baholash, qayta ko‘rib chiqish	Yangi g‘oyalar ishlab chiqish, innovatsion yechimlar topish
Yo‘nalishi	O‘tmish va hozirgi holatga qaratilgan	Kelajak va imkoniyatlarga qaratilgan
Natijasi	Tushuncha, xulosa, baho	Yangi mahsulot, usul, yondashuv
O‘zaro bog‘liqlik	Kreativlikni asoslaydi va yo‘naltiradi	Refleksiya natijalarini amaliyotga tatbiq etadi

Ta’lim tashkilotlarini boshqarishda refleksiya ta’lim natijalari, pedagogik jarayon samaradorligi va boshqaruv qarorlarining ta’sirini tizimli baholashni anglatadi. P.Senge ta’kidlaganidek, o‘rganuvchi tashkilotlar (learning organizations) o‘z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatiga ega bo‘lgan tuzilmalardir [13:234].

Kreativlik esa ushbu tahlil asosida o‘quv jarayoni, boshqaruv mexanizmlari va ta’lim muhiti uchun innovatsion yechimlar ishlab chiqishni ta’minlaydi. P.Freyre pedagogik jarayonda refleksiya va kreativlikning uyg‘unligi orqaligina haqiqiy ozod qiluvchi ta’lim (liberating education) amalga oshirilishi mumkinligini asoslaydi [12:112].

Tahlil va natijalar

McDonald’s korporatsiyasi 1940-yillarda AQShda tashkil topgan bo‘lib, dastlab tezkor xizmat ko‘rsatish va standartlashtirilgan jarayonlarga asoslangan biznes-modelni ishlab chiqqan [3:45]. J.F.Lavning yozishicha, aka-uka Richard va Maurice McDonald’lar tomonidan ishlab chiqilgan “Speedee Service System” tez ovqatlanish sohasida inqi-

lobiy yondashuv edi [3:67]. Biroq kompaniya global miqyosda kengaygan sari ushbu model refleksiv tahlillar asosida doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqilgan.

G.Ritser tomonidan ishlab chiqilgan “Makdonaldizatsiya” (McDonaldization) konsepsiyasiga ko‘ra, kompaniya boshqaruv modeli samaradorlik, hisob-



lash imkoniyati, bashorat qilish va nazorat kabi to‘rtta asosiy tamoyilga asoslanadi [7:89]. Biroq Ritserning ta’kidlashicha, ushbu qat’iy standartlashtirilgan tizim ham refleksiv tahlil va kreativ moslashuvlar orqali turli madaniy muhitlarda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladi [7:156].

B.J.Pine va J.H.Gilmore tomonidan ishlab chiqilgan “tajriba iqtisodiyoti” (experience economy) nazariyasiga ko‘ra, McDonald’s kompaniyasi yangi restoran formatlarini ishlab chiqishda simulyatsiyalangan muhit va teatrlashtirilgan rollardan (role-playing simulations) foydalangan [6:234]. Mualliflarning ta’kidlashicha, xodimlar va menejerlar taxminan 7–8 soatlik intensiv jarayonda mijoz, kassir va boshqaruvchi rollarini ijro etish orqali real muammolarni aniqlagan va ularning kreativ yechimlarini ishlab chiqqan [6:245].

Ushbu simulyatsion mashg‘ulotlar bir vaqtning o‘zida ikkala mexanizmni – refleksiya (mavjud jarayonlarni tahlil qilish) va kreativlik (yangi yechimlar ishlab chiqish) ni faollashtirgan. I.Nonaka va X.Takeuchining “bilim yaratuvchi kompaniya” (knowledge-creating company) nazariyasiga ko‘ra, aynan bunday amaliyotlar orqali tashkilotda yashirin bilim (tacit knowledge) eksplitsit bilimga aylantiriladi va innovatsiyalar manbai sifatida xizmat qiladi [11:123] (2-jadval).

2-jadval
McDonald ‘s boshqaruv amaliyotida refleksiya va kreativlik mexanizmlari

Boshqaruv sohasi	Refleksiv tahlil ob’ekti	Kreativ yechim	Natija
Xizmat ko‘rsatish jarayoni	Mijozlar kutish vaqti, navbatlar	“Made for You” tizimi	Tezkor xizmat, mijozlar qoniqishi [3:278]
Mahsulot assortimenti	Mahalliy bozor talablari	Mahalliylashtirilgan menyu	Bozor ulushining o‘sishi [10:102]
Restoran dizayni	Mijozlar harakati, qulaylik	“Experience of the Future” formatlari	Zamonaviy imidj, yosh mijozlar [6:267]
Kadrlar boshqaruvi	Xodimlar motivatsiyasi, aylanmasi	Hamburger universiteti tizimi	Professional kadrlar tayyorlash [7:189]

C.Vignali tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda McDonald’sning “think global, act local” (global fikrlash, mahalliy harakat qilish) strategiyasi tahlil qilingan [10:97]. Muallifning ta’kidlashicha, kompaniya global standartlarni saqlagan holda, mahalliy bozorlarning madaniy, diniy va ijtimoiy xususiyatlarini chuqur o‘rganish (refleksiya) asosida innovatsion yechimlar (kreativlik) ishlab chiqqan [10, 105].

Bunga Hindiston bozoridagi faoliyat yorqin misol bo‘la oladi. Refleksiv tahlil natijasida mol go‘shti mahsulotlariga bo‘lgan diniy cheklovlar aniqlangan va kompaniya menyusini tubdan qayta ko‘rib chiqib, “McAloo Tikki” (kartoshka kotleti asosidagi burger) kabi mahalliy ta’blarga mos mahsulotlarni joriy etgan [9:345]. C.Hill va boshqalarning strategik menejment bo‘yicha tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, ushbu strategik qaror kompaniyaning Hindiston bozoridagi muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri bo‘lgan [9:356].

Xitoy bozorida esa kompaniya mahalliy madaniyatga mos ravishda restoran dizaynini an’anaviy xitoy uslubida bezatgan va menyuga guruch asosidagi taomlarni kiritgan [7:234]. Yaponiya bozorida esa mahalliy ta’blarni hisobga olgan holda “Teriyaki Burger” va “Ebi Filet-O” (qisqichbaqa kotleti) kabi mahsulotlar ishlab chiqilgan [10:108].

McDonald’sning reflektiv-kreativ boshqaruv modeli ta’lim tashkilotlari uchun bevosita ko‘chiriladigan tajriba emas, balki analitik-transfer modeli sifatida ahamiyatlidir. Ushbu tajriba ta’lim muassasalarida ham boshqaruv qarorlarini qabul qilishdan avval ichki va tashqi muhitni refleksiv tahlil qilish,

so‘ngra pedagogik va tashkiliy innovatsiyalarni kreativlik asosida ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

P.Senge o‘zining “The Fifth Discipline” asarida ta’kidlaganidek, o‘rganuvchi tashkilotlar beshta asosiy intizomga asoslanadi: tizimli fikrlash, shaxsiy mahorat, mental modellar, umumiy kelajakni tasavvur qilish va jamoaviy o‘rganish [13:156]. McDonald’s tajribasi aynan ushbu tamoyillarning amaliyotda qanday ishlashini ko‘rsatadi (3-jadval).

3-jadval
Biznes boshqaruvi amaliyotini ta’lim tashkilotlariga moslashtirish mexanizmi

T/r	Biznes boshqaruvi (McDonald’s)	Ta’lim tashkilotlari boshqaruvi	Transfer mexanizmi
1	Bozor tahlili	Ta’lim ehtiyojlari va natijalarni tahlil qilish	SWOT-tahlil, PESTLE-tahlil [1:234]
2	Mijoz tajribasi monitoringi	O‘quvchi va ota-ona tajribasini o‘rganish	So‘rovnomalar, fokus-guruhlar, intervyular [14:345]
3	Role-playing simulyatsiya	Pedagogik kengashlarda ssenariyli muhokama	Keys-stadi, biznes o‘yinlar, simulyatsiyalar [2:178]
4	Standart + mahalliy moslashuv	DTS + innovatsion pedagogik yondashuv	Adaptiv boshqaruv, fleksibil strategiyalar [13:267]
5	Mahalliy madaniyatni hisobga olish	Hududiy va ijtimoiy kontekstni e’tiborga olish	Etnopedagogik yondashuv, mahalliylashtirish [12:156]
6	Simulyatsion treninglar	Reflektiv-kreativ treninglar	“Reflection-in-action” va “reflection-on-action” amaliyoti [5:134]

Mazkur yondashuv ta’lim tashkilotlari rahbarlaridan strategik fikrlash, muammolarni tizimli tahlil qilish hamda tez o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishni talab etadi. Xususan, bozor va jamiyat ehtiyojlarini monitoring qilish, manfaatdor tomonlar (talabalar, ota-onalar, pedagoglar, ish beruvchilar) kutilmalarini aniqlash hamda mavjud resurslarni baholash reflektiv boshqaruvning muhim tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ladi.

P.Kotler va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan marketing menejmenti nazariyasiga ko‘ra, har qanday tashkilot o‘z faoliyatida mijozlar (ta’lim tashkilotlari uchun – o‘quvchilar, ota-onalar, jamiyat) ehtiyojlarini chuqur tahlil qilishi va shu asosda o‘z takliflarini shakllantirishi lozim [14:456]. Ta’lim tashkilotlari uchun bu ta’lim xizmatlarining sifati va mazmunini doimiy ravishda takomillashtirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishni anglatadi.

Shu bilan birga, kreativ boshqaruv komponenti ta’lim muassasalarida an’anaviy boshqaruv usullaridan voz kechib, innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish, moslashuvchan tashkiliy tuzilmalarni shakllantirish va muqobil rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish imkonini beradi.

McDonald’s tajribasidagi muhim elementlardan biri – simulyatsion mashg‘ulotlar orqali xodimlarning refleksiv va kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirish amaliyotidir. Ushbu amaliyot ta’lim tashkilotlarida quyidagi shakllarda qo‘llanilishi mumkin:

1. Pedagogik kengashlarda ssenariyli muhokamalar – turli pedagogik vaziyatlar (konfliktlar, muammoli o‘quvchilar, ota-onalar bilan muloqot) rolli o‘yinlar orqali modellashtiriladi va ularning konstruktiv yechimlari jamoaviy tarzda ishlab chiqiladi.
2. Strategik sessiyalar – ta’lim muassasasining kelajakdagi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda turli ssenariylar (optimistik, pessimistik, realistik) modellashtiriladi va har bir ssenariy bo‘yicha choratadbirlar ishlab chiqiladi.
3. Keys-stadi metodlari – boshqa ta’lim muassasalarining ilg‘or tajribalari yoki muvaffaqiyatsizlik holatlari tahlil qilinib, ularning sabablari va oqibatlari o‘rganiladi.
4. Biznes o‘yinlar – ta’lim muassasasini boshqarish jarayoni o‘yin shaklida modellashtiriladi va ishtirokchilar turli rollarda (direktor, o‘rinbosar, o‘qituvchi, ota-ona) qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

D.Schön ta’kidlaganidek, aynan simulyatsion muhitda “harakat davomida fikrlash” (reflection-in-action) ko‘nikmasi shakllanadi va takomillashadi [5:234]. Bu esa rahbarning real muammoli vaziyatlarda tezkor va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi (4-jadval).

4-jadval
Ta’lim tashkilotlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan simulyatsion metodlar

Metod	Mazmuni	Refleksiv komponent	Kreativ komponent	Qo ‘llash sohasi
Rolli o‘yinlar	Muayyan vaziyatda turli rollarni ijro etish	O‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish	Yangi muloqot uslublarini sinab ko‘rish	Konfliktlarni boshqarish, muloqot ko‘nikmalari
Keys-stadi	Real vaziyatlarni tahlil qilish	Vaziyat sabablarini o‘rganish	Muqobil yechimlar ishlab chiqish	Strategik qarorlar, muammoli vaziyatlar
Biznes o‘yinlar	Boshqaruv jarayonini modellashtirish	Qarorlar oqibatlarini tahlil qilish	Yangi boshqaruv modellarini sinab ko‘rish	Strategik rejalashtirish, resurslarni boshqarish
“Reflection-in-action” treninglari	Harakat davomida fikrlash amaliyoti	Jarayonni real vaqtda tahlil qilish	Tezkor moslashuvchan yechimlar	Operativ boshqaruv, kutilmagan vaziyatlar

Xulosa va tavsiyalar

Innovatsion boshqaruvning istiqboli refleksiyani tashkilot madaniyatining ajralmas qismiga aylantirish va uni kreativ qarorlar bilan uyg‘unlashtirish qobiliyatiga bog‘liq. McDonald’s tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hatto yuqori darajada standartlashtirilgan boshqaruv modellari ham chuqur reflektiv tahlil va kreativ yondashuv orqali turli madaniy va ijtimoiy muhitlarda muvaffaqiyatli moslashishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

1. Refleksiya va kreativlik o‘zaro dialektik bog‘liqlikda bo‘lib, ularning integratsiyasi innovatsion boshqaruvning asosiy mexanizmini tashkil etadi. Refleksiyasiz kreativlik xavfli tajribalarga, kreativliksiz refleksiya esa rivojlanishsiz tahlilga olib keladi [4:156; 8:234].
2. McDonald’s korporatsiyasining simulyatsion modellashtirish va teatrlashtirilgan rollar amaliyoti bir vaqtning o‘zida refleksiv tahlil va kreativ yechimlarni faollashtirishning samarali mexanizmi hisoblanadi [6:267].
3. Mahalliylashtirish strategiyasi (think global, act local) global standartlarni saqlagan holda mahalliy kontekstga moslashish imkonini beradi. Bu yondashuv ta’lim tashkilotlari uchun ham dolzarb bo‘lib, davlat ta’lim standartlari (DTS) asosida hududiy va ijtimoiy xususiyatlarni hisobga olgan holda innovatsion pedagogik yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi [10:108; 9:356].
4. Ta’lim tashkilotlarini boshqarishda refleksiya va kreativlikni alohida kompetensiyalar sifatida emas, balki yagona reflektiv-kreativ mexanizm sifatida qarash zarur. Shu sababli zamonaviy ta’lim rahbarlari reflektiv-kreativ kompetensiyani innovatsion boshqaruvning asosiy professional talabi sifatida rivojlantirishlari lozim.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni taklif etish mumkin:

1. Ta’lim tashkilotlari rahbarlari va pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimiga reflektiv-kreativ boshqaruv modullarini kiritish;
2. Ta’lim muassasalarida simulyatsion metodlar (rolli o‘yinlar, keys-stadi, biznes o‘yinlar) asosida refleksiv tahlil va kreativ yechimlar ishlab chiqish amaliyotini joriy etish;
3. Ta’lim tashkilotlarida strategik rejalashtirish jarayonida turli ssenariylarni modellashtirish va ular asosida moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqish mexanizmini yaratish;
4. Mahalliy kontekst (hududiy, ijtimoiy, madaniy xususiyatlar) ni chuqur o‘rganish asosida ta’lim xizmatlarini mahalliylashtirish strategiyasini ishlab chiqish;
5. Ta’lim muassasalarida “o‘rganuvchi tashkilot” (learning organization) modelini shakllantirish va rivojlantirish [13:289].

Xulosa qilib aytganda, McDonald’s korporatsiyasining reflektiv-kreativ boshqaruv tajribasi ta’lim tashkilotlarini innovatsion boshqarish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu tajribaning asosiy tamoyillarini ta’lim tizimiga transfer qilish orqali ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, ta’lim sifati va boshqaruv samaradorligini ta’minlash imkoniyati yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. Oxford: Butterworth-Heinemann, 2007. – 288 p.
2. Tidd J., Bessant J. Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change. 7th ed. Hoboken, NJ: Wiley, 2021. – 432 p.
3. Love J.F. McDonald ‘s: Behind the Arches. New York: Bantam Books, 1995. – 496 p.
4. Argyris C., Schön D.A. Organizational Learning: A Theory of Action Perspective. Reading, MA: Addison-Wesley, 1978. – 344 p.
5. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983. – 384 p.
6. Pine B.J., Gilmore J.H. The Experience Economy. Boston: Harvard Business School Press, 2011. – 384 p.
7. Ritzer G. The McDonaldization of Society. 9th ed. Thousand Oaks, CA: Sage Publications, 2019. – 288 p.
8. Amabile T.M. Creativity in Context: Update to the Social Psychology of Creativity. Boulder, CO: Westview Press, 1996. – 384 p.
9. Hill C.W.L., Schilling M.A., Jones G.R. Strategic Management: Theory & Cases. Boston: Cengage Learning, 2020. – 896 p.
10. Vignali C. McDonald ‘s: “think global, act local” – the marketing mix // British Food Journal. – 2001. – Vol. 103, No. 2. – P. 97–111.
11. Nonaka I., Takeuchi H. The Knowledge-Creating Company. New York: Oxford University Press, 1995. – 304 p.
12. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. 30th anniversary ed. New York: Continuum, 2000. – 192 p.
13. Senge P.M. The Fifth Discipline: The Art and Practice of the Learning Organization. New York: Doubleday, 2006. – 464 p.
14. Kotler P., Keller K.L., Chernev A. Marketing Management. 16th ed. Pearson Education, 2022. – 864 p.

FARMATSEVTIKA XIZMATLARI BOZORINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI



Davronova Maftuna Baxodir qizi

Xalqaro Nordik Universiteti
Iqtisodiyot va Biznesni boshqarish kafedra
1-bosqich magistr talabasi
maftuna2072@gmail.com

Annotatsiya. Farmatsevtika xizmatlari bozori sog‘liqni saqlash tizimining strategik sektori bo‘lib, dori vositalarining xavfsizligi, iqtisodiy mavjudligi va narx barqarorligini ta’minlashda davlat tomonidan samarali tartibga solishni talab etadi. O‘zbekiston sharoitida dori narxlarining beqarorligi, importga yuqori qaramlik hamda kompensatsiya mexanizmlarining cheklanganligi farmatsevtika bozorida institutsional takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mazkur tadqiqot aralash metodologiya (mixed-method approach) asosida amalga oshirildi. Sifat tahlili orqali normativ-huquqiy va institutsional mexanizmlar o‘rganildi, miqdoriy tahlil doirasida esa 2020–2025 yillar kesimida CPI–medicine ko‘rsatkichlari asosida dori narxlarining dinamikasi baholandi. Dori vositalari WHO tasnifi asosida essential, ijtimoiy ahamiyatga ega, generik va innovatsion guruhlarga ajratilib, narx regulyatsiyasi instrumentlari benchmarking usulida Finlandiya tajribasi bilan qiyoslandi. Empirik natijalar dori vositalari narxlarining o‘sish sur’ati ayrim davrlarda umumiy inflyatsiya darajasidan yuqori bo‘lganligini ko‘rsatdi, bu esa aholining dori vositalariga iqtisodiy kirish imkoniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini tasdiqlaydi. Finlandiya tajribasi esa referens narxlash, reimbursement tizimi va generik substitutsiya mexanizmlarining integratsiyalashgan qo‘llanilishi narx barqarorligini ta’minlashda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Xulosa sifatida, O‘zbekiston farmatsevtika bozorida davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini modernizatsiya qilish, xususan referens narxlash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, kompensatsiya qamrovini kengaytirish hamda generik raqobatni rag‘batlantirish dori vositalarining iqtisodiy maqbulligini oshirish va sog‘liqni saqlash tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qilishi mumkin.



Kirish

Farmatsevtika xizmatlari bozori sog‘liqni saqlash tizimining strategik sektori bo‘lib, dori vositalarining sifati, xavfsizligi va iqtisodiy mavjudligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu bozor axborot nomutanosibligi va yuqori xavfsizlik risklari bilan tavsiflanadi, shu sababli davlat tomonidan litsenziyalash, sertifikatlash, farmakovigilans va narxlarni tartibga solish kabi mexanizmlar orqali nazorat qilinadi.

Biroq regulyatsiyaning yetarli emasligi kabi uning ortiqcha murakkablashuvi ham bozor samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Haddan tashqari normativ talablar bozorga kirish xarajatlarini oshirishi va dori narxlarining sun’iy o‘sishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Shu bois farmatsevtika sohasida xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi optimal regulyatsiya modeli dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida farmatsevtika bozori importga yuqori qaramlik, narx beqarorligi hamda kompensatsiya mexanizmlarining cheklanganligi bilan tavsiflanadi. So‘nggi yillarda normativ-huquqiy talablarning kengayishi ijobiy institutsional qadam bo‘lsa-da, uning narx barqarorligiga real ta’siri yetarlicha empirik baholanmagan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi, xususan Finlandiya modeli, referens narxlash, reimbursement va generik substitutsiya mexanizmlarining integratsiyalashuvi orqali dori vositalarining iqtisodiy maqbulligini ta’minlash imkonini ko‘rsatadi. Biroq ushbu modelning O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilishi ilmiy jihatdan kompleks tahlilni talab qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi farmatsevtika xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini Finlandiya tajribasi asosida qiyosiy tahlil qilish hamda O‘zbekiston sharoitida optimal regulyatsiya modelini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot savoli referens narxlash va reimbursement tizimlarining joriy etilishi dori vositalarining iqtisodiy mavjudligi va narx barqarorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashga qaratilgan. Gipotezaga ko‘ra, regulyator mexanizmlarning institutsional integratsiyasi narxlarning inflyatsiyadan yuqori o‘sish xavfini kamaytiradi va aholining dori vositalariga kirish imkoniyatini oshiradi.

Adabiyotlar shahri

Farmatsevtika bozorida dori vositalari narxlarini davlat tomonidan tartibga solish masalasi sog‘liqni saqlash iqtisodiyoti va ijtimoiy siyosat doirasida eng muhim va murakkab yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Dori narxlarining shakllanishi nafaqat bozor mexanizmlari bilan, balki davlatning institutsional aralashuvi, narx monitoring tizimlari, kompensatsiya siyosati hamda sog‘liqni saqlash xarajatlarini boshqarish strategiyalari bilan bevosita bog‘liqdir. Vogler (2017)[1] ta’kidlaganidek, farmatsevtika bozorida narxlarni erkin liberallashuv sharoitida shakllantirish ko‘plab mamlakatlarda dori vositalarining iqtisodiy jihatdan maqbulligini pasaytirib, aholining essential medicines (zarur dori vositalari)ga kirish imkoniyatini cheklashi mumkin.

So‘nggi yillarda xalqaro tashkilotlar tomonidan e’lon qilingan hisobotlar ham dori narxlarini tartibga solishning global dolzarbligini tasdiqlaydi. Xususan, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va Jahon bankining 2023-yilgi qo‘shma monitoring hisobotida dunyo bo‘yicha 2 milliarddan ortiq inson zarur dori vositalarini o‘z vaqtida va barqaror ravishda olish imkoniyatiga ega emasligi, 2,1 milliarddan ortiq aholining esa dori xarajatlari tufayli moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelayotgani qayd etilgan (WHO & World Bank, 2023)[2]. Mazkur holat farmatsevtika bozorida narxlarning yetarli darajada tartibga solinmasligi, ta’minot zanjirida shaffoflikning pastligi hamda monopolistik tuzilmalarning mavjudligi bilan izohlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda dori narxlarini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy instrumentlari sifatida referens narxlash (reference pricing)[3], maksimal narx belgilash, reimbursement (davlat kompensatsiyasi) tizimlari, generik substitutsiyani rag‘batlantirish va sog‘liqni saqlash xarajatlarini qayta taqsimlash mexanizmlari keng muhokama qilinadi. Kanavos et al. (2010) dori narxlarini tartibga solish bozor samaradorligini pasaytiruvchi omil emas, aksincha, sog‘liqni saqlash tizimida ijtimoiy adolat va moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy vosita ekanini ta’kidlaydi. Ayniqsa, davlat tomonidan referens narxlash tizimining joriy etilishi narxlarning haddan tashqari oshib ketishini cheklash bilan birga, generik preparatlarning bozorga kirishini rag‘batlantiradi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida Finlandiya farmatsevtika narx siyosati institutsional jihatdan samarali modellar qatoriga kiradi. Finlandiyada dori narxlarini tartibga solish jarayoni Pharmaceutical Pricing Board (HILA) tomonidan amalga oshirilib, ushbu organ dori vositalarining maksimal ulgurji narxlarini belgilash, kompensatsiya qilinadigan preparatlar ro‘yxatini shakllantirish hamda reimbursement darajasini aniqlash vakolatiga ega (Martikainen & Vogler, 2015)[4]. Bundan tashqari, Finlandiyada generik substitutsiya siyosati majburiy xarakterga ega bo‘lib, far-

[1] Vogler, S. (2017). Pricing and reimbursement policies: Impacts on access to medicines. Copenhagen: WHO Regional Office for Europe

[2] Tracking Universal Health Coverage: 2023 Global Monitoring Report.

[3] **Roos, J.** Effect of reference pricing reform on Finnish (Master’s thesis / dissertation, Aalto University, 2019).

[4] Martikainen, J. E., & Vogler, S. (2015). Pharmaceutical pricing and reimbursement information in Finland. Journal

matsevtika bozorida raqobatni kuchaytirish va narxlarni pasaytirishning muhim instrumenti sifatida qaraladi.

Finlandiya sog‘liqni saqlash tizimi bo‘yicha kompleks tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, davlatning qat’iy regulyativ mexanizmlari dori vositalarining iqtisodiy kirish imkoniyatini oshirish, sog‘liqni saqlash xarajatlarini nazorat qilish hamda aholini moliyaviy himoya qilishda yuqori samaradorlikka ega (Keskimäki et al., 2019). Mazkur tajriba narx tartibga solish faqat administrativ cheklovlar emas, balki institutsional boshqaruv, shaffof monitoring va kompensatsiya mexanizmlarining uyg‘unlashuvi orqali amalga oshirilishini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston sharoitida ham farmatsevtika bozorini tartibga solish bo‘yicha islohotlar olib borilayotgan bo‘lsa-da[5], importga yuqori qaramlik, narx monitoring tizimining cheklanganligi va institutsional regulyatsiya mexanizmlarining to‘liq shakllanmaganligi mavjud muammolar sifatida saqlanib qolmoqda. Shu sababli, Finlandiya tajribasi asosida O‘zbekiston farmatsevtika bozorida dori narxlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qiyosiy va kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Mavjud adabiyotlarda aynan O‘zbekiston sharoitida narx regulyatsiyasining institutsional samaradorligini baholash hamda xalqaro modellarga moslashtirish bo‘yicha tadqiqotlar yetarli emasligi ushbu maqolaning ilmiy yangiligi va research gapini belgilaydi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston farmatsevtika bozorida dori vositalari narxlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish masalasini Finlandiya tajribasi bilan qiyosiy tahlil asosida o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi dori vositalarini iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatiga ko‘ra guruhlash, narx shakllanishining institutsional mexanizmlarini aniqlash hamda davlat regulyatsiyasi instrumentlarini baholashga asoslangan kompleks yondashuvni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot konsepsiyasi va dizayni

Mazkur maqolada **pharmaceutical price regulation framework** asosida aralash metodologiya (mixed-method approach) qo‘llanildi. Tadqiqot doirasida sifat tahlili orqali narx tartibga solishning normativ-huquqiy va institutsional mexanizmlari o‘rganilgan bo‘lsa, miqdoriy tahlil orqali dori narxlarining dinamikasi va regulyatsiya instrumentlarining iqtisodiy samaradorligi baholandi.

1-jadval

	Guruh	Tavsiya
1	Zarur (essential) dori	Aholi salomatligi uchun birlamchi ahamiyatga ega bo‘lgan va davlat tomonidan narxi qat’iy nazorat qilinishi lozim bo‘lgan preparatlar.
2	Ijtimoiy ahamiyatga ega dori	Surunkali kasalliklar (diabet, yurak-qon tomir kasalliklari) uchun doimiy iste’mol qilinadigan preparatlar.
3	Generik preparatlar	Raqobatni kuchaytirish orqali narxlarni pasaytirish imkonini beruvchi muqobil dori vositalari.
4	Innovatsion va patentlangan dorilar	Yuqori narx segmentiga mansub bo‘lib, ularni tartibga solishda reimbursement va referens narxlash instrumentlari muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Dori vositalarini iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatiga ko‘ra guruhlash
2. Narx tartibga solish instrumentlarini benchmarking asosida tahlil qilish
3. CPI–medicine ko‘rsatkichlari orqali narx dinamikasini empirik baholash.



Natija

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston farmatsevtika bozorida dori vositalari narxlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish masalasini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot konseptual asos sifatida WHO tomonidan tavsiya etilgan **pharmaceutical pricing and reimbursement framework**ga tayanadi (Vogler, 2017). Metodologik yondashuv aralash (mixed-method) dizayn asosida qurilib, unda institutsional tahlil va statistik baholash usullari uyg‘unlashtirildi

of Pharmaceutical Policy and Practice.


[5] S. Usmanova “State regulation of pharmaceutical activities of the Republic of Uzbekistan” (2022).

2-jadval

Dori vositalari guruhlari va regulyatsiya yondashuvi[6]

Guruh	Tavsif	Davlat tartibga solish instrumenti
Essential medicines	Aholi uchun zarur bo‘lgan birlamchi preparatlar	Maksimal narx belgilash + kompensatsiya
Socially important medicines	Surunkali kasalliklar uchun doimiy dorilar	Reimbursement + subsidiyalash
Generics	Arzon muqobil preparatlar	Generik substitutsiya siyosati
Innovative/patented drugs	Yuqori narxli innovatsion preparatlar	Reference pricing + HTA baholash

Finlandiya farmatsevtika bozorida dori narxlarini davlat tomonidan tartibga solish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, narx barqarorligini ta’minlash faqat administrativ cheklovlar bilan emas, balki institutsional boshqaruv va kompensatsiya mexanizmlarining uyg‘unlashuvi orqali amalga oshiriladi. Finlandiyada dori narxlarini tartibga solish Pharmaceutical Pricing Board (HILA) tomonidan markazlashtirilgan holda boshqarilib, maksimal ulgurji narx belgilash, referens narxlash va reimbursement siyosati orqali narxlarning haddan tashqari oshib ketishi cheklanadi. Ushbu institutsional yondashuv natijasida dori vositalarining iqtisodiy jihatdan maqbulligi (affordability) va aholining ularga kirish imkoniyati (accessibility) yuqori darajada ta’minlanadi (Martikainen & Vogler, 2015).




1-rasm

Bu rasmda:

- **CPI umumiy** barcha tovar va xizmatlar narxining o‘sishi indeksi
- **CPI–medicine** dori narxlarining o‘sish indeksi
- **ΔCPI = CPI–medicine – CPI umumiy** farmatsevtika narxlari inflyatsiyadan qanchalik tez o‘sayotganini ko‘rsatadi.


O‘zbekiston bo‘yicha CPI–medicine doimiy ravishda umumiy inflyatsiyadan yuqori bo‘lgan. Masalan, 2023 yilda dori narxlari inflyatsiyadan **15.9 % ga tez o‘sgan**, bu esa davlat narx siyosatining samaradorligini pasaytiruvchi omil sifatida qaraldi. Bu holat narx nazorati mexanizmlarining yetarli emasligini ko‘rsatadi.

[6] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi CPI–medicine (2020–2024) https://stat.uz; Finlandiya dori narx belgilash instituti HILA hujjatlari. https://hila.fi/en/; Finlandiya reimbursement tizimi (KELA) https://www.kela.fi/medicine-expenses; Global access to medicines va financial hardship statistikasi **So** WHO & World Bank (2023) PDF: https://www.who.int/publications/i/item/9789240080379



2-rasm.

Finlandiyada dori narxlari inflyatsiyadan past o‘sishi yoki unga teng bo‘lishi, referens narxlash va reimbursement siyosatining narx barqarorligini ta’minlashda samarali ekanini ko‘rsatadi.



3-rasm.

Bundan tashqari, Finlandiyada generik substitutsiya siyosatining majburiy joriy etilishi bozor raqobatini kuchaytirib, narxlarni pasaytiruvchi asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Bu tajriba shuni anglatadiki, narxlarni barqarorlashtirish faqat davlat nazorati bilan emas, balki generik segmentni rivojlantirish orqali bozor mexanizmlarini ham rag‘batlantirish bilan bog‘liq.

Mazkur natijalar O‘zbekiston sharoitida ham dori narxlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi. Xususan, essential medicines bo‘yicha maksimal narx chegaralarini belgilash, referens narxlash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, ijtimoiy ahamiyatga ega preparatlar uchun davlat kompensatsiyasini kengaytirish hamda generik substitutsiyani rag‘batlantirish O‘zbekiston farmatsevtika bozorida narx barqarorligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari sifatida baholanishi mumkin.

Shunday qilib, Finlandiya tajribasi dori narxlarini tartibga solishda samarali institutlar, shaffof narx monitoringi va kuchli reimbursement tizimi mavjud bo‘lsa, farmatsevtika bozorida narxlarning ijtimoiy maqbulligi va sog‘liqni saqlash tizimining barqarorligi sezilarli darajada oshishini tasdiqlaydi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston va Finlandiya farmatsevtika bozorlarida dori vositalari narxlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining samaradorligini qiyosiy tahlil asosida baholadi. Empirik natijalar O‘zbekistonda dori narxlarining umumiy inflyatsiyadan yuqori o‘sishi narx shakllanishining importga qaramligi, kompensatsiya mexanizmlarining cheklanganligi va institutsional monitoringning yetarli emasligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Finlandiya tajribasi esa reference pricing, keng qamrovli reimbursement va generik substitutsiya siyosatining integratsiyasi narx barqarorligini ta’minlash hamda aholining dori vositalariga iqtisodiy kirish imkoniyatini kengaytirishda samarali instrument ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda narx siyosatini modernizatsiya qilish reference narxlashni kompensatsiya va generik siyosati bilan integratsiyalash orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Kelgusida regulyatsiya instrumentlarining uzoq muddatli fiskal va ijtimoiy ta’sirini econometrik baholash dolzarb ilmiy yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Shunday qilib, Finlandiya tajribasi asosida dori narxlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini modernizatsiya qilish O‘zbekistonda farmatsevtika bozorining barqarorligini ta’minlash, aholi uchun dori vositalarining iqtisodiy maqbulligini oshirish hamda sog‘liqni saqlash tizimida ijtimoiy adolat va moliyaviy himoyani kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlar narx regulyatsiyasi instrumentlarining empirik samaradorligini chuqur econometrik baholash hamda kompensatsiya siyosatining uzoq muddatli fiskal ta’sirini aniqlashga qaratilishi maqsadga muvofiqdir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kela (2024) *Medicine expenses and reimbursements*. Available at: https://www.kela.fi/medicine-expenses (Accessed: 23 February 2026).

2. Martikainen, J.E. and Vogler, S. (2015) ‘Pharmaceutical pricing and reimbursement information in Finland’, *Journal of Pharmaceutical Policy and Practice*, 8(1), pp. 1–12.

3. Roos, J. (2019) *Effect of reference pricing reform on Finnish pharmaceutical market*. Master’s thesis. Aalto University.

4. Statistics Agency of the Republic of Uzbekistan (2024) *Consumer Price Index (CPI) – medicines (2020–2024)*. Available at: https://stat.uz (Accessed: 23 February 2026).

5. Usmanova, S. (2022) ‘State regulation of pharmaceutical activities of the Republic of Uzbekistan’, *[Journal name if available]*, pp. 1–10.

6. Vogler, S. (2017) *Pricing and reimbursement policies: impacts on access to medicines*. Copenhagen: WHO Regional Office for Europe.

7. WHO and World Bank (2023) *Tracking universal health coverage: 2023 global monitoring report*. Geneva: World Health Organization. Available at: https://www.who.int/publications/i/item/9789240080379 (Accessed: 23 February 2026).

8. Pharmaceuticals Pricing Board (HILA) (2024) *Reference price system and pricing decisions*. Available at: https://hila.fi/en/ (Accessed: 23 February 2026).

9. https://stat.uz/uz/

10. https://lex.uz/uz/

OLIY TA’LIM TALABALARIDA INTERNETDAN FOYDALANISH MADANIYATI VA UNING SAMARADORLIGI



Mirsodiqova Nasibaxon Xusanjon qizi
Xalqaro Nordik universiteti Iqtisodiyot va biznesni boshqarish kafedrasi talabasi
nasibamirsodikova@gmail.com
OCID:0009-0003-7461-6190



Habibjonov Usmonjon Sherzodjon o‘g‘li
Xalqaro Nordik universiteti Iqtisodiyot va biznesni boshqarish kafedrasi o‘qituvchisi
habibjonovusmonjon9@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6345-483X

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy dunyoda internetning o‘rni hamda uning talabalar hayotiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida internetdan foydalanishning ijobiy tomonlari bilan birga uning salbiy oqibatlari ham yoritilib berildi. Shuningdek talabalar internetdan qayt tarizda foydalanishlari, vaqt masalasi hamda va uning behuda sarflanishi, ijtimoiy tarmoqlarning talabalar hayotiga ta’siri ko‘rib chiqildi. Bundan tashqari tadqiqot jarayonida so‘rovnoma hamda SWOT tahlilidan foydalanildi.

Kalit so‘z: Internet, vaqtni boshqarish, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli savodxonlik, internetga qaramlik, talabalar.



Kirish

2.1. Tadqiqotning dolzarbligi

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonida internet ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Talabalar o'quv materiallari, ilmiy manbalar va kommunikatsiya vositalaridan internet orqali foydalanayotgan bir paytda, undan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aks holda, internetning noto'g'ri va me'yoridan ortiq ishlatilishi vaqtning samarasiz sarflanishi, o'quv motivatsiyasining pasayishi va ijtimoiy-psixologik muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, unda oliy ta'lim talabalari misolida internetdan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlari kompleks tarzda o'rganilib, talabalar orasida internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalari, pedagoglar va yoshlar siyosati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

2.2. Tadqiqot muammosi

Hozirgi kunda talabalar internetdan keng foydalanayotgan bo'lsalar-da, undan samarali va maqsadli foydalanish ko'nikmalari barcha talabalarda bir xil darajada shakllanmagan. Ko'plab talabalar internetdan asosan ijtimoiy tarmoqlar, ko'ngilochar platformalar va vaqtni mazmunsiz o'tkazish uchun foydalanayotganligi kuzatilmoqda. Bu esa ta'lim sifatining pasayishi, vaqtni noto'g'ri boshqarish hamda internet qaramligi kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, internetning talabalar ta'lim samaradorligiga ta'siri, undan foydalanish madaniyatining shakllanish darajasi va internetdan foydalanishning ijobiy hamda salbiy jihatlari yetarlicha tizimli o'rganilmagan. Shu sababli oliy ta'lim talabalarida internetdan foydalanish madaniyati va uning samaradorligini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim tadqiqot muammosi sifatida namoyon bo'lmoqda.

2.3. Tadqiqot maqsadi

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi oliy ta'lim talabalarida internetdan foydalanish madaniyati va uning ta'lim samaradorligiga ta'sirini o'rganish, internetdan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash hamda undan samarali foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

2.4. Tadqiqot savollari

Tadqiqot muammosi va tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, quyidagi ilmiy savollar shakllantirildi:

– oliy ta'lim talabalari internetdan asosan qanday maqsadlarda foydalanadilar va bu ularning ta'lim samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

– internetdan foydalanish davomiyligi va ijtimoiy tarmoqlarga ajratilgan vaqt talabalar akademik faoliyatiga qanday ta'sir qiladi?

– internetdan samarali foydalanishni ta'minlash va uning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin?

2.5. Tadqiqot vazifalari

Mazkur ilmiy savollarga javob topish maqsadida quyidagi tadqiqot vazifalari belgilab olindi:

– oliy ta'lim talabalarining internetdan foydalanish maqsadlari va uning ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlash.

– internetdan foydalanish davomiyligi hamda ijtimoiy tarmoqlarning talabalar akademik faoliyatiga ta'sirini tahlil qilish.

– talabalarda internetdan foydalanish madaniyatining shakllanish darajasini baholash va unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish.

– internetdan samarali foydalanishni rivojlantirish hamda uning salbiy ta'sirlarini kamaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

2.6. Maqolaning tarkibiy tuzilishi

Mazkur maqola bir necha tarkibiy qismlardan iborat. Dastlabki qismda mavzuning dolzarbligi va nazariy asoslari yoritilib, internetdan foydalanish madaniyati bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi. Keyingi qismda tadqiqot metodologiyasi, so'rovnoma natijalari va SWOT tahlili asosida olingan ma'lumotlar tahlil etiladi. Yakuniy qismda esa tadqiqot natijalari umumlashtirilib, internetdan samarali foydalanish madaniyatini rivojlantirish bo'yicha xulosa va tavsiyalar beriladi.

3. Adabiyotlar tahlili

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda oliy ta'lim talabalari tomonidan internetdan foydalanish madaniyati ko'pincha raqamli savodxonlik, o'zini o'zi boshqarish (self-regulation) hamda foydalanish maqsadining yo'naltirilganligi orqali talqin qilinadi. Xususan, R.Junco (2012) tomonidan AQSh universitetlari talabalari ustida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qish jarayonida ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish akademik o'zlashtirish (GPA) ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, biroq axborot qidirish va o'quv maqsadlarida internetdan foydalanish nisbatan ijobiy, ammo zaif korrelyatsiyaga ega ekanligi aniqlangan. Shuningdek, A.Kirschner va A. Karpinski (2010) tadqiqotlarida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish va o'quv faoliyatini bir vaqtda olib borish (multitasking) ishchi xotira samaradorligini sezilarli darajada pasaytirishi, natijada akademik

unumdorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda isbotlangan.

Biroq so'nggi yillardagi tadqiqotlar ushbu masalaga yanada kompleks yondashuvni taklif etadi. A. Lepp va yana boshqa tadqiqotchilar (2015) internet va mobil qurilmalardan foydalanishning ta'siri uni boshqarish darajasiga bog'liqligini, ya'ni maqsadli va nazoratli foydalanish o'quv samaradorligini oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Xuddi shuningdek, N.Selwyn (2016) internetdan foydalanishni "norasmiy ta'lim ekotizimi" sifatida talqin qilib, talabalar tomonidan amalga oshiriladigan onlayn faoliyat (forumlar, video resurslar, ijtimoiy o'quv tarmoqlari) formal ta'lim jarayonini to'ldiruvchi muhim omil ekanligini asoslaydi.

O'zbekiston sharoitida oliy ta'lim talabalarining internetdan foydalanish madaniyati raqamli transformatsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liq holda o'rganilmoqda. Sh.Abdullayev va B.Tursunov (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda talabalarning internetdan foydalanish darajasi yuqori bo'lsa-da, uning asosiy qismi ijtimoiy tarmoqlar va kommunikatsion platformalarga yo'naltirilganligi, akademik maqsadlarda foydalanish ulushi esa nisbatan pastligi qayd etilgan. Bu holat raqamli savodxonlikning yetarli darajada shakllanmaganligini hamda internet resurslaridan samarali foydalanish madaniyati hali to'liq rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

